

С.Кир
А-39

CHINGIZ AYTMATOV ASKAR BOLA



JAHON ADABIYOTI DURDONALARI

**CHINGIZ
AYTMATOV**

ASKAR BOLA
(hikoyalar to'plami)

“Adabiyot uchqunlari”
Toshkent – 2019

UDK: 821.512

BBK: 84.7

A- 33

**Chingiz Aytmatov. «Askar bola» / hikoyalar to'plami/ tarjimonlar:
Asil RASHIDOV, KOMILA, Karim, BAHRIYEV, Suyun
QORAYEV/ «Jahon adabiyoti durdonalari» turkumi – T.: «Adabiyot
uchqunlari», 2018. – 160 b.**

**Nashrga tayyorlovchi, qo'shimcha
iqtibos va izohlarni kirituvchi:
Ergashbay MATYAKUBOV.**

UDK: 821.512

BBK: 84.7

ISBN: 978-9943-987-26-5

© Chingiz Aytmatov.

© «Adabiyot uchqunlari»



ASKAR BOLA

(hikoya)

U besh yoshlarida otasini birinchi marta kinoda ko'rdi.

Bu voqea har yili sovxozning¹ jun qirqimi o'tkaziladigan o'sha katta qocharida sodir bo'lgan edi. Qochar shifer bilan yopilgan, u shundoqqina adiring etagida, yo'l yoqasida joylashgan bo'lib, uzoqdan oqarib ko'rinib turardi.

Avvalbek bu yerga onasiga ergashib o'ynab kelardi. Onasi, Jiyangul, sovxozning aloqa bo'limida telefonistka edi. Har yili qirqim mavsumi boshlangach, u qirqim punktiga yordamchi bo'lib ishga joylashardi. Buning uchun Jiyangul o'zining mehnat ta'tilini va ekish, qo'zilatish mavsumida kommutatorda² kecha-yu kunduz ish vaqtidan tashqari ishlaganligi uchun beriladigan dam olish kunlarini ham olib, bu yerda ham qirqimning to oxirgi kunlarigacha tinim bilmay mehnat qilar edi. Jun qirqishga haq to'lash ishbay asosida bo'lib, yaxshigina daromad olish mumkin edi. Eri urushda o'lgan bir bechora beva uchun har bir tiyinning o'z o'mi borda axir! Haliyam oila katta emas, ular nihoyati ikki jon: o'ziyu, bolasi. Baribir, kattami-kichikmi, oila oila-da: oziq-ovqat, o'tin-cho'p, kiyim-kechak va yana allaqanday narsalar deganday, hammasini o'z vaqtida g'amlab qo'yish kerak.

Tashlab ketadigan kishisi bo'lmaganligi uchun Jiyangul o'g'lini ham o'zi bilan birga ishga olib borardi. U esa bu yerda qirqimchilar va cho'ponlarning o'zi tengi kir-chir bosgan bolalari va pahmoq yungli cho'pon iti bilan kuni bo'yi

¹ **Sovxoz** (*ruscha*: советское хозяйство – «sovet xo'jaligi») birikmasining qisqartmasi) – Sobiq Ittifoqida qishloq xo'jaligida tashkil etilgan yirik davlat xo'jaligi.

² **Kommutator** (*lotincha*: commuto – almashtiraman, o'zgartiraman), – almashlab ulagich, taqsimlagich – elektr zanjirini ulash, o'zish, almashlab ulash va zanjirdan o'tayotgan tok yo'nalishini o'zgartirish uchun ishlatiladigan qurilma; 2) telefon stanniyalarida ikki yoki bir necha abonentlarni o'zaro bir-biri bilan ulovchi qurilma.



chopqillab o'ynagani-o'ynagan edi.

Kunlarning birida Avvalbek qocharga ko'chma kino kelganidan birinchi bo'lib xabar topdi va boshqalarni ham kutilmagan bu quvonchli voqeadan xabardor qilishga oshiqdi:

– Kino keldi! Ko'ryapsizlarmi, ana kino keldi!

Kino ishdan so'ng, qorong'i tushishi bilan boshlandi. Bungacha esa kutaverib uning toqati toq bo'ldi. Ammo kino ham o'ylaganidek urush haqida ekan. Qocharning to'ridagi ikkala ustunga osilgan oppoq matoda shiddatli jang boshlanib ketdi, o'q ovozlari gumburladi, vizillab osmon-u falakka uchayotgan raketalar tun zulmatini yashindek yoritib, yer quchib yotgan razvedkachilarni¹ aynan yoritardi.

Raketalar ham tindi, razvedkachilar yana olg'a tashlandi. Pulemyotchilar esa yarim tunda shunaqayam o'q yog'dirishardiki, vahimadan bolaning nafasi ichiga tushib ketdi. Ha, urush deb mana buni aytsa bo'ladi!

U bilan onasi odamlarning ortida, jun solingan kandir² qopning ustiga o'tirib olishgandi. Bu yoqdan, yuqoridan yaxshi ko'rinar edi. Unga qolsa, albatta; shundoqqina ekranning yonginasida, sovxoz bolalari joylashgan birinchi qatorda o'tirgani ma'qul edi. U bunga intilib ham ko'rdi, ammo onasi uni ushlab qoldi:

– Bas qil, ertadan kechgacha yugurganing yugurgan, o'tir yonimda,– dedi-da, uni tizzasiga olib o'tirdi.

Kinoapparat lentani bir maromda yamlab-yutar, urush esa davom etardi. Odamlar uni churq etmay hayajon bilan tomosha qilishardi. Onasi ularni mo'ljalga olib, yaqin kelayotgan tanklarni ko'rib xo'rsinib ketardi. Shunda ularning yonginasida o'tirgan allaqanday bir ayol o'zicha pichirlab qo'ydi:

¹ **Razvedka** (ruscha: *разведка* – surishtirib, tekshirib bilmoq, qidirib topmoq) – 1) yer osti boyliklarini qidirish; 2) dushman va uning qo'shinlari, ularning kuchi, joylashishi to'g'risida ma'lumot to'plash uchun ayrim harbiy guruhlar, bo'linalar yoki jangchilar tomonidan olib boriladigan tezkor ish, harbiy harakat va shunday ish olib boruvchi harbiy qism, bo'lina; 3) o'zga mamlakatlarning iqtisodiy va siyosiy holatini hamla harbiy imkoniyatlarini o'rganish bilan shug'ullanuvchi tashkilot.

² **Pulemyot** (ruscha: *пуля* – o'q va *металь* – otmoq) – o'qni tez otadigan avtomatik qurol.



– E, xudo, nimalar bo‘lyapti, o‘z panohingda saqla!..

Bular Avvalbek uchun unchalik qo‘rqinchli emas, aksincha, ba‘zida, ayniqsa fashistlar o‘qqa uchib, kunpayakun bo‘lgan paytlarda hatto zavqli edi. Biznikilar qulaganda esa bola ularning yana turib, jangni davom ettirib ketishlariga katta umid bog‘lar edi.

Umuman olganda urushda kishilarning o‘qqa uchishlari o‘zgacha bir tomosha. Urush-urush o‘ynagan bolalarning ayni o‘zginasi, yugurib borayotib bunday yiqilishni uning o‘zi ham qoyillatadi. Ammo o‘ziga yarasha azobi ham bor-da, to‘g‘rimi, lat yeyishing mumkin, biroq hechqisi yo‘q, irg‘ib turasan-u, yana hujum boshlaysan, og‘riqni unutasan. Bular esa o‘rinlaridan turmay yiqilgan bo‘yicha yerbag‘irlab qolishar ekan. Avvalbek o‘qqa uchishning o‘zgacha yo‘lini ham bilardi. Masalan, bolalardan birining qorniga o‘q tegdi deb faraz qilaylik. Shunda u darhol qulab tushmaydi, avvalo, qornini g‘ijimlab ushlagancha bukchaya boshlaydi, so‘ngra qo‘lidan qurolini tushirib yuborib, sekin-asta o‘t ustiga ag‘anab tushadi. Oradan sal o‘tib: «Men hali tirikman», – deya yana jangga kirib ketadi. Bular esa yotgan bo‘yicha o‘rinlaridan turishmas ekan.

Kinoapparat lentani bir maromda yamlab-yutar, urush esa davom etardi. Endi ekranda artilleriyachilar¹ paydo bo‘ldi. Ular qasir-qusur portlashlar-u burqsib yotgan dud aralash olovli jang maydonlarini kechib, to‘plarni itarib-sudragancha yonbag‘irlardan, o‘ydim-chuqurliklardan o‘tib tepalik sari tanklarni to‘g‘ri nishonga olib borar edi. Tepalik osmonni yarmisigacha to‘sib turardi. Ana shu cho‘zilib ketgan qiyaliklar orqali qora quyun, portlashlar aralash bir to‘da artilleriyachilar olg‘a tomon yopirilib borishardi. Ularning butun harakatlaridan, qiyofalaridan bolaning yuragi hapriqib, achishib, iftixor tuyg‘ulariga to‘lgancha allaqanday dahshatli

¹ Artilleriya (*fransuzcha*: artillere – tayyorlamoq, shaylamoq) – 1) to‘p, minomyot va shu ka-bilarning otish qurollari majmui; 2) shunday qurollar bilan qurollangan qo‘shin turi; 3) to‘p-zambaraklar, ularning tuzilishi va urushda qo‘llanishi haqidagi fim. Artilleriyachi – artilleriyada xizmat qiluvchi askar, ofitser.



hodisa yuz berishini kutar edi. To'pchilar hammasi bo'lib yetti kishi edi. Ulardan biri ko'rinishidan ruslarga o'xshamasdi. Ehtimol, onasi ishora qilmaganda, bola bunga e'tibor ham bermagan bo'larmidi. Onasi unga:

–Ko'ryapsanmi, bunisi – sening otang,– deb shivirladi.

Shu daqiqadan boshlab o'sha jangchi bolaning otasiga aylandi. Shundan boshlab butun film u haqda, bolaning otasi xususida hikoya qildi. Otasi uning ko'ziga sovxoz yigitlari singari hali juda yosh ko'rinardi; jussasi kichkina, kulcha yuzli, ko'zlari esa o'ynab turardi. Tutundan qorayib ketgan yuzida ko'zlari g'azab bilan yonardi, umuman, u turish-turmushi bilan arslonday pahlavon, chaqqon, shiddatli edi. Ana: u yelkasi bilan to'p g'ildiragini itarib borar ekan, pastga o'girilib qaradi-da, kimgadir: «Qani, tezroq shaylaning!» deya qichqirdi. Uning qichqirig'i yangi portlash ovozlari bosib ketdi.

– Oyi, bu mening otammi? – so'radi Avvalbek onasidan.

– Nima deyapsan? – ona uning so'zini darhol tushunmadi.– Tinchgina o'tirib tomosha qil, ana, ko'ryapsanmi?

– U sening otang, deb aytding-ku o'zing.

– Ha, albatta, u sening otang. Ammo gapirmay o'tir, boshqalarga xalal berma.

Qayerdan ham shu gapni ayta qoldi? Nega endi? Balkim, shunchaki, o'sha daqiqalarda o'ylamasdan, tasodifan, ehtimol, hayajon aralash erini xotirlab shunday qilgan^{dir}. Bu tentak bola esa bunga ishonib o'tiribdi: noma'lum va kutilmagan quvonchdan sarosimaga tushib, go'yo jangchi otasi bilan uchrashganday faxrlanib, unga mehr qo'yib, o'zida yo'q quvonib o'tiribdi. Haqiqiy ota shunaqa bo'ladi-da! Bu qahramon – uning otasi, ha, ayni o'zginasi! Ba'zi bolalar uni otasi yo'q deb masxara qilishar edi. Endi ular uning otasini ko'rib qo'yishsin, mayli, cho'ponlar ham ko'rishsin! Bu cho'ponlar qishin-yozin tog'-u toshlarda kezib yurib, bolalarni ham durust tanimay ketganlar. Avvalbek qo'ylarni qirqim punkti hovlisiga haydab kiritishga yordamlashar, cho'pon itlari tala-shib urishib qolishsa, ularni haydab yuborar, cho'ponlar esa





turli xil savollarni yog'diraverib bolani jon-holiga qo'yishmas edi. Har qaysi cho'pon, ular olamda nechtaki bo'lsa, hammasi ham, albatta, shunday savol berishardi.

– Balli, balli, azamat, isming nima?

– Avvalbek.

– Kimning o'g'lisan?

– To'xtasinning o'g'liman!

Cho'ponlar gap kim haqida ketayotganligini darhol anglab yetishmasdi.

– To'xtasinning? – egardan engashgancha ular qayta su-rishtira boshlashardi. – Shoshma-shoshma, bu qaysi To'xtasin?

– Men To'xtasinning o'g'li bo'laman,– derdi bola yana qat'iy ravishda.

Onasi shunday amr etgandi unga, o'jiz bo'lib qolgan buvi-si ham, otangni ismini unuta ko'rmagin yana, deb uning qulo-g'ini cho'zib, adabini berardi. Juda badjahl edi...

– Ha-a, to'xta, to'xta, e, sen haligi pochta telefonida ishlaydigan juvonning o'g'limasmisan, shunday emasmi-a?

– Yo'q, men To'xtasinning o'g'liman! – davom etardi u yana o'z so'zida qat'iy turib. Shunda cho'ponlar gap kim haqi-da borayotganligini fahmlay boshlardilar.

– Darvoqe, sen To'xtasinning o'g'lisan! Barakalla, o'g'lim! Shunchaki biz seni ko'rmoqchi bo'ldik. Ko'nglingga olma, yigit, yil bo'yi tirikchiligimiz tog'da o'tadi, sizlar esa bu yerda o'sib-unayapsizlar, bola-chaqalarni ham tanimay qolyapmiz.

Endi ular uzoq vaqt uning otasini o'zaro xotirlab yura-dilar. U frontga juda yosh ketgan edi, shu boisdan ham ko'pchilik uni yaxshi eslay olmasdi. Haliyam, xayriyatki, undan yodgorlik qolibdi. Qanchalab yigitlar frontga bo'ydoq holda ketgandi, endi ularning nomi farzandlarida abadiy-lashtirilmay qoldi!

Mana endi onasi bolaga: «Ko'ryapsanmi, bunisi sening otang», – deb qulog'iga shivirlagan lahzalardan boshlab





ekrandagi jangchi uning otasi bo'lib qoldi. Bola uni beixtiyor o'z otasiday his etib, qalbiga muhrlab olgandi. Jangchi, chindan ham, nimasi bilandir otasining armiyada tushgan suratiga, pilotkadagi¹ yosh askarga juda-juda o'xshab ketardi. Ular bu suratni keyinchalik kattalashtirib, ramkaga solib osib qo'yishadi...

Shu damda Avvalbek otasiga mehribon o'g'il nigohi bilan nazar tashlardi; uning nozik qalbini hali boshidan kechmagan allaqanday qaynoq, muqaddas bir tuyg'u, bolalarga xos mehr va quvonch chulg'ab olgan edi. Otasi ekranda go'yo o'zini o'g'li kuzatib turganligini sezganday, go'yo o'zining kinodagi bir lahzalik hayotini, o'tgan urushda qahramonlik ko'rsatgan jangchini umr bo'yi eslab qolishini va u bilan mangu faxrlanib yurishni istayotgandek edi. Shu daqiqalardan boshlab urush bolakay uchun tomosha maydonidan haqiqiy urush maydoniga aylandi, odamlarning o'qqa uchib qulashlari ham uning uchun kulguli bo'lmay qoldi. Urush qizigandan qizib, tobora dahshatli tus olib borardi. Bola esa eng yaqin kishisi uchun, endigina topgan qadrdon kishisi uchun birinchi bor qo'rqish hissini tuymoqda edi.

Kinoapparat charxi shirillab aylanar, urush esa davom etardi, Oldinda hujumga o'tgan tanklar ko'zga tashlandi. Ular g'ildiraklari bilan yerni tilkalab, dahshat solib, millarini burgancha yo'l-yo'lakay o'q uzib borishardi. Bizning artileriyachilarimiz esa shu payt holdan toyib, qurol-aslahalarini yuqoriga sudrab chiqay deb qolgan edilar. «Tezroq, tezroq bo'ling, otajon! Tanklar kelyapti, tanklar!» – deya otasini shoshirardi bola. Nihoyat ular to'plarni tepalikka chiqarib olgach, yong'och butalari orasiga joylashib, tanklarga qarshi o'q yog'dira boshladilar. Tanklar ham ularga qarshi o't ochdi. Ular ko'pchilik edi. Dahshatdan bolaning yuragi hapriqib ketdi.

Go'yo otasi bilan birga uning o'zi ham olatasir otishmalar ichida yurganday tuyulardi. Avvalbek tanklar qop-qora tutun

¹ Pilotka (ruscha) – harbiy xizmatchilar (dastlab uchuvchilar)ning yozlik bosh kiyimi.



ichida yonayotganda g'ildiraklaridan zanjirlari otilib chiqib ketganda va raqiblar bir-biriga o'chakishib dahshat, adovat bilan kalla qilayotganlarida, onasining tizzasidan sakrab turib ketardi. Bizning jangchilarimiz zambaraklar yonida o'qqa uchib qulayotganlarida u jim bo'lib, kesakdek qotib qoldi. Ular endi dam sayin kamayib borayotgan edi. Onasi yum-yum yig'lardi, uning yuzi qizib, ko'z yoshlaridan jiqqa ho'l bo'lib ketgan edi.

Kinoapparat bir maromda tirillab, lentani yamlab yutar, jang esa davom etib, qizigandan qizib borar edi. Tanklar tobora yaqinlashib kelardi. Otasi to'p o'matilgan stanokka engashib, dala telefoni trubkasiga jon-jahdi bilan baqirgancha nimanidir aytayotgan edi, biroq suronli otishmalar ichida biron narsani ilg'ab olish mumkin emas edi. Mana, jangchilardan yana biri zambarak yoniga qulab tushdi: u ingragancha turishga harakat qilib ko'rdi, biroq turtinib yana yiqildi. Uning qonidan yer qorayib qoldi. Nihoyat, ulardan ikki kishi – otasi va bir jangchi – qoldi, xolos. Ular yana bir bor, so'ngra qatorasiga ikki bor o'q uzdilar. Ammo tanklar yopirilib kelardi. Mana, zambarakning yonginasida yana bir snaryad¹ yorildi. Chaqin va zulmat. Bu gal yerdan faqat bir kishi, Avvalbekning otasi bosh ko'tardi, xolos. U gendiraklaganicha yana zambarak sari tashlandi. O'zi o'qlab, o'zi mo'ljalga oldi. Bu – u otgan so'nggi o'q edi.

Yana ekranni portlash manzarasi qoplab oldi. Bu safargi chiyillab uchib kelgan snaryad otasining zambaragini bir chekkaga uloqtirib tashladi. Biroq hali uning o'zi tirik edi. U garangsib, yotgan yeridan arang turib, kuyib, ilma-teshik bo'lib ketgan ust-boshda, qo'lida granatasi² bilan yaqinlashib kelayotgan tankka qarshi chiqdi. U hech narsani ko'rmas va eshitmasdi. Nihoyat, so'nggi kuchini to'pladi.

¹ **Snaryad** (ruscha: снаряд – asbob; qurol, to'p o'qi, yoriluvchi bomba) – 1) artilleriya qurollaridan otiladigan o'q-dori turi; 2) ba'zi texnik qurilmalar nomi; 3) gimnastika asboblarining umumiy nomi.

² **Granata** (italyancha: granata < lotincha: granatus – donador) – portlovchi modda to'ldirilgan artilleriya snaryadi.





– To'xta, o'tish mumkin emas! – dedi u va granatani otishga hozirlab, qo'lini ko'targancha, alam va nafrat aralash aftini burushtirib, bir lahza turib qoldi.

Ona o'g'lining qo'lini shu daraja siqib ushlagan ediki, sal bo'lmasa u ingrab yuboray derdi. Shunda Avvalbek onasi qo'lidan sitilib chiqib, otasiga tashlanmoqchi bo'lgan ham ediki, tank pulemyotidan o'q yog'dira boshladi, otasi esa kesilgan daraxt singari qulab tushdi. U yerda ag'nagancha turishga harakat qildi va qo'llarini keng yozib, yana chalqanchasiga yiqilib tushdi...

Kinoapparat birdan jimib qoldi, urush to'xtadi. Filmning birinchi qismi tugagan edi. Kinochi lentani joylashtirish uchun chiroqni yoqdi.

Qocharda chiroq yoqilishi bilan hamma ko'zlarini qisib, kipriklarini pirpiratib kino olamidani, urush dahshatlaridan xoli bo'lib, yana odatdagi o'z holatlariga qaytdilar. Shu payt bola yung solingan qop ustidan sirg'alib tushib, quvonchi ichiga sig'may:

– Bolalar, bu mening otam! Ko'ryapsizlarmi? Mening otamni o'ldirishdi!!! – deya qichqira boshladi.

Hech kim buni kutmagan va nima sodir bo'lganini hech kim anglab yetmagandi. Avvalbek esa tantanali ovozda qichqirgancha birinchi qatorda, ekran qarshisida o'tirgan tengqur do'stlari sari chopib borardi, ularning fikrini bilish bola uchun juda-juda muhim edi. Qocharda allaqanday noqulay bir jimjitlik hukm surardi. Ilgari o'z otasini biron marta ham ko'rmagan bu murg'ak bola qalbidagi behuda, aldamchi quvonch mazmuni hali odamlar qalbiga yetib borgancha yo'q edi. Hech kim hech narsani tushunmasdi, hamma sarosimada, yelka qisib sukut saqlardi. Kinomexanik lenta solingan tunuka qutichani qo'lidan tushirib yubordi. U ikki pallaga bo'linib, janglagancha g'ildirab ketdi. Biroq bunga ham hech kim e'tibor qilmadi, kinomexanikning o'zi ham uni yerdan ko'tarib olishga oshiqmasdi. Halok bo'lgan jangchining o'g'li esa hamon o'zinikidan qolmasdi:





– O‘zlarining ko‘rdilarining-ku, u mening otam!... Uni o‘ldirishdi! – der edi bola odamlar qanchalik sukut saqlab turganini ko‘rib, shunchalik hovliqqancha, hayajonlangan holda. Nega ular Avvalbek singari uning otasi uchun quvonib faxrlanmaydilar?!

Kattalardan kimdir norozi ovozdada:

– He, tentak bola, bunday gapni zinhor gapira ko‘rma! – dedi.

Ammo boshqasi unga e‘tiroz bildirdi:

– Nega axir? Uning otasi urushda halok bo‘lgani yolg‘onmi?

Shunda qo‘shnining o‘g‘ilchasi, dabdurustdan unga bor haqiqatni aytishga jazm qildi:

– E, bu sening otang emas. Nega muncha qichqirasan? Sening otang emas, u artist-ku, ishonmasang, anavi kinomexanik amakidan so‘rab ko‘r.

Kattalar bolakayni uning qayg‘uli va ajoyib xom xayolidan mahrum etishni istashmadi. Ular kinomexanik voqea qanday sodir bo‘lgan bo‘lsa, hammasini bemalol aytib berishiga umid qilishardi. Hammalari unga o‘girilib qarashdi. Biroq u ish bilan juda band odamday, apparatga tikilganча ko‘zini uzmay turardi.

– Yo‘q, u mening otam bo‘ladi, mening otam! – deya tinchimasdi bola bechora.

– Qaysisi sening otang? – deya yana bahslashga boshladi haligi qo‘shnining o‘g‘li.

– U tankni o‘qqa tutdi-ku! Nahotki sen uni ko‘rmagan bo‘lsang? U mana bunday qilib yiqilib tushdi-ku!..

Bola o‘zini yerga otib, otasi qay tarzda yiqilganligini dumalab ko‘rsatdi. U qo‘llarini keng yozganча ekran qarshisida yotib oldi.

Tomoshabinlar beixtiyor kulib yuborishdi. Bola esa kulmasdi, o‘lganga o‘xshab cho‘zilib yotardi. Yana noqulay vaziyat yuzaga kelgandi.

– Bu nimasi, qayoqqa qarayapsan, Jiyangul? – dedi kekxa





bir cho'pon ayol. Va hamma beixtiyor Jiyangulning ko'zlarida yosh, qayg'u-alam aralash, motamsaro jiddiy qiyofada bolasi tomon borayotganini payqadi.

U bolani yerdan ko'tarib oldi.

– Yur, bolam, yura qol. U sening otang, – dedi Jiyangul ohistagina shivirlab va o'zi bilan birga bolani qochardan olib chiqib ketdi.

Oy ko'kka bo'y cho'zgan edi. Tiniq moviy tun qa'rida tog' cho'qqilari oqarib ko'rinardi, pastda esa girdob singari bepoyon dashtlik yastanib yotardi...

Faqat endigina, hayotida birinchi bor bola judolik dardini qalbdan tushunib yetgandi. Uni nogahon urushda halok bo'lgan otaning chidab bo'lmas g'am-anduhi chulg'ab olgan edi. U birdan onasini quchib, alamdan dod solib yig'lagisi keldi va onasining ham o'ziga qo'shilib yig'lashiga umidlendi. Biroq ona o'zini bardam tutib turardi. Bola ham mushtchalarini qattiq qisib, ko'z yoshlarini ichiga yutgan holda yig'idan tindi.

Xuddi mana shu daqiqalarda allaqachonlar urushda halok bo'lgan ota bolaning qalbidan mangu joy oldi, ammo buni bolaning o'zi ham bilmas edi.

Ruschadan Asil RASHIDOV tarjimasida.





BAYDAMTOL SOHILLARIDA

(*hikoya*)

I

Kutilmaganda yomg'ir quyib berdi. Bir zumda paydo bo'lgan loyqa sel chuqur jarliklarni yuvib, keksa archalarni tag-tomiri bilan qo'porib, yo'lidagi toshlarni surib-supurib, daralar osha sharqirab oqardi. Dahshatli bu oqim ana shunday shiddat bilan borib, Baydamtolga qo'shildi.

Pishqirib, quturib oqayotgan daryo o'zini qo'yishga joy topolmay, dara bo'ylab shovqin solardi. Qosh qorayib qolgan bo'lsa-da, ahyon-ahyonda o'rkach-o'rkach vahimali qora to'lqinlarning jon-jahdi bilan qirg'oq tomon tashlanishini ko'rish mumkin edi. Shiddatkor to'lqinlar kuch bilan toshlarga urilar va parcha-parcha bo'lib, yana shovullaganicha qaytib ketardi.

Yana sal o'tmay suv bilan qoya to'qnashib, darani gulduros ovozlari qoplab olardi. To'lqinlar sig'ishmayotganday bir-birining ustiga mingashardi. Goho-goho ayg'ir kabi olishib, osmonga sapchishardi. Daryo tepasidagi po'lat simga osib qo'ygan lyulkani¹ hozir uzib ketayotganday tuyulardi. To'lqinlanib oqayotgan daryo tepasidagi ulkan qora qoyalar qovoqlarini solib hech narsa bilan ishi bo'lmaganday e'tiborsiz turishardi. Unchalik katta bo'lmagan hovlida it g'ingshirdi. Qorong'i deraza ostiga o'tirib olgan kuchuk, yelkasini yalab ketayotgan achchiq sovuq iztirobidan bo'lsa kerak, tobora qattiqroq uvullardi. Shamol uning ovozini baland daralar osha uzoq-uzoqlarga olib ketardi.

Asya uxlay olmadi. Ayniqsa, chaqmoq chaqib, go'yo birov deraza ostiga kelib gugurt chaqqandek, bir zumda

¹ Lyulka – ko'tarma arava.



hamma yoq yorishib ketar, yomg'ir seli oqib tushayotgan oyna ortidan uvadaga o'xshagan sur bulutlar mo'ralaganda ko'ziga alvasti ko'ringanday, uning yuragi orqasiga tortib ketardi. Ular, hatto Asyaning ko'ziga oynani chertayotgandek bo'lib tuyulardi. Asya qo'rqqanidan qo'lidagi ochiq kitobni ko'ksiga bosdi. Vahima ichida ko'zini yumdi-da, nafas chiqarmay tashqariga sekin quloq soldi. Devorning shunday orqaginasida gidrotexnik¹ Bektemirning oilasi yashardi. U yoqdan ondasonda gangir-gungur gapirishgan va yo'talgan ovoz eshitilib turardi. Bu Bektemirning otasi kekxa Asilboyning sharpasi edi. U obdan azob chekar, aftidan, bugun cholning suyaklari yana qaqshab og'rib azob berayotganga o'xshaydi. U kuchukni bir necha bor baqirib-chaqirib so'kib oldi:

– Ket, yo'qol, Boykuren, yo'qol bu yerdan! Ovozingni o'chir, kasofat, o'lging kelyaptimi? O'chir ovozingni!

So'ng Asilboy Asya yotgan xona eshigiga yaqinlab keldi-da, yo'talganicha jahl bilan gapira boshladi:

– Hali ham yotmadingmi, Asya? Chirog'ing hamon yonib turibdi, dam olsang bo'lmaydimi, qizim? Kitobni o'qishga keyin ham vaqt topilar. Yo qo'rqyapsanmi?

– Yo'g'-e, otajon! Siz tashvishlanmang, yotib uxlayvering, issiqroq o'ranib oling, – dedi Asya.

– Qani endi, uyqu kelsa?! Yomg'ir ham jonga tegdi, yer yutgur kuchukning ovozi aytmay-sanmi, dard ustiga chipqon bo'ldi...

Orqadan xunob bo'lib gapirayotgan kelinining ovozi eshitildi:

– Voy xudo-ey, jimgina yota qolmadi bu chol, axir bolani uyg'otib yuborasiz-ku?! It bilan nima ishingiz bor, akillab-akillab o'zi jimib qoladi!..

Ammo qulog'i og'irlashib qolgan Asilboy bu gaplardan keyin ham tinchimadi. U to'shaklarini qaytadan tuzatayotib

¹ **Gidrotexnik** (gidro.. + texnika) - texnikaning suv resurslaridan xalq xo'jaligida foydalanish va turli xil suv ofatlariga qarshi kurashish maqsadida beriladigan gidrotexnik inshootlarni loyihalash va qurish ishlari bilan shug'ullanadigan soha mutaxassisi.





yana qattiqroq g'o'ldirab gapirdi:

– Ey xudo, o'zing panohingda asra! Nahotki falokat yuz bersa! Baydamtolning quturib oqayotganini qarang! Lyulkani simdan uzib ketguday bo'lsami, qidirib topib bo'libsan. Xudo, muncha qahring kelmasa, voy belim, belginam sinib ketyapti!

Ertalab quyosh tog'lar orasidan tig' urishi bilanoq, Bektemir otni egarlab, dara tomon yo'l oldi. U tog'dagi yirtqichlar yuradigan so'qmoqqa qo'yib kelingan qopqonni tungi suv oqimi olib ketmadimikan, deb u yerga ertaroq yetib borishga shoshilardi.

Yomg'ir ham tinib qoldi, ammo suvga botgan kigizdek og'ir bulutlar yer ustida muallaq osilib turardi. Bir kechadayoq cho'qqilarni va tizma tog'larni qoplab olgan oppoq qor ko'kish tortib erib yotgan edi. Qor uyumlari oralab daradan esayotgan achchiq izg'irin kishi badanini junjiktirardi. Yer bag'irlab yotgan o't-o'lanlar va butalar suvga botgan boshlarini silkitib-qoqib, qaddilarini rostlayotgan edilar.

So'qmoq yo'l sirpanchiq bo'lgani uchun Bektemir otini sekin yo'rttirib borardi. U ot jilovini bo'sh qo'yib yuborib, o'z ishlari haqida xayol surib ketdi. Kutilmaganda ot taqqa to'xtab qoldi, «chu-chu»lab haydasa ham o'rnidan qo'zg'almadi. «Bu nimasi bo'ldi, biron narsani sezyaptimi?» – o'yladi Bektemir va chor atrofga nazar tashladi... So'qmoqdan bir necha qadam narida bir odam yotar edi. Bektemir bu tasodifdan lol bo'lib, turgan joyida qotib qoldi. U odam jarlik ostida, suvning kovlab ketgan yerida yer quchoqlab yotardi. Boshida va kurtkasining yirtig'idan ko'rinib turgan qo'lida qotib qolgan qon izlari bor edi.

«Tirikmi yo'likmi?» – Bektemir otdan tushmay ehtiyotlik bilan yaqinroq kelib: «Bu kim bo'ldi ekan?» – deya qaradi:

Baydamtolda hech kim yashamaydi, bu yaqin o'rtada qishloq ham yo'q. To'g'ri, ba'zan ovchilar kelib turishadi, ularning hammasi tanish kishilar bo'lib, har gal kelganlarida ov haqida Bektemir bilan maslahatlashish uchun, albatta,





gidrologiya¹ punktiga tushishadi. Bu odam esa ovchiga ham o'xshamaydi. Yana sochini ham shaharliklarnikiga o'xshatib oldirgan, kiyimlari yoqqa botgan, bilagida soati...

Bektemir unga sinchiklab qaradi. Bu kishining butun tun bo'yi yomg'ir ostida qolib ketgani ko'rinib turardi. Gavdasining yarmini jarlikdan oqib tushayotgan loyqa suv ko'mib yuborgan. Ko'rinishidan yosh yigitga o'xshaydi. Kiyimining tizzasi va tirsagidan yirtilganiga qaraganda u qattiq olishgan, yuqoriga emaklab chiqishga intilgan. U hozir ham jarlik tubidan xuddi emaklab chiqayotgandek bo'lib yotibdi: o'ng qo'li oldinga uzatilgan, barmoqlari toshni timdalab – tirmashganicha turibdi. Qayerdan va qaysi tomondan keldi ekan u? Buni aniqlash mushkul – yomg'ir izlarni yuvib ketgan.

Shu mahal yotgan odam kutilmaganda qo'zg'alib, sekingina ingradi.

«Xayriyat, tirik ekan hali!» – sevinib ketdi Bektemir va otdan sakrab tushib, uning qo'lini ushladi.

– Hoy o'rtoq, menga qara!

Ammo u javob bermasdi. Bektemir mashaqqat bilan uni chalqancha yotqizdi, yoqalarini yechib, ko'kragiga qo'lini qo'ydi. Yuragi hali urib turardi. Bektemir uning kissalarini kovlab ko'rdi, komsomol² biletidan boshqa hech narsa topmadi. Biletning suvga botgan varaqlari bir-biriga yopishib, siyohlari yoyilib ketgan edi. Bektemir quyidagi uch so'zni o'qiy oldi, xolos: «...Aliyev Nurbek... 1930...»

– Qiziq!– boshini chayqadi Bektemir. So'ng Nurbekni egarga beozor o'ngarib olish uchun otni qulayroq joyga yetaklab keldi.

¹ *Gidrologiya* (gidro... - yunoncha: logos - ta'limot) Yer yuzidagi suvlarni, ularning bug'lanishini, qayta suvga aylanishini, singishini va boshqa xususiyatlarini o'rganadigan fan.

² *Komsomol* (russcha: «Коммунистический союз молодежи» birliklashtirilgan qisqartmasi) Sobiq Ittifoq davrida kommunistik Yoshlar uyushmasi a'zosi.



II

«Penitsillin¹ «tugayapti, nima qilish kerak?» – Nurbekning bu yerda eshitgan birinchi soʻzi shu boʻldi. Bu soʻzlar xuddi uzoqda gapirilgandek qulogʻiga arang chalindi. Ammo bu soʻzlarni kim soʻzladi, u kimga tegishli, buni Nurbek anglamasdi. U har qancha urinsa ham koʻzini ocholmadi, majoli qurib, oʻzini allaqanday zulmat ichiga qulab tushgandek his etdi.

Keyinroq Nurbek kimdir ogʻziga suv quyayotganini sezdi. Ogʻzidan oqib tushayotgan muzdek suv uning qoʻyniga tushganda u sekin koʻzini ochdi. Bu safar u, kimdir birov boshida engashib turib:

– Qarang, Asilboy ota, koʻzini ochdi! – deganini aniq eshitayotgan edi.

Nurbek gapirayotgan kishi yo qiz bola yoki yosh juvon ekanini ovoizdan bildi. Biroq shunda ham uning yuzini koʻrmasdi: koʻz oldini tumandek qorongʻilik qoplab olgan, hech narsa koʻrinmasdi. «Bu ehtimol tushim boʻlsa kerak», – oʻyladi Nurbek. Shu payt ikkinchi bir kishi gapga aralashdi, u har holda keksaroq koʻrinardi.

– Ha, qizim, u yana hayotga qaytdi!– dedi-da, yengil tortib nafas oldi.– Sen savob ish qilding, Asya! Mana buni xudoning qudrati-yu, dorining koʻmagi deydilar!

Ular yana nimalar haqidadir pichirlashib gapirishdilar-da, soʻng chiqib ketishdi. Chol eshikni ehtiyotlik bilan yoparkan:

– Damini olsin, bechora!–dedi.

Asta-sekin bemorning koʻz oldi ravshanlasha boshladi. Nurbek unchalik katta boʻlmagan, yangi oqlangan ozoda xonaga hayron boʻlib koʻz yugurtirib chiqdi. U qanday qilib bu yerga kelib qolganini bilmasdi, lekin xonada biron madaniyatli kishi yashashini darrov sezdi. Javonlarda tartib bilan terib qoʻyilgan kitoblar, stol ustida esa allanimalar yozilgan

¹ **Penitsillin** (lotincha: Penicillium – zamburugʻlarning bir turi < penicillum – panja; popuk, shokila) – kimyoviy tuzilishi bir-biriga yaqin, tibbiyot amaliyotida keng qoʻllanadigan tabiiy va yarim sintetik antibiotiklar guruhi.



qog'oz taxlog'liq turardi. Burchakdagi shkafda Nurbekka notanish bo'lgan qandaydir uskunalar qo'yilgan. Devorda Alpinistlarning¹ ko'zoynagi osig'liq turibdi. Asta egilib deraza tomon qaragan edi, ko'zi tumbochka ustidagi oyna va ko'pchilik bo'lib oldirilgan suratga tushdi. Suratning tepasiga «Geografiya fakulteti» degan so'zlar yozilgan. Derazadan tog' cho'qqilari, moviy osmonning bir parchasi ko'zga tashlanib turardi. Qayerdadir yonginasida, go'yo uying yonboshida daryo to'xtovsiz shovullab turardi.

– Hech narsani eslolmayman!– pichirladi Nurbek va oynaga tikilganicha qarab qoldi. Ranglari siniqib, yuzlari ichiga cho'kib ketgan, ko'pdan beri soqol-mo'yloviga ustara tegmagan, boshi bint² bilan o'rab bog'langan kishi karavotda yotgan bo'yicha oynadan unga tikilib qarab turardi.

– A-a! – baqirdi Nurbek. Uning yuzlari og'riq va dahshatdan o'zgarib ketgan edi. Go'yo u qandaydir jirkanch va vahshiy bir qiyofani ko'rgandek bo'ldi. Nurbek qo'li bilan yuzlarini berkitib, ingraganicha teskari o'girilib yotdi. Eshik ochilganda esa qo'rquvdan cho'chib ketib, qo'llarini yuzidan oldi. Xonaga uzun sochlarini orqasiga tugib olgan, egnida chang'ichilar kostyumi va oyog'iga qalin charmli tog' botinkasi kiyib olgan bir qiz kirib keldi.

– Qalay, durustmisiz? – oddiy bir ohangda bemordan holahvol so'radi va qo'lidagi choynakni stolga qo'ydi. Nurbek qip-qizarib ketdi. Yoningda qiz bola tursa-yu, yigit bo'la turib karavotda yalpayib yotsang, qiziq tuyular ekan. U turishga harakat qilib ko'rdi.

– Siz nima qilyapsiz?! Yoting, turish mumkin emas sizga!

Nurbek qizga javob bermoqchi edi, lekin ulgura olmadi, qovurg'asi tagida qattiq sanchiq turib, kutilmaganda nafasi bo'g'ilib, yo'tal tutib qoldi. Nurbek ikki bukilib ko'kragini changallaganicha xirillab yotgan edi. Qiz qo'rqib ketganidan

¹ **Alpinist** (Alp tog'i nomidan) — sportchi. Turli murakkab to'siqlardan o'tib tog' cho'qqilariga ko'tarilish bilan shug'ullanadigan sportchi.

² **Bint** (*nemischa*: Binge - bog'ich, bog') - yaralarni bog'lashga mo'ljallangan doka, bo'z, flanel, lenta va boshqalar).



nima qilishini bilmay, xonada gir aylanardi. Oxiri, kelib Nurbekning boshini tutdi. Yo'tal to'xtagach, yengil nafas olib, bemorning manglayini sochiq bilan arta boshladi.

– O'pkangiz qattiq shamollagan. Siz o'zingizni ehtiyot qilishingiz kerak. Kechadan beri hushsiz yotibsiz. Haroringiz ham baland. Bugun ham o'ttiz to'qqiz.

Yoting... Bu yerda o'zingizni o'yingizdagidek his etave-ring... Men esa radiobudkada bir necha daqiqa aylanib qolibman...

Nurbek yo'taldan so'ng ham o'ziga kelmadi, qizga nima-ni aytishni, nima deb javob qaytarishni bilmay, xijolat tortib dovdiragancha qarab turardi, xolos. Erkaklarga o'xshash kiyinib olgan bu qiz negadir daqiqa sayin unga yaqinroq va tanishroq bo'lib tuyular, go'yo Nurbek uni ko'pdan beri ko'rib yurgandek edi. U qorachadan kelgan, oddiy qirg'iz qizi edi. Uning yumaloq yuzi, chiroyli keng peshonasi tog' shamoli va quyoshdan pishgan edi. Taranglashgan qalin lablari hozir kulib yuborayotganday, hamisha mayin tabassum bilan balqib turardi. Bularning hammasi kishida bolalarcha soddalik va ezgulik tug'dirardi. Faqat uning ko'zlaridan jiddiylik va o'y-chanlikni sezib olish mumkin edi. U unchalik katta bo'lmagan semiz va baquvvat qo'llari bilan ko'rpani tuzatib, Nurbekning oyoqlarini yaxshilab o'rab qo'ydi.

– Karavot qisqaroq, yostiqni balandroq qo'yib beraymi?

– Yo'q, yo'q, tashvishlanmang... Kechirasiz, singilcham, men hozir qayerda yotibman?

Qiz ajablanib, qoshlarini chimirdi.

– Bu yer gidrologiya punkti!

– Gidrologiya punkti deysizmi?

– Ha! Siz Baydamtol daryosi haqida eshitgandirsiz? Sizni Bektemir og'a topdi. Siz uni taniysizmi?

– Yo'q, eslay olmayman!..

– U bizning gidrotexnigimiz.

– Bu yerda odam yashaydimi?

– Ha, yashaydi. Lekin juda ozmiz – Bektemir og'aning



oilasi va men, xolos.

– Siz bu yerda ishlaysizmi?

– Ha, gidrologman¹.

– Menga qilgan yaxshiliklaringiz uchun rahmat, singlim, biroq... – Nurbek gapirolmay tutilib qoldi. So'ngra sir boy bermay, so'radi: – Sizning ismingiz nima?

– Asya. Sizning nomingiz – Nurbek-a, shunday emasmi? Siz Baydamtolga biron-bir muhim ish bilan kelgan bo'lsangiz kerak?

Nurbek Asyaning so'zlariga javob bermadi. Teskari qarab boshini ko'rpaga o'rab oldi, lekin shu zahotiy oq ko'rpani irg'itib tashlab, qizga ho'mrayib qaragan holda:

– Men jinoyatchiman! – dedi. Asya qo'lidagi choynakni sekin yerga qo'ydi.

– Siz jinoyatchi?! Qanday jinoyatchi, qanaqasiga? Demak, siz qochib kelib, tog'da berkinib yotibsizmi?!


– Ha, singlim! Siz odamni qutqardik deb o'ylarsiz... Bu to'g'ri, mening o'mimda boshqa har qanday kishi bo'lganda ham umrining oxirigacha o'zini sizdan qarzdor deb bilardi... Ammo men dom-daraksiz yo'qolib ketganimda, agar toshqin daryo mening suyaklarimni uzoq-uzoqlarga oqizib ketganida, men o'zimning mana shu achchiq taqdirimdan juda xursand bo'lardim.

Asyani qo'rquv bosgan edi, lekin u o'zini darrov qo'lga olib, bemorni tezroq tinchitishga harakat qildi.

– Qo'ying, tinchlaning? Siz hayajonlanmasligingiz kerak. O'ringizdan qo'zg'almang!

– Ketmang, singlim! Sizdan o'tinib so'rayman, gaplarimga quloq soling! – Aftidan, u Asyani o'zining gaplarini eshitmay ketib qolishidan qo'rqardi. – To'xtang, Asya, men sizga hammasini aytib beraman yashirmasdan...

¹ **Gidrolog** (gidro.. + *yunoncha*: logos – ta'limot) – Yer yuzidagi suvlarni, ularning bug'lanishini, qayta suvga aylanishini, singishini va boshqa xususiyatlarini o'rganadigan fan mutaxassisi.





III

Ilk bahor kunlaridan birida Nurbek zavod darvozasidan tashqariga chiqdi, bo‘ynidagi jundan to‘qilgan sharfini olib cho‘ntagiga soldi-da, keng yelkalarini rostlab, ko‘kragini to‘ldirib-to‘ldirib chuqur nafas ola boshladi. U ko‘rish mumkin bo‘lgan hamma narsaga: ko‘chalarni, zavod korpuslarini¹, havo va parklarni – jamiki narsaga quvonch bilan nazar tashlardi.

Nurbek bo‘ychan, kelishgan yigit edi, hozir ham boshini yuqori ko‘tarib, lablarini qisib atrofga mag‘rur boqib turishi o‘tkinchilarning ko‘ziga, ayniqsa, yaqqol tashlanib turardi.

U, ayniqsa, bugun bahorning yaqinlab kelayotganini yaxshi his qilayotgan edi. Havo nam va yopishqoq osmon sarg‘ish bulutlar bilan qoplanib, quyosh ko‘rinmayotgan bo‘lsa ham, asfatlarda qorlar erib ketayotgan edi. Pastqam o‘tloqlardan esa suvlar jildirab oqib, ariqlarga borib quyilayotgan edi. Bahor darakchisi – o‘rik, uning devorlar orqali ko‘chalarga yoyilib ketgan shoxlaridagi to‘lishgan kurtaklari nozik hid tarqatardi.

Nurbek trolleybusga o‘tirdi. Uning bahor haqidagi o‘y-xayollari hali tarqamagan. Yaqinlashib kelayotgan kunlar Nurbek uchun qiziqarli va alohida ahamiyatga ega. U qo‘riq yerlarda tashkil etilgan olisdagi baland tog‘li sovxozlarga² mexanik³ bo‘lib boradi. Zavod partiya tashkilotining kotibi uning xarakteristikasiga: «Malakali, aqlli mexanik, shuning uchun ham zavod partiya tashkiloti unga zavod ishonchini oqlashiga to‘la ishonch bildiradi», – deb yozgan edi.

¹ **Korpus** (*lotincha*: corpus – tana, jism, modda; bir butun narsa) – 1) Mexanizm, apparat va shu kabilarning tayanchini yoki qobig‘ini tashkil etuvchi; 2) bir umumiy uchastkadagi, bir majmuara kiruvchi binolardan biri, alohida bino qismi (**bu yerda shu ma‘noda**); 3) bir necha diviziya yoki brigadadan iborat yirik harbiy qo‘shilma; 4) biror davlatdagi barcha diplomatlar, konsullar; 4) Qonun chiqaruvchi ayrim muassasalarning yoki qonun chiqaruvchi organga tegishli palatalarning barcha deputatlari.

² **Sovxoz** (*ruscha*: советское хозяйство – «sovet xo‘jaligi» birikmasining qisqartmasi) – Sobiq Ittifoqida qishloq xo‘jaligida tashkil etilgan yirik davlat xo‘jaligi.

³ **Mexanika** – texnikaning harakat va kuchlar haqidagi bilimlarni amaliy vazifalarga tatbiq etish bilan shug‘ullanuvchi tarmog‘i. Binokorlik mexanikasi. **Mexanik** – mashinalarni nazorat qiluvchi lavozimli kishi, mutaxassis.



Viloyat hokimiyatning yo'llanmasi qo'lida, erta-inding klubda xayrlashish marosimi o'tkaziladi, unda qancha iliq so'zlar, yaxshi istaklar aytiladi, musiqa, raqs, kulgi, qo'l siqishib ko'rishish, so'ngra... so'ngra... Bularning barini, qalbiga jo qilib olgan quvonchli voqealarning hammasini ta'riflab berish Nurbekka qiyin... Bir so'z bilan aytganda – oldinda yangi porloq hayot, yangi ish, yangi do'stlar!..

Nurbek qo'riq yerlarni zabt etuvchi shonli yoshlarimizning biri bo'lib tayinlanadi. U yerda, asrlar bo'yi odamzod qadami yetmagan tog' bag'irlarida ekinlar boshqolaydi, yo'l-lar yotqiziladi va shunda xalq: «Bu bizning ovulimiz, bizning maktabimiz, bizning ustaxonamiz...», – deb faxr bilan tilga oladi. Nurbek bu haqda o'ylar ekan, uning qo'llari kuchga to'lib, hoziroq ishni boshlashga oshiqardi.

IV

Bahor tog'ga juda kechikib keldi. Shudgordan tashqari, sovxozda ishlar boshdan oshib yotgan edi. Texnikaga yoqilg'i keltirish, ta'mirlash ustaxonasini jihozlash, uy, oshxona, hammom qurish va boshqa qanchadan qancha ishlar. Axir yangi, kimsasiz yerda hammasi ham muhim, hammasi ham kerak. Birini qildingmi, orqasidan ikkinchisi, uchinchisi chiqaveradi. Biroq mexanizatorlar¹ shudgor qilib, ekin ekishni muhim va asosiysi deb hisoblar edilar.

Ma'lum bo'lishicha, bu kimsasiz, yovvoyi tog' oraliqlarini inson izmiga bo'ysundirish shunchaki yengil bir ish emas ekan. Ammo mavjud qiyinchiliklar Nurbekning ruhini tushira olmadi. U avvalgiday shoshib-pishgan, qizg'in va serg'ayratligicha qoldi. Bunga yana serzardalik, nima desa aytganini qildiradi oladigan kabi yangi xarakter xislatlari ham qo'shildi. U hamma ishni o'z qo'li bilan bajarishni, o'z didiga

¹ **Mexanizatsiya** (*yunoncha*: mechane – qurol, mashina) – ishlab chiqarishda foydalaniladigan (qo'llanadigan) mashina va mexanizmlar majmui. **Mexanizator** – mexanizaniya mutaxassisi – mashina va mexanizmlarni biror sohaga joriy etuvchi mutaxassis.



o'tiradigan qilib ado etishni istardi. Agar, mabodo uning qo'lstidagi kishilardan birontasi belgilangan topshiriqni bajara olmasa, u bundaylarga bo'sh kelmasdi: «Qanaqa odamsan! – baqirib berardi u, odatdagidek, – shu oddiy ishni ham uddalay olmayapsanmi?.. Senga o'xshaganlarni bu yerga kim yubora olishi mumkin... Qani, nariroq tur, o'zim qilaman!»

Nurbek qanday ishga kirishmasin, uni albatta, oxiriga yetkazmasdan qo'ymasdi. Aftidan, Nurbeksiz umuman biron ishni bajarish mumkin emasday tuyulardi. Qachon qarama, belini mahkam bog'laganicha chopib yuradi. «Chodirlarni ham o'zi buzib, buldozerlarni¹ o'zi boshqarib boradi, tog'lardan ko'chib tushgan qor uyumlarini kurab, ustaxonadagi stanoklarni ham o'zi montaj qiladi...

Faqat yomg'ir uzoqqa cho'zilib, ishga chiqmay chodirlarga kirib olingan paytda uning boshiga birdan g'amgin o'y-lar kelardi. Unga shu narsa qorong'i edi: nega u hanuzga qadar biron kishi bilan yaqindan aloqa bog'lay olmadi, nega uning bemalol dardlasha oladigan samimiy, dilkash do'stlari yo'q? Ishda esa odamlar unga bo'ysunadi, hech qachon aytganini ikki qilmay, izzat-hurmat qilayotganday bo'lib ko'rinadi, ish kuni tamom bo'ldimi, hatto u bilan hech kim gapirishmaydi ham... Shunday paytlarda Nurbek chamadondan fotosurat-larni olib, chiroqning xira yorug'iga tutib uzoq vaqt termilib qarardi.

Oynagul suratda ham chiroyli edi. Fotosuratdan uning sevimli atir hidi anqib turardi.

Oynagul vazirlikda kotiba bo'lib ishlardi. U yumshoq yo'lkalardan va to'shab qo'yilgan gilam ustidan yurishga ko'nikib qolganidanmi yoki tug'ma go'zallikmi, uning yengil va ohista qadam tashlab yurishlari g'oyat latofatli edi.

Nurbek qo'riq yerlarga ketishga qaror qilganini aytib, yonidagi putyovkasini ko'rsatganda, Oynagul Nurbek kutga-nidek uning bo'yniga osilmadi.

¹ **Buldozer** (*inglizcha*: buldozer – katta kesaklarni maydalovchi) – yer surish va tekislash uchun maxsus keskich-surgich bilan uskunilangan traktor.



– Sen yaxshi o‘ylab ko‘rdingmi? – so‘radi Oynagul, peshonasini tirishtirib.

– Ha, nima edi?

– Shunday o‘zim... – dedi va sekingina qo‘shib qo‘ydi:– Demak, sen meni faqat so‘zdragina sevar ekansan-da... – Oynagulning qalin kipriklari yosh bilan namlanib, ko‘zlari yana go‘zallik kasb etgan edi. Nurbek dovdirab qoldi, u buni kutmagan edi.

– Nima keragi bor buni, Oynaxon? Sovxozga ketsa, meni esdan chiqarib yuboradi, deb o‘ylamagin sen! Men u yerlarda sen bilan birga hayot kechirishimizni orzu qilaman.

Albatta, Oynagul qo‘riq yerga borish haqida tezda bir qarorga kelmagan edi. Buni Nurbek ham unga maslahat solmagan edi. Avvalo, joylashib, uy olish, keyin esa turmush qurish haqida so‘z bo‘lishi mumkin edi.

Nurbekni kuzatayotib, Oynagul uyga o‘zining fotosuratini taqdim etdi:

– Boraver, Nurbek, – dedi u zarda bilan lablarini cho‘chaytirib. – Bilaman, agar xayolingga biron narsa kelib qoldimi, sira ham fikringdan qaytmaysan. Agar u yer yoqmay qolsa, o‘zingni qiynab o‘tirma, qaytib kelaver, men kutaman seni... Yana zavodda gap qilishadi, deb o‘ylama, buning uncha ahamiyati yo‘q... Ish hamma vaqt topiladi... Ha, aytganday, har ehtimolga qarshi, tentirab yurma, tumanda mening tog‘am ishlaydi, mana uning manzili. Tortinib o‘tirma, unga murojaat qilaver, hammasiga yordamlashadi u...

Biroq ma‘lum bo‘lishicha, Oynagul unga adashib boshqa manzilni bergan ekan. Uning tog‘asi qo‘shni tumanda, janubdagi dovonda ishlar ekan. Nurbek buni keyinchalik mahalliy kishilardan so‘rab bilib oldi.

Sovxoz kundan kunga ko‘z o‘ngida yuksalib, obod bo‘lib bormoqda edi. Nurbek bo‘lsa hamon o‘sha kunni – Oynagul bilan o‘z taqdirini birlashtiruvchi porloq kunni orziqib kutayotgan edi.



V

Tog'ga bahor ancha kechikib keladi, uni orziqib kutish kerak, biroq u o'z husn-jamolidan nishona ko'rsatdimi – darhol yer yuzini gul va ko'katlar sepi qoplab oladi.

Pastda, vodiya maysalar unib chiqadi, nihollar qomatini rostlab yaproq yozib, soya tashlay boshlaydi. O'shanda bahor navbatni yozga berib, o'zi esa yer betini chulg'ab olgan ko'k-yashil tusdagi guldor ko'ylak barini ko'tarib sudraganicha tog'sari yo'l oladi.

Tog' zonasining bahori o'zgacha tabiatga, o'zgacha go'zallikka ega.

Ertalabdan qor yog'adi, tushdan so'ng quyosh chiqib, qorlar erib bug'lanadi, bir kunlik gullar gullaydi, kechga kelib esa yer selgib, ariq va jilg'alar tun bo'yi muzlab chiqadi. Ertasiga ertalab cho'qqilardan qarasang, ko'z ilg'amas kenglikdagi naqadar musaffo tog' bahorinn ko'rib, qalbing quvonchlarga to'ladi. Charaqlab turgan osmon dengizida kichkinagina dog' ham ko'rinmasdi. Yer esa yoshgina qiz kabi yasangan – yam-yashil, shabnam bilan yuvilib, go'yo uyalib kulib turardi... Agar qiyqirsang, ovozing uzoq vaqt jaranglab cheksiz va yuksak tog' tizmalari bo'ylab toza havoda yiroq-yiroqlarga taralib ketadi... Hech qanday qor ham, tuman ham, yomg'ir va shamol ham bahorni to'xtata olmasdi, u yashil olov kabi alangalanib tog'dan tog'ga, cho'qqidan cho'qqiga yonib o'tib, tobora yuksalib, mangu muzliklar sari bormoqda edi.

Odamlar hamma yerda bahorgi ekishni ertaroq tugallash bilan band. Tog'li yerlarda esa bu, yanada muhim edi, – muddatdan sal kechikdingmi, ekinlar pishib yetilmay qolardi yoki tungi sovuq urib ketardi.

...Nurbek sovxozning uzoq uchastkalaridan biri – chegaradagi «Katta soyga» kechqurun yetib keldi. U motosikldan tushmasdanoq, qiya tepalikda to'xtab qolgan traktorni ko'rdi. Nurbek achchiqlanib tupurib, motosiklni o'chirdi va traktor





tomon yugurib ketdi. Olisdan jahli chiqib baqirdi.

– Ey, sen traktorni nega yotqizib qo‘yding! Yana sindirdingmi?

Yosh traktorchi Juman qo‘lidagi papirosni oyoq ostiga olib tepkilab tashladi.

– Traktorning hamma yeri taxt! – o‘zini oqlamoqchi bo‘lganday javob berdi u. – Biroq bu yerda haydash xavfli, og‘a.

– Nima deyapsan? – Nurbek unga tomon tashlandi. Sal bo‘lmasa mushti bilan solib yuborguday bo‘lib. – Aqling joyidami seni?

– E-e... O‘rtoq mexanik, tushunasizmi...

– Ha, aniqroq qilib gapir! Traktor qachondan beri yurmay turibdi? Senga aytyapman!

– Bir soatdan beri...

Nurbek mushti bilan havoni kesib:

– Kim ruxsat berdi senga? Kim? Qanday ahmoq?

– Traktor ag‘darilib ketadi deyapman-ku. Ishlash xavfli!

– Qayoqqa ag‘dariladi? Nega mahmadonalik qilyapsan?

Buning ustiga brigadir¹ kelib qoldi. Nurbek Trofimovning boshidan oyog‘igacha g‘azab bilan nazar tashlab oldi va afsuslanganday boshini chayqab:

– Buni sizdan hech qachon kutmagan edim! Traktorning bo‘sh turganligi uchun partiya kengashida javob berasiz!

Katta, keng gavdali Trofimov, odati bo‘yicha dag‘al mo‘ylovini vazminlik bilan silab, bosh irtg‘ab hammasini ma‘qullaganday:

– Traktorni to‘xtatishga majbur bo‘ldik, o‘rtoq mexanik, – bosiq ovoz bilan gapirdi u. – Kutdik, siz yoki agronom² kelib qolsalaring, maslahatlashamiz deb o‘yladik... Mashinani

¹ **Brigadir** (*fransuzcha*: brigadier - brigada boshlig‘i) - ishlab chiqarish, dalachilik brigadasining boshlig‘i.

² **Agronom** (agro.. + *yunoncha*: nomos - qonun; odat) - qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi, uning qonun-qoidalari haqidagi fan; qishloq xo‘jalik va dehqonchilikka doir nazariy va amaliy bilimlar mutaxassisi.



haydashga relief¹ imkon bermaydi. Nishablik... Qiyalikni bir ko'ring-a... Traktor sirg'alib tushib ketishi mumkin, kishilarning ham boshiga yetishimiz mumkin! Sezyapsizmi, traktorning qanday turishini!

Nurbek traktorga o'tirib olib yon bag'ir muyulishga bir qarab oldi-da, shoshqaloqlik bilan qo'l siltab:

– Ortiqcha ehtiyotkorlik! Bu g'ildirakli traktor emas, zanjir g'ildirakli traktorlar bu qiyaliklardan yuraveradi va hech qachon ag'darilmaydi!

– Men, xudoga shukur, tog'larda yigirma yillar chamasi ishlayapman, Nurbek Aliyevich. Har xil voqealar yuz berdi! Siz esa hali bu yerlarga yangi kishisiz. Ishoning menga, bu yerda traktor bilan ishlash mumkin emas, juda xavfli.

Mensimaslik ham evi bilan-da! Demak, bundan ko'rindiki, Nurbek o'z ishini eplay olmayotgan ekan-da?! Buning ustiga yana Juman brigadirning so'zlarini ma'qullab qo'shib qo'ydi:

– Brigadir to'g'ri aytadi. Haqiqatan ham xavfli!

– Agar xavfli bo'lsa o'tovda, uyda o'tiraverish kerak edi!– Tishi orasidan javob qildi Nurbek.– Qo'riq yerga qo'rzoqlarning keragi yo'q! O'zingiz ayting-chi o'rtoq Trofimov, partiya bizni nima uchun yubordi bu yerga? Agar biz qandaydir kichkina bir tepalikka chiqishdan qo'rqsak, topshiriqni qanday qilib bajaramiz!

– Yo'q, o'rtoq mexanik,– e'tiroz bildirdi Trofimov.– O'zini baloga giriftor qilish emas, balki oqilona ish tutish kerak. Axir bu jiddiy ish-ku.

– Siz nimani taklif qilasiz? Qo'l qovushtirib o'tirishnimi?

– Nima keragi bor shunaqa so'zlarni, o'rtoq mexanik. Qachon biz qo'limizni qovushtirib o'tiribmiz. Bu yerni haydash noqulay ekan, bo'lmasa boshqa yerga o'taylik.

– Maslahatingiz uchun rahmat! Demak, biz yer haydash

¹ Relief (*fransuzcha*: relief < *lotincha*: relevo – biroz ko'taraman) – 1) Yer sirtidagi tabiiy yoki sun'iy ravishda hosil bo'lgan har xil notekisliklar – past-balandlik, tog'lik-nishabliklar majmui (**bu yerda shu ma'noda**); 2) haykaltaroshlikning bir turi – muayyan sathga nisbatan bo'rtna yoki o'yma tasvir; bo'rtna naqsh.



o'rniga, u yerdan-bu yerga ko'chib yurishimiz kerak ekan-da? Bir daqiqa vaqt hozir qanchalik qimmat ekanligini o'ylab ko'rdilaringmi? Ikkinchi bir yerga ko'chib o'tamiz deguncha o'nlab gektar yerni haydab qo'yish mumkin. Qolaversa, sizlarga yana shuni eslatib qo'yishim kerakki, hammamizda ham reja, grafik va yo'nalish bor. O'zboshimchalik qilishga haqimiz yo'q.

– Nega bunday ekan, o'rtoq mexanik? Rejaga tuzatish kiritish mumkin emasmi? Men sizga yana eslatib aytyapmanki, bu tik tepalikda traktorda yurishni hech kim xohlamayapti. Istagan kishingizdan so'rab ko'ring! – dedi Trofimov to'planib turgan traktorчилarga ishora qilib. Ularning biron-tasi ham churq etmay turardi. Ammo qovoq osib turishlaridan mexanikning aytgan gaplarini ma'qul ko'rmayotganliklarini uqib olish mumkin edi.

– Har kimning joni o'ziga aziz,– dedi Trofimov traktorчилarning fikrini ifodalab,– bunday yonbag'irliklarda hazil-lashib bo'lmaydi, o'rtoq mexanik!

– Noto'g'ri aytasiz! Siz boshqalarni ham qo'rqqoq qilib qo'yibsiz. Men – sovxozning mexanigiman, qaysi mashinadan qayerda foydalanishni mening ixtiyoriga qo'yib bera-veringlar. Men aminmanki, bu yonbag'irlikni hech qanday hadiksirasmasdan haydayverish mumkin. Bo'lmag'ur gaplarga quloq solmaslik kerak! Siz – kommunistisiz¹, o'rtoq Trofimov, qiyinchiliklardan qochish kerak emas, balki kurashmoq kerak.

– Qiyinchiliklar sen yashab turgan zamonga nisbatan men bosib o'tgan davrda ko'p edi, yosh yigit! – brigadir tutaqib ketdi u Nurbek tomon yaqinlab kelarkan, o'zini g'azabdan arang bosib keskin burilib odimlab ketdi. Uning orqasidan boshqalar ham keta boshladi. Nurbek yolg'iz o'zi qoldi. Bu unga juda qattiq botib, qalbi alam va iztirobdan achishib og'riyotgan edi. Nurbek o'midan sakrab turib, Trofimovga yetib oldi va uning yengidan ushladi:

¹ **Kommunist** – sotsializmning va kommunizmning ashaddiy tarafdori, kommunistik partiyaning a'zosi. Sobiq Ittifoqda 1991-yilgacha, Xitoy, Vetnam, Kuba va Shimoliy Koreyada hozir ham mavjud bo'lgan tuzumning faollarining umumiy nomi.



– Men sizga darhol traktorni yurgizishni buyuraman!

Trofimov Nurbekning boshidan oyog'igacha jimgina nazar tashlab oldi-da, keyin undan qo'lini tortib olib, yurishda davom etdi.

...Allaqachon yarim kechadan oshib qolgan, tunamoq uchun baland tog' qoyalari orasiga bulutlar suzib kelishmoqda, ular to'p-to'p bo'lib, o'zaro uchishib, endigina uyquga bosh qo'ygan edilar. Tevarak-atrof suv sepganday jimjitlik. Uzoq-uzoqlarda traktorning gurillagan ovozi arang eshitilardi. Brigadadagi¹ kishilarning hammasi uyquga ketgan. Faqat Nurbek uxlagani yo'q. Achchiq va chidab bo'lmas alam o'tlari uning qalbini tirnab o'rtayotgan edi. U ilondek to'lg'anib, sezdirmasdan xo'rsinib, allanimalar deb g'ol'dirardi. Ha, Trofimov uni bugun sharmanda qildi, butun xalq o'rtasida sharmanda qildi! «Yo'q, bunga jim turib bo'lmaydi! Nima bo'lsa ham o'zining haq ekanligini isbotlashi kerak, faqat shundagina o'z obro'-e'tiborini tiklab olishi mumkin!»

Nurbek sekin o'midan turib ovoz chiqarmay chodirdan tashqariga chiqdi. U yoq, bu yoqqa qaradi, hech kimsa yo'q. O'g'rilardek engashib, u nariga chopib ketdi va jarlik soyasida g'oyib bo'ldi.

Oradan biroz o'tgandan so'ng, qiya tepalikda, traktorning yonida cho'ntak fonari bir-ikki yonib o'chdi va birdan tun tinchligini buzib, pulemyot² otilganday «ta-ta-ta-ta!» degan ovoz eshitildi. Bu traktorning ovozi edi. Oradan sal o'tmay, traktor bir me'yorda, so'niq ovozda tirillay boshladi. Birdan chiroq yonib, shu bilan bir vaqtda traktor ham o'midan qo'zg'aldi. Nurbek richagni bosganicha hayajonlanib, ilgari qo'zg'aldi. Nurbek richagni bosganicha hayajonlanib, ilgari qo'zg'aldi. Nurbek richagni bosganicha hayajonlanib, ilgari qo'zg'aldi. Nurbek richagni bosganicha hayajonlanib, ilgari qo'zg'aldi. Nurbek richagni bosganicha hayajonlanib, ilgari qo'zg'aldi.

«Ha, texnika inson qo'l ostida, faqat uni boshqara bilish

¹ **Brigada** (*fransuzcha*: brigade < *italyancha*: brigata – otryad, odamlar guruhi, qo'shin) – bir necha polk, batalon yoki diviziondan va maxsus qo'shinlar bo'linmalaridan, dengiz flotida esa bir necha turdagi harbiy kemalardan iborat harbiy-taktik qo'shilmalardan; 2) mehnatning muayyan bir turini birgalikda bajarish uchun tuzilgan va ish natijasi uchun umumiy javobgar bo'lgan jamoa, mehnatchilar guruhi (**bu yerda shu ma'noda**).

² **Pulemyot** (*ruscha*: пуля – o'q va металл – otmoq) – o'qni tez otadigan avtomatik qurol.



kerak, shunda u inson qo'li qayerni ko'rsatsa o'sha tomonga ketaveradi. Buning uchun esa botirlik, jasurlik va qat'iylik kerak! Mana buning yaqqol misoli – boshqalar jur'at qilolmagan yerdan traktorni Nurbek haydab bormoqda!», – yo'q, traktor qulab ketmaydi! Bu behuda gap. Sizlar uchun endi qizarishga to'g'ri keladi! – xitob qilardi Nurbek, hayajonidan titroq bosib.

Traktor haqiqatan hali tik tepalik sari yurib borayotgan edi. «Ular nimadan qo'rqishdi? – o'yladi Nurbek. – To'g'ri, hadeb bir tomonga engashib o'tiraverish u aytganday oson gap emas ekan, ammo bu sal narsa, chidasa bo'ladi!»

Oldinda yassi do'nglik ko'rindi. Traktor radiatori¹ bilan yuqoriga ko'tarildi, u hozir ag'darilib kyotayotganday, biroq Nurbek traktorning yurish tezligini oshirib, bir zarb bilan bu do'nglikni ham bosib o'tdi. Kartaning oxiriga yetib traktorni orqaga burdi. Endi Nurbek g'alabaga qat'iy ishonch hosil qilgan edi:

– Men sizlarga ko'rsatib qo'yaman, kim ekanligimni!– qichqirdi u chiranib, badxohlik bilan.– Ertalabgacha bu qiya tepalikning hammasini haydab qo'yaman, agar zarur bo'lsa, bu tog'larning hammasini cho'qqilari bilan birga qo'shib haydab tashlayman! Ertaga ko'rib ishonch hosil qilasan, Trofimov, qaysi birimiz haq ekanligimizga!

Nurbek ikkinchi aylanani ham bosib o'tdi. O'zida mislsiz kuch paydo bo'lganini his qildi, ko'z o'ngida go'yo traktor bilan birga qo'shilib qudratli po'lat gavda turganday tuyuldi.

Oldinda yana tepalik ko'zga tashlandi.

– Hechqisi yo'q! – O'zini tinchlantirardi Nurbek. Traktor zo'riqib-bo'kirib yurib borayotgan edi, birdan yonboshga qarab og'a boshladi.

– Hechqisi yo'q! – o'ziga dalda berardi Nurbek... Qo'li

¹ Radiator (*lotincha*: radiare - nur chiqarmoq, tarqatmoq) – ichki yonish dvigatelidagi sovituvchi suyuqlik yoki moy haroratini pasaytiruvchi asbob (**bu yerda shu ma'noda**); 2) binolarni isitish tizimida: ichida issiq suv yoki bug' aylanadigan, cho'yan, po'lat, keramik quvurlardan iborat isitish asbobi; 3) ish paytida qizib ketadigan radiotexnik elementlarni sovituvchi qurilma.



richagda¹, uchinchi tezlik... La'nati traktor bo'lsa, hamon ingrab-bo'kirganicha qiyshayib, og'ib borayotgan edi. Traktorni epchillik bilan birdan yuqoriga burib olish kerak edi, aks holda u ag'darilib ketardi! Nurbek oldinga tashlanib, o'ng tomondagi richagni kuch bilan o'ziga tortdi. Traktor zanjirli g'ildiraklari bilan tuproq ichida keskin burildi va bunday tepalikda yurishga qodir emasday tumshug'ini osmonga ko'targancha turib qoldi. Nurbekning boshiga gup etib qon urdi: «Nima qilish kerak? Tezroq motorni o'chir! Qani, tezroq! Motor jimib qoldi! Nima qilish kerak?»

Biroq endi kechikilgan edi. To'xtab qolgan traktor shu zahotiyoq g'ijirlab ovoz chiqarib, sekin-asta plugni ostiga olib ezib, orqa tomon tislamayotgan edi. U endi ag'darila boshlay degan edi, Nurbek kabinadan sakrab tushdi. Keyingi voqealar esa ana-mana deguncha bo'lib o'tdi. Traktor pastlikka tomon tezlashganidan tezlashib dumalab borayotgan edi. Tog' etagiga yetganda kuchli zarb bilan qoyaga borib urildi.

– A-a-a-a! – deb baqirib yubordi Nurbek, lekin u o'z ovozini eshitmasdi. Traktor katta toshga borib urilishi bilan lop etib olov chaqnadi, qoya va mashinadan otilib chiqqan parchalar hushtak chalib atrofga sochilib ketdi. Yer larzaga kelib shu zahotiyoq hamma yoqni birdan zulmat qoplab oldi.

Nurbek oyoq yalang, ko'ylakchang, qo'llariga fonar ko'tarib chopib kelayotgan odamlarni ko'rdi. U go'yo yer surilib cho'kib borayotganday bir depsinib oldi. Odamlar bo'lsa yaqin kelib qolishgan edi; qo'rqinchli baqiriq-chaqiriq ovozlari eshitilmoqda edi.

– Nega sakradim, men? – Dahshat ichida shivirladi Nurbek, – traktor bilan birga majaqlanib ketsam bo'lmasmidi?

U qochishga joy topolmay gangib turdi-da, so'ng hovliqib, o'qday yugurib ketdi.

Nurbek orqasiga qarashga botinolmasdi. U boshini yelkalar orasiga olib, qo'li bilan yashirar, qoqilib ketib, gursullab

¹ **Richag** (*ruscha*; to'qmoq, so'yil, gavron) – 1) biror tayanch nuqtasiga ega bo'lgan va oz kuch bilan katta kuchni muvozanatga keltiradigan oddiy qurilma; 2) biror ishni bajarish, boshqarish uchun xizmat qiladigan dastali pishang.



yiqilib tushar va shu zahotiy oq yana o'rmidan sakrab turib, quyon kabi g'izillab chopardi.

«Tezroq! Tezroq yugur! Yetib qolishdi. Eshityapsanmi» «Ushla, ushla!.. Xoinni tut, mahkamroq ushla!..» degan ovoz eshitildi.

Nurbek bor kuchi bilan qochardi. Uning ko'ziga hech narsa ko'rinmasdi, o'nqir-cho'nqir demay chopib borardi. Ammo oyoq, bu la'nati oyoq xuddi balchiqqa botib qolgandek yerdan ajralmasdan bir-biriga o'ralashib, nafas olish ham og'irlashib, a'zoyi badani yonib achishardi. Nurbek toqat qilolmasdan ko'ylak yoqalarini yirtib yubordi.

* * *

Ertalabdan ikki burgut ko'kda parvoz qilardi. Ahyon-ahyonda erinchoqlik bilan qanot qoqib qo'yar va yana yuk-saklikda aylanib yurardi. Ular chamasi tarang va egilmas qanotlarini sal-sal tebratib, havoda yengil va erkin parvoz qilib yurishgan edi.

Bu cheksiz bo'shliqqa faqat burgutlargina hukmron edi. Ular bu hokimlikka monand harakat qilganday vazmin va osoyishta uchishardi. Tog'i toshlar ham, qorlar ham, daryolar ham uning keng qanoti ostiga jo bo'lgan. Ular yer yuzida bo'layotgan jamiki narsalarni, hatto mayda zarrachalarga qadar ravshan ko'rib turadilar.

Mana, tog' oralig'ida allaqanday qo'g'irchoq kattaligidagi maxluq paydo bo'ldi.

«...Odam! Qara, odam-ku!» – qag'illab tovush berdi burgutlardan biri. «Ko'ryapman, bu odam!» – qisqagina javob qildi ikkinchisi.

Soylikda odam paydo bo'ldi, ammo burgutlar hamon vazmin va osoyishta parvoz qilishardi. Odamning paydo bo'lishi ularni hech ham bezovtalantirmadi. Axir, u qushlarning uyasini buza olarmidi? Yo'q, bu odam o'z soyasidan o'zi qo'rqadi. U qochoq yoki bo'lmasa qandaydir yo'ldan adash-



gan baxtsiz bir kishi. Bu uning ishonchsizlik bilan omonat qadam tashlashidan, daydib yurish-u, qo'rquv aralash ko'z qarashlaridan aniq sezilib turardi. U tez-tez seskanib tushar, atrofga alanglab qarab, yana jim qolar edi. Bunday kishi chiqib bo'lmaydigan qoyalardagi burgut inlariga yetib borib, ular bilan yakkama-yakka kurasha olarmidi? Bu kishida maqsadga erishish uchun kuch va iroda bormikin, dadil kurashishga qodir ekanmikin! Yo'q, burgut uyasiga qo'l solmoq uchun u kishining o'zi ham dovyurak burgut bo'lmo-g'i kerak! Ha, g'alaba ochiq kurashda hal bo'ladi. Burgutlar yuzma-yuz olishishni yoqtirishadi. Dushman ularning uyasiga qo'l solmoqchi bo'lib intilganda, ular dushmanga qarshi: «To'xta! Orqangga qayt!» – deb qichqirishadi, so'ng darg'azab bo'lib qur-qurlashib «Tayyor bo'!» – deganday bir-birlariga xabar qilishadi-da, cheksiz balandlikdan tosh kabi quyiga otiladi. Ular shuvullagancha havo bo'shlig'ini yorib o'tib, dushman ko'kragiga changal uradi-da, uni o'lim holatiga keltiradi. So'ng burgutlar o'z inlari tepasida uzoq aylanishib, goh quvonch bilan, goh g'azab bilan, gohida esa achinish bilan ancha vaqtgacha qur-qurlashib aylanib uchib yurishadi...

Bu odam bo'lsa bunday jangni xayoliga ham keltirmasdi, u o'z yo'lida davom etayotgan edi.

Kun yarim bo'lganda u kishi katta dovonga yetib oldi. Uning uzoqlashib, tezda ko'zdan g'oyib bo'lib borayotganini ko'rgan burgutlardan biri: «Odam ketdi!..» deb qur-qurlaganida, ikkinchisi ham unga «Ketdi», deb qisqagina javob qildi.

VI

Nurbek dovon tepasiga chiqib olguncha charchab holdan ketgan edi. U qalin qor kechib, balki hali hech qachon inson oyog'i yetmagan yerlarda yurib bormoqda edi. Dovondan kuchli va muzdek shamol esardi. Mana uning tuz totmaganiga bir sutka bo'lay deb qoldi. Iloji boricha? tezroq tushish kerak,





balki, vodiya chorvadorlarning o'toviga duch kelib qolar. Dovondan butun tog' manzarasi ko'zga yaqqol tashlanib turardi. Pastda, katta daryo oqmoqda. Biroq Nurbek u yerda inson yashaganligini ko'rsatuvchi biror belgini uchratmadi. U madorsizlanib, sekin toshga o'tirdi-da, qo'li bilan yuzlarini berkitdi. «Bu huvullab yotgan notanish tog'larda odam qayerdan bo'lsin!—o'ylardi Nurbek.— Nahotki, faqat men kabi ahmoqlar yashasa!» — u boshini yana ham quyi solib ko'zlarini berkitib oldi...

Kuchli esayotgan shamoldan olov yo o'chib qolishi, yoki yana ham alanganib yonishi mumkin. Avvalgi qizishib yongan Nurbek hozir moyi tamom bo'lib qolgan chiroq kabi so'nib qolgan edi. Endi u — qochoq, bir burda non haqida, o'zini himoya qilish haqida xayol suruvchi, xilvat joy topib, o't yoqib jon saqlashni o'ylovchi kishi.

«...Oynagulimning tog'asi qayerda yasharkin?» «...Tumanga qachon yetib olaman? — o'ylardi Nurbek. — Aytishlariga qaraganda mana shu dovondan keyin yana ikki kunlik yo'l. U yerga yetib borsam, ozroq bo'lsa ham, undan pul qarz olaman-da, shaharga qaytaman va Oynagul oldida, endi qo'riq yer haqida, hatto og'iz ham ochmayman!» deb qasam ichaman.

Nurbek o'midan turdi va pastga, daryo tomonga qarab sekin yura boshladi. Dovon tepasidan pastga tushish unchalik qiyin emasday, hammasi ko'zga tashlanib turardi. Lekin u birmuncha vaqt o'tgandan keyin, o'zini ustma-ust qalashib yotgan qoyalar orasida ko'rdi va ko'ziga shu ulkan toshlardan bo'lak atrofda hech narsa ko'rinmasdi. Nurbekni vahima bosdi. U bu toshli qoyalardan tezroq chiqib olishga intilib, deyarli yugurib borardi. Ana-mana deguncha qorong'ilik tushib, kech kirib qolgan edi. Nurbek boshini ko'tarib qaradi, tepasida qovoq osib turgan past bulutlarni ko'rdi. U yurishini yana tezlatdi. Momaqaldiroq gulduradi, toshlarning ustiga yirik-yirik yomg'ir tomchilari shitirlab tusha boshladi. Keyin izg'irin shamol esib, uning orqasidan kuchli do'l yog'ib selga



aylandi. Osmonni qalin bulut qoplab olib, u namlikni so'rib olayotganday og'irlashib, pastga tomon yaqinlab kelgandi. Hamma yoqni zulmat qoplab olgan. Nurbek o'zini qayerga olib qochishni bilmasdi. Qulayroq joy topib olish uchun olazarak bo'lib bezovtalanardi. Yashin esa u qayerda, qay ahvolda deganday qiziqib, yonginasidagi qoyalar ichiga yorib kirib, yer-u ko'kni bir daqiqa yoritardi. Go'yo dev qahqaha urib kulganday momaqaldiroq gumburlardi.

Nurbek butunlay o'zini yo'qotib qo'ydi. U qayerga borishini, nima qilishini bilmasdi. Cho'qqidan ko'chib ketgan ulkan tosh guldurab shovqin solib Nurbekning boshi uzra yumalab kelayotgan edi. Uning izidan esa yana bir qancha toshlar qo'shilib, yo'lda uchragan narsalarni ezib-yanchib borardi. Nurbek orqasiga tisarildi-da, pastga tomon uchib ketdi...

VII

Oradan bir necha kun o'tgandan so'ng Nurbekning birinchi marta hovliga chiqishi edi. Biroq uning shikastlangan oyog'i hali ham og'rib turardi. Nurbek oqsoqlanib yurar, yo'tali ham hali qolganicha yo'q.

To'planishgan va kirib-chiqib yurgan kishilar Nurbekka o'sha mash'um voqeani hech qachon eslatmaslikka ahdlashib olgandek edilar. So'z ochish payti kelib qolganda ham, uning oldida shu vaqtga qadar bu xususda gapirishganlarini eshitmadi. To'g'ri, Asya o'z fikrini to'g'ridan to'g'ri uning yuziga ayta qoldi:

– Sizning o'rningizda men bo'lganimda, bunday qilma-gan bo'lardim! Kimki mas'uliyatdan qo'rqar ekan...– Asya aytmoqchi bo'lgan fikrini oxirigacha gapirolmadi va Nurbekka ayanchli holatda qaradi-da, chuqur nafas oldi,– Siz hamma-sini ochiq gapirib berdingiz, men sizning shunday qila olganingizga sira ishonmayman!..

Nurbek o'zini biroz tetikroq his qildi. «Asya meni to'g'ri tushundi, – deb o'yladi u. – Demak, men u aytganday yomon





odam emas ekanman-da. U menga ishonadi. Boshqalarga ham ishonarmikan?»

Lekin bir zumdan keyin unda yana boshqacha fikr tug'ildi: «Nega ular xabar qilishib, meni tutib berishmadi? Yoki ular mening sog'ayishimni kutishayotganmikin? Mening jinoyatchi ekanligim noto'g'rimi, axir? Ha, men tamom bo'lgan odamman! Menga rahm-shafqat qilib turishga o'rin yo'q, men jazoga tortilishim kerak!..»

Oynagul haqida o'ylaganida miyasiga yana boshqa fikr keldi: «Yo'q, men bu yerdan tezroq ketishim kerak. Bunday hayot jonimga tegdi. Oynagulning oldiga qaytib boraman, u bilan tinch va baxtli hayot kechiramiz».

Nurbek kechalari ko'z yummay, ro'y bergan voqeani kishilarga qanday tushuntirishni, o'sha paytda motoring nega o'chib qolganini o'ylab yotardi. Oddiy traktorlar baland tog'li yerlarda ishlay olmasligi aniq. Unda tog'li tumanlarda ishlovchi traktorlarni takomillashtirish borasida qandaydir fikrlar mavjud... Ha, endi buning nima keragi bor... U endi ishga yana qayta oladimi, kishilarning yuziga qanday qaraydi?

Har kuni ertalab Asya bilan gidrotexnik Bektemir yo'g'on sim arqonga o'rnatilgan lyulkaga o'tirib chig'irning ikkala tomonidagi chig'irini aylantirib, tros¹ bo'ylab bir zumda daryoning narigi tomoniga o'tib olishardi. Keyin ular daryo sohili bo'ylab, yuqoriga, Baydamtolning qorli havzalari tomon ketishardi. Asya u yerda o'zining kuzatish ishlarini olib borardi. Nurbek ularni, to daryodan o'tadigan yergacha kuza-tib qo'yib, so'ng o'zi orqaga qaytardi. U qariyb butun kunni Asilboy bilan birga o'tkazardi. Chol, o'g'li Bektemirga sira ham o'xshamasdi. U juda ulfat, gurung qilishni yaxshi ko'radigan odam edi. Uning yoshi yetmishlarga borib qolgan bo'lsa ham, ertadan kechgacha tinim bilmasdi, qachon qaramang g'ivirlab, xo'jalik ishlari bilan band bo'lardi. Bu novcha, qotma va biroz bukchaygan cholning ko'zlari xuddi yosh

¹ **Tros** (lotincha: tros) – tolali materiallar. po'lat simlar, sun'iy tolalardan eshilgan, pishiq yo'g'on arqon, kanat.



bolalarning ko'zlarini eslatardi. Aftidan, ular qandaydir yangi, ajoyib narsalar izlayotganday olamga zavq bilan boqardi.

Bugun Asilboy uning qo'lidan ushlab oldi-da, sirli qiyofada: «Yur-chi bu yoqqa, senga bir narsani ko'rsataman», – dedi. U Nurbekni uncha katta bo'lmagan tepalikka olib chiqdi. Tepalikning quyosh tushib turadigan tomoniga bir qancha yosh olma daraxtlari ekilgan. Nihollarning birida pushti gul ochilgan edi.

– Bu birinchi ochilishi! – dedi shivirlab Asilboy. – Nihollarni shahardan Asyaning o'zi olib kelgan. O'shanda men hayron bo'lib, qizim, bularni nega olib kelding? Ular bu yerning sovug'iga bardosh bera olarmidi? Bekor ovora bo'libsan, qizim, ular bu yerda yashay olmaydi! – desam, u – siz qayerdan bilasiz, nega unday deyapsiz? Sinab ko'rish kerak, o'rganish kerak... – dedi. O'shanda men rosa uyalib qolgan edim... Mana, endi ko'ryapsanmi, oradan ikki yil o'tdi... Birinchi nishona ko'rsatdi... Asya, hali buni bilmaydi. Ko'rsa bormi, quvonchdan boshi osmonga yetadi... Bo'lmasamchi, bu chakana ish emas-ku... Baydamtolga kishilar ko'chib kulganda, ularning bog'-rog'lari bo'ladi!..

Ertalab, quyosh tog' tizmalaridan endigina mo'ralab, uning nurlari daryo yuzidagi yengil tumanga qadalganda, Nurbek, har galgidek, Asyani daryo yoqasiga kuzatib qo'yishga chiqdi. U Asyaning Baydamtolga yaqinlashganda har gal ham nimadandir hayajonlanishini endi aniq sezib oldi. U birdan hushyor tortib, boshini sekingina yuqori ko'tarib olib, Nurbekni ortda qoldirganicha sohil sari chopib ketardi. U daryoning qirg'og'ida yarmi suvga botib turgan xarsang toshni yaxshi ko'rardi. U tosh oldiga g'izillab chopib borardi-da, uning bir chekkasida turib, quyoshning dastlabki nurlarini qarshilaganicha, daryo suvining oqishini havas bilan tinglardi. U odatdagidek Baydamtolning to'lqin otib, yelib-yugurib oqishini ko'rsatib, nimanidir aytib qichqirardi. Lekin uning so'zlari eshitilmas, tovushini daryoning shag'illagan ovozi bosib ketardi. Ba'zan uning so'zlari uzuq-yuluq quloqqa chalinib





qolardi: «Ey-y-y! Nurbek!.. Qara... Baydamtol...»

– Nima deyapsan? Eshitilmayapti, Asya!

Qiz kaftlarini bir-biriga urib, chapak chalib kulardi.

Lekin Asya bugun o'sha tosh tomon yugurmadi.

– Balki, sen zerikayotgandirsan, Nurbek? – dedi va to'xtab Nurbekning ko'zlariga diqqat bilan boqdi. – Sen u kitobni o'qib bo'lgandirsan? Butunlay sog'ayib ketganingdan keyin, biz bilan qoyaga chiqasan. Men olib borayotgan tajribalarimni senga ko'rsataman. U yerda ko'p ajoyib narsalarni ko'rish mumkin. – Asya o'ylanib turdi-da, keyin qo'shib qo'ydi: – Bugun esa sen Gersening¹ «Вылое i dumь» («O'tmish va o'ylar») degan kitobini topib o'qi, u mening sevimli kitobim. Men kurashchilarni, yuksak maqsad sari intiluvchi, kuchli kishilarni sevaman!

– Ma'qul, Asya.

Asya yana bir nimalar demoqchi edi-yu, lekin ular daryo yoqasiga yetib qolishgandi. Nurbek uning lyulkaga chiqib olishiga yordam berdi.

– Biz tezda qaytamiz! – qichqirdi qiz. Ular daryoning narigi sohiliga o'tib olgach, Asya Nurbekka qarab: «Uyga bor! Bu yerda turma! Shamollab qolasan!» – degandek qo'l siltadi. U uzoqlashar ekan, yo'l-yo'lakay yana bir necha bor to'xtab, unga qo'l silkiib qo'ydi.

Nurbek ularning muyulishdan o'tib, ko'zdan g'oyib bo'lib ketgunga qadar daryo bo'yida kutib turdi. Keyin u orqasiga qaytish o'rmiga, tosh qiya bo'ylab, daryo yoqasiga tushdi va suv bo'yidagi toshga borib o'tirdi.

Baydamtol odatdagidek shovqin solib, hayqirib oqardi.

Daryoning qirg'oq bilan tutashgan sayoz yeridagi kichik-kichik to'lqinlar Nurbekning oyog'iga qadar o'rimalab kelardi. Go'yo ular Nurbekka: «Ket, yaqinlashma!» – deb aytayotgandek tuyulardi. Nurbek qo'zg'almay o'tiraverdi. G'azablangan to'lqinlar uning etigiga loyqa ko'pik qoldirib borib

¹ Aleksandr Ivanovich Gersen (1812-1870) rus adibi, publitsist, faylasuf. «Fanda yuzakilik», «Tabiatni o'rganish haqida maktublar», «Kim aybdor», «Doktor Krupov», «O'g'ri zag'izg'on», «Kechmish va o'ylar».



kelardi. Nurbek kulimsirab qo'ydi.

Baydamtol daryosi tizma tog'lardan boshlanadi. U yerlar mangu qor va muzliklar bilan qoplangan. Agar inson mangu muzliklarni eritishni eplay olganda edi, Baydamtolni ham boshqara olardi. Bu hali muammoligicha qolib kelmoqda, ammo kimki bu masalani hal qilishga bel bog'lagan ekan, u haqiqiy jasur va botir inson sanaladi.

Nurbek o'ridan turib, hayajonlangan bo'yicha daryoning suv yalab ketgan sayoz yeridan yurib, Baydamtolning shiddatli oqishiga nazar tashlab borardi.

Asya bu to'g'rida hikoya qilganda butunlay o'zgarib ketardi. Uning osoyishta, o'ychan ko'zlari chaqnab, g'ayratga to'lib allanimalar yorqin ko'rinayotganday tuyulardi. «Sen bir ko'z oldingga keltirib ko'r-a, Nurbek! Shunday bir vaqt keladiki, dehqonlarimiz qizib-yonib yotgan havodan rahm-shafqat so'rab, iltijo qilib yomg'ir kutmaydilar. Daryo oqimini o'z izmiga bo'ysundirgan inson dalalarga qancha suv kerak bo'lsa, shuncha suvni yetkazib beradi».

Keksa Asilboy esa Baydamtolning kelajagi haqida gap ketganda, yoqasini ushlab hayratlanardi.

– Voy, tavba! – deya boshini chayqardi, – hozirgi yoshlarning qilayotgan ishining chegarasi yo'q! Sen bir o'ylab ko'r, ular shunday katta ishlarga qo'l urishyaptiki! Xudo nasib qilsa, Asyamiz aytganini qiladi. Muqaddas kishilar yo'q deyshadi, ammo u, mening nazarimda, kishilar uchun muqaddas bo'lib qoladiganga o'xshaydi... Qor va suvlarni o'z hukmiga bo'ysundirmoq hazilakam ishmi! Kulganlar kulaversin, lekin men Asyaga o'xshagan yoshlarimizning har qanday ishlarni amalga oshira olishiga ishonchim komil. Kimki xalq uchun, xalq yo'lida xizmat qilari ekan, u har doim o'z muddaosiga erishadi... Unga xalq ko'makdosh bo'ladi...

Nurbek osma ko'prik oldiga kelganda to'xtab qoldi va: «Asya tezroq qaytsa edi! Vaqt muncha sekin o'tyapti-a», – deb xayol surib qoldi. Lekin o'z fikridan o'zi cho'chib ketdi. U Asya haqida ko'pdan beri o'ylayotganini eslab qoldi. «Nega?–





o'zidan o'zi so'radi Nurbek. – Nahotki Asyani sevib qolgan bo'lsam? Nima, sen aqldan ozib qoldingmi, bunday bo'lishi mumkin emas! Men uning to'g'risida shunchaki o'ylayapman, bu menga shunday tuyulyapti! Muhabbat bunday kelmasa kerak. Men uni juda hurmat qilaman, o'z tug'ishgan singlim, o'rtoq'imdek hurmat qilaman, lekin bizning o'rtamizda sevgining bo'lishi mumkin emas... Ha, shunday! Jim bo'l, esingdan chiqar, xayolingga ham keltirma buni!»

Ammo ulkan toshning ko'chmog'i uchun birgina kichik tosh ham sabab bo'laveradi. Nurbek necha bor Asya to'g'risida o'ylamaslikka harakat qilib ko'rdi. Lekin bundan hech narsa chiqmadi. Aksincha, qiz haqidagi xayollari qayta-qayta takrorlanaverdi. U nima qilishini bilmasdi. Nurbek behuda cho'chib tushmagan edi. «Asilboyning yoniga borib, u yoq-bu yoqdan gaplashsam, balki, o'tib ketar», – degan qarorga keldi. Lekin chol bilan uning bugungi suhbatini sira yopishmadi.

– Nima bo'ldi bugun senga yoki biror narsangni yo'qotdingmi? – deb so'radi hayron bo'lib, Asilboy yo'nalgan g'o'lachalarni bir tomonga olib qo'yarkan, hayajonlangan Nurbekka diqqat bilan ko'z tikib.

– Yo'q! – Nurbek po'ng'illagan xonaga kirib ketdi. U Gersening kitobini olib ikki sahifa o'qidi, keyin uni yopib qo'yib, derazadan tog'ga tomon tikilib qoldi. «Shu topda nimanidir yo'qotgandayman! – dedi ovoz chiqarib Nurbek. – Nima edi bu, qiziq, eslash kerak!» Shu payt:

– Asya qachon qaytarkin-a? – degan savol uning og'zidan beixtiyor chiqib ketdi – Bas! – Nurbek stolni mushti bilan urdi. – Uning hayoti va ishiga xalaqit berishga sening haqing yo'q! Bunday qila ko'rma, uning tinchligini buzma.

Nurbek uydan otilib chiqib, yana daryo tomon yo'l oldi. U suv yalab turgan o'sha sayoz yerdagi toshga o'tirdi va qo'llari bilan boshini qisdi.

«Sevaman deb aytishga qanday tiling bordi! – o'yladi Nurbek. – Asya bu kimsasiz tog'larda xalq uchun bebaho ish qilish istagi bilan yashamoqda... Sen-chi, sen kimsan? Asya



meni hech qachon sevmaydi, albatta! Uning uchun boshqa, o'ziga munosib kishilar bor!..»

To'liqlar, Nurbekning oyog'iga kelib urilgan to'liqlar yana «Ket, yo'qol bu yerdan!» – deyayotganday tuyuldi.

VIII

Tun. Dara zulmatday qop-qorong'i. Tog'larning tepasida g'uj-g'uj yulduzlar chaqnamoqda, ular go'yo atrofini kul bosgan laxcha cho'g' singari edi. Pastda esa tinim bilmay Baydamtol hayqirardi.

Nurbek eshikdan chiqqanda, dara bo'ylab esayotgan shamol uning qalpog'ini uchirib ketdi. U qalpog'ini yerdan olib bosibroq kiyib oldi-da, osma ko'prik tomon shoshilib yurib ketdi. U ko'prik oldiga kelib, jimgina turib qoldi va o'girilib qaradi-da:

– Xayr, Asya! Indamasdan ketib qolganim uchun jahling chiqmasin. Shunday bo'lgani ma'qul.

Nurbek lyulkaga chiqdi.

Asilboyning aytishiga qaraganda, daryoning narigi sohili-ga o'tib olib, oqim bo'ylab pastga tomon yurilsa, keyin daraga burilib dovondan oshib o'tgach, tosh yo'lga ikki sutkadan keyin chiqib olish mumkin bo'larkan. U yerdan esa katta yo'l orqali to'g'ri shaharga borish mumkin.

Nurbek lyulkaga joylashibroq o'tirdi va chig'irni aylantira boshladi. Roliklar g'ijirlab lyulka o'rmidan qo'zg'ala boshladi. Lyulkani siljitish uncha oson emas ekan: chig'ir ikki kishiga moslashtirilgan edi. Nurbek o'zini tezda tolib qolgan-day his qildi. U nafasini rostlab olib, lyulka bortidan pastga qaradi, qo'rqqanidan ko'zlarini yumib, chig'irning tutqichiga yana-da mahkamroq yopishib oldi. Pastda qandaydir aql bovar qilmaydigan allanarsalar ko'zga tashlanardi. Jarlik qorong'i, past-baland qirg'oqlarga urilib, ko'pirib, dahshat bilan guvullardi suv. Go'yo dara tun zulmati bilan kurashayotgandek.





Ular bir-birini shapir-shupur suvga bosishar, lekin ikkalasi ham bir-biriga bas kelolmayotganday tuyulardi. Nurbek pastga boshqa qaramaslikka qaror qildi va chig'imi iloji boricha tezroq aylantirdi. Mana, u yarim yo'lni bosib o'tdi. Daryoning narigi sohili ravshanroq ko'rina boshladi. Nurbek juda charchab qolgan bo'lsa ham o'ziga sira dam bermasdi. Yana bir zo'r berdi va... nimadir qarsillab ketdi. Chig'iriq sekinlab, lyulka shu joyidayoq to'xtab qoldi. Nurbek o'rnidan turib, trosdan chiqib ketmadimikin degan xayol bilan roliklarni paypaslab ko'rdi, ammo hammasi joyida edi. Nurbek qo'l fonarni yoqib chig'imi ko'zdan kechirdi va holsizlanib o'tirg'ichga o'tirib qoldi.

– Nima qilish kerak? – g'o'ldiradi u.

Keyin bilsa, tros o'raladigan barabanning¹ o'qi sinib ketgan ekan. Bu chig'irni bir tomonlama aylantirish tufayli yuz bergan ekan. Agar asbob bo'lganda edi, uni tuzatish uncha qiyin emasdi. Lekin uni qayerdan olish kerak? Lyulka quturgan daryoning qariyb qoq o'rtasida to'xtab qolgan. Nima qilmoq kerak? Bu turishda erta tongacha havoda laqillab o'tirish mumkin, ammo ertalab... ertalab bu yerga Asya bilan Bektemir keladi. Bu esa uyat, sharmandalik-ku! Ularga shu ahvolda ko'ringuncha o'lgan yaxshiroq. Nima bo'lsa ham daryoning narigi qirg'og'iga o'tib olish va tezroq bu yerdan yo'qolish kerak.

Nurbek lyulkani qoldirib, yuqorigi osig'liq trosni ushlab qirg'oqqa o'tishga jazm qildi. Ha, ha, xuddi shunday qilish kerak, faqat yuqori tros bilan quyi tros orasi uning bo'yidan baland bo'lmasa bo'lgani, aks holda yuqorigi trosga osilib, oyoq osti tayanchsiz qolishi mumkin.

Biroq uyat o'limdan qattiq!

Nurbek o'rnidan turib, trosni ikki qo'llab ushladi va lyulka bortidan chiqdi.

Uning qulog'iga daryoning shag'illagan ovozi eshitilar, ayniqsa, yuragining gupullab urishi aniq sezilib turardi. Baxti-

¹ Baraban – nurli mashina va apparatlarning silindr shaklidagi ichi kovak qismi.



ga troslar orasi ayni maqsadga mos ekan. Faqat qo'li tolib chiqib ketmasa bo'lgani, juda oz – to'rt metrcha qoldi! Sim tilib ketgan kaftlari qonab, lovullab achishayotgan bo'lsa ham shoshma, sekin harakat qil!

Mana, qirg'oq. Nurbek sakrab yerga tushdi.

– O'tdim! O'tib oldim! – xursand bo'lganidan qichqirib yubordi va yerni hidlab mehr bilan shivirladi: – Yer, yer! Endi istagan joyga bora olaman.

Nurbek bir sakrab oyoqqa turdi va katta-katta qadam tashladi. U osma ko'prikka qarab olish uchun bir zum to'xtab, joyida dong qotib qoldi, dahshatli xayoldan nafasi ichiga tushib ketdi. Koshki hech narsa yuz bermagan bo'lsa, faqat lyulka o'z o'midan siljib, yolg'iz cho'qqayib daryo ustida tebranib qolgan bo'lsa.

– Bu qanday bo'ldi? – bo'g'iq ovoz bilan shivirladi Nurbek va hayajon bilan qorong'ilikka tikilganicha olg'a tashlandi. – Bu nimasi, chig'irni sindirib ketyapmanmi? Ular meni o'limdan saqlab qoldi, davolashdi, men bo'lsam minnatdor-chilik bildirish o'rni zarur keltirib qochyapman!

Nurbek yerga o'tirdi, qo'llari bilan boshini ushlab ko'zini yumdi. U ertaga nima bo'lishini tasavvur qilardi.

...Ertalab gidrologlar osma ko'prikka kelishadi va lyulkaning daryo o'rtasiga borib qolganligini ko'rishadi. Demak, kechasi kimdir undan foydalangan-u, so'ng shu bo'yicha tashlab ketib qolgan. Biroq bu kim bo'lishi mumkin? O'zimiz-nikilarning hammasi shu yerda. Eh-ha, Nurbek qayerda?.. Tushunarli!.. Bo'lmasa-chi, uning yo'li ham shu yoqdan... Lekin har qanday sharoitda ham ishni bir daqiqa kechiktirish mumkin emas!! Ular qirg'oq chig'iri yordami bilan lyulkani tortib olishga harakat qilib ko'radilar. Lekin u o'midan qimir-lamaydi, chunki siljitivchi tros sinib qolgan barabanga mahkam o'ralgan. Ular arqon ko'prikning ishdan chiqqanini ko'rib qattiq xafa bo'lishadi. Buni kim qildi? Ablah, Nurbek!

– Men undan hech qachon buni kutmagan edim! – past ovoz bilan deydi Asya labini tishlab.





– Ha, uying kuygur, zoti past! Nima qilib qo‘yding-a?–
og‘ir xo‘rsinib oladi Asilboy.

– Men o‘ldiraman bu daydi itni! – otiladi Bektemir yer-
dagi toshni olib.

Xo‘p, keyin-chi, keyin nima bo‘ladi? Asya hech qachon
o‘z ishini to‘xtatmaydi. Biroq u nima ham qila olardi?

Faqat birgina yo‘l bor. Asbob topish kerak-da, trosdan
yana lyulkaga qaytib borish kerak. Lekin bu aytishga oson,
shuncha masofani tros bo‘ylab bosib o‘tib bo‘larmidi, axir u
qirg‘oqdan to lyulkaga qadar o‘ttiz metrda kam emas, agar
qo‘ling bo‘shab ketsa bormi, o‘lish hech gapmas. Baydamtol
shu zahotiy oqizib toshlarga olib borib uradi, ha, ularning
qaysi biri bunday xavfli ishga borishi mumkin? Asya! U hech
narsa oldida to‘xtamaydi, u ishning bir daqiqaga ham to‘xtab
qolishiga yo‘l qo‘ymaydi!..

– Yo‘q, men uni halokatga itarmayman! – Nurbek o‘rni-
dan irg‘ib turib, osma ko‘prik tomon zing‘illab chopib ketdi.
U hali chig‘irni sozlash uchun qanday tadbir ko‘rib, qanday
tuzatish kerakligi haqida aniq bir tasavvurga kelolmagan
bo‘lsa-da, biroq bu yerdan ketib qolish mumkin emasligini
sezib turardi.

Nurbek ko‘prik oldiga yugurib bordi, og‘ir nafas oldi-da,
peshonasini metall ustunga bosdi. Uning miyasida faqat bir
fikir hukmron edi: «Nima qilmoq kerak? Chig‘irni qanday
tuzatish mumkin? Qanday? Biror kimsa na javob beradi va na
aks-sado! Baydamtol, bag‘ri tosh daryo, hech bo‘lmasa, bir
og‘iz so‘z aytasang-chi? Yo‘q, sen eshitmaysan, yovvoyi hay-
qirig‘ing bilan quloqlaring bitib qolgan!.. Nima qilay... Axir
men insonman-ku, mening ismim – Inson!.. Men buni
tuzatishim, yo‘l topmog‘im kerak!»

– Topdim! – xitob qildi Nurbek. – Topdim!..

Ha, Nurbek tadbir topgan edi! U hozir tros orqali daryo-
ning narigi tomoniga o‘tadi. U daryoning narigi tomonida
yashikda asboblarga turganligini ko‘rgan edi. Undan kerakli
asboblarni olib, beliga bog‘lashi va yana shu tros bo‘ylab,





lyulkaga qaytib kelishi, lyulkani ta'mirlab bo'lgach, bu qirg'oqqa qaytib kelishi kerak edi. U ko'priknig yoniga boshqa yaqinlashmaydi, yaxshisi, boshi oqqan tomonga ketadi, balki, daryoning quyirog'idan biror sayoz joy topilar... Ey, bu uncha o'ylaydigan narsa ham emas, hozir asosiy masala u emas, muhimi hozir – o'ylangan fikrni amalga oshirmoq, bosh masala – Asyaning ulkan ishiga xalal bermaslik!

– O'z fikrimdan qaytmayman! – dedi Nurbek qat'iy qilib va ishonchsizlik bilan qo'shib qo'ydi: – Biroq bilolmadim uddasidan chiqa olarmikinman, bunday og'ir ishni bajarish uchun kuch-quvvatim yetarmikin?.. Bu yerdan lyulkagacha olti-yetti metr, bu yo'lni bosib o'tganman, hozir yana u yerdan o'taman, biroq lyulkadan u qirg'oqqacha tros bo'ylab o'ttiz metr yurishim kerak! Bu juda uzoq yo'l! Juda uzoq! Xo'sh, nima bo'пти, hammasiga tayyorman, Asya!

Nurbek ustunga chiqib yuqorigi trosni ushladi. Pastki trosni esa oyog'i bilan paypaslab topdi. O'ng oyog'i bilan birinchi qadamni tashladi, kurash boshlandi.

U birinchi qadamni tashlaganda pastdagi quturib oqayotgan daryoning dahshatli shovqin-suroni unga bozor joyida dorbozlarning o'yinida chalinadigan nog'ora va karnay-sumaylarning aralash-quralash ovozidek bo'lib tuyuldi.

Nurbek sayoq dorbozlarni yoshlik kezlaridayoq ko'rgan edi. Ular qariyb terak bo'yi balandlikda arqon ustida yurishadi. Ularga har bir daqiqada o'lim tahdid solayotganday bo'lardi, ammo u dovyurak kishi esa ko'kka sig'inib: «Yo pirim, yo ollo!..» deb iltijo qilardi.

«Opa! – qo'rqib ketgan Nurbek o'shanda onasining ko'y-lagi bariga yashirinish. – Ketamiz, opa, bu yerdan ketamiz!» – deyardi va u hatto yuragi dov bermay tomosha ham qilolmagan edi.

Endi bo'lsa, Nurbekning o'zi dorboz. Nurbek ham dorbozchilar singari havoda o'sha dor arqonidan yo'g'on bo'lmagan tros bo'ylab bormoqda.

Lyulkaga yetib borganda Nurbek majolsizlanib o'zini





bortga otdi. Bir qism yo'l bosib o'tildi. Lekin shu kichkina g'alaba ham qanchalik qimmatga tushdi! Trosning simidan tilinib, yulqilangan kaftlaridan qon oqar, o'pkasi ko'kragiga sig'mas, xuddi poygada chopaverib hansirab, kishnab ketgan otlar singari qovurg'alari bo'rtib chiqqan edi. Oldinda esa hali uzoq, bundan ko'ra yuz barobar og'ir va uqubatli yo'lni bosib o'tish kerak.

«Orqangga qayt, baxti qora, hali ham kech emas, halok bo'lasan!» – dedi ichki bir ovoz unga.

– Yo'q, men oxirigacha ahdimda turaman! – javob qaytardi ovoz chiqarib Nurbek.

U o'midan turdi, kamzulinging astarini yirtib qo'lini o'radi. Yana kurash boshlandi.

U birinchi qadamni bosishi bilanoq childirmaning baka-bangi, karnayning uvvos tortib jar solishi eshitildi.

Biroq bu gal Nurbek avvalgiga nisbatan tezroq holdan toya boshladi. U qo'rqqanidan pastga qaray olmasa ham, tasodifan oyog'ining ostiga ko'z qirini tashladi. Daryoning kuchli oqimi to'xtagandek tuyuldi, uning boshi aylanib, ko'zi tinib ketdi. Go'yo hamma narsa – tog'lar ham, tun ham, daryo ham, hammasi ulkan suv girdobida gir aylanib, undan uzoqlashar va doira hosil qilib yana unga yaqinlashardi. Har qancha bo'lsa-da, Nurbek o'zini tutib oldi. U boshini yuqori ko'tardi, lekin shamol uni yulib ketayotgandek bo'ldi. Shamol to'satdan uning ko'krigidan olib, chalqancha ag'darib tashladi. Oyog'i trosdan sirg'alib chiqib ketdi. Lekin u yuz mashaqqatlar bilan oyog'ini yana trosga qo'yib oldi. Yelkasidan issiq ter oqib tusha boshladi. Nurbek bosh aylanishi qolar degan umidda ko'zlarini chirt yumib oldi, ammo, u yana ko'zini ochganda hech narsa ko'rmagandek, yana avvalgicha hamma narsa gir aylanib, ko'ngli aynay boshladi, o'zini yo'qotayozdi. U o'zini ajoyibotlar dunyosiga kelib qolganday his qildi. Bu yangi dunyoda u o'z hayotini qaytadan boshlagandek edi.

Hammasi, o'tgan va yangi yuzaga kelgan narsalarning barchasi uning ko'z oldida suzib yurar va turnaqator bo'lib





tizilishib o'tar edi. Ammo uning o'zi to'xtashi mumkin emas, olg'a, faqat olg'a intilishi kerak, aks holda halokat yuz berishi mumkin, degan yagona fikr hukmronlik qilardi. Shuning uchun u odimlay boshladi, sekin, imillab bo'lsa ham olg'a siljiyverdi.

Achchiq ter uning yuzidan og'ziga oqib tushardi. Qo'liga o'ragan lattalari allaqachon titilib, kaflari qavarib ketdi, barmoqlari uvusha boshladi, gavadasi esa haddan tashqari og'irlashib pastga torta boshladi. «Agar daryoga o'zimni otsam nima bo'larkin? – o'yladi Nurbek. – Baribir, men o'lgan odamman, menga baribir emasmi». Ko'prik-chi? Uni kim tuzatadi? Demak, ertaga Asya Baydamtolning boshiga borolmaydimi? Demak, uning xalq uchun qilgan barcha mehnatlari barbod bo'ladimi?»

Nurbek o'zini o'nqlab, yana bir-ikki qadam olg'a bosdi.

«Asya! – xayolan murojaat qildi, u qizga. – Sening jahling chiqmasin, xafa bo'lma, men munosib kishi emasman, jinoyatchiman, irodasiz qochqinman, lekin seni sevaman! Menga ishongin, xudo haqi, men seni sevaman! Ha! Hatto o'zimdanda yashirib yurganimga ham iqorman!...»

Nurbek daryoning o'rtasiga kelgach, boshqa siljishga majoli kelmay qoldi. Oyoq-qo'llarining madori qurib, hushdan ozayozgan edi. Yana buning ustiga negadir pastki tros salqi bo'lib qolgandi, U pona qoqib mahkamlagan edi-ku! Balki, bu odamning og'irligi bilan bo'shab qolgandir. Nurbek oyog'i tagidagi trosning sekin-asta pastga tushib ketayotganini sezib seskanib ketdi, ko'kragini to'ldirib nafas olgan edi, birdan yo'tal tutib qoldi. Yo'tal uni yana og'ir ahvolga solib qo'ydi. Nurbekning ko'kragi achishib og'riyotganidan nafas olishi ham og'irlashgan edi. Qonga belangan qo'llaridan kuch ketib, oyoq ostidagi tros borgan sari pasayib ketmoqda edi. Nurbek sim ustida tebranib, u yoqdan-bu yoqqa chayqalardi.

– Ajal! Ajal! – deb g'olib kelganday Baydamtol shovul-lab oqardi, go'yo o'z o'ljasini kutayotganday edi. Nurbekning qo'llari endi unga itoat qilmay qo'ygan edi. Toqatsizlanib



turgan Baydamtol yana:

– Ajal! Ajal! – deb g'azab bilan o'shqirdi.

– Suv! Bir qultum suv! – so'radi Nurbek chanqoqdan tutoqib.

«Boshingni eg, daryodan olib ich suvni! Suv ko'p, sening chanqog'ingni qondirishga yetadi, bosh eg!» – kimdir makkorlik bilan qulog'iga shipshitgandek bo'ldi.

Nurbek oxirgi kuch bilan barmoqlarini qisdi. Shu payt u qo'lida soatining chiqillab ishlayotganini eshitdi. Bu g'ayri tabiiy bo'lib ko'rinsa ham, haqiqatda eshitalayotgan edi. Dar-yoning quloqni kar qilgudek gulduragan ovozlari orasida bir me'yorda aniq, jaranglagan «tik, tik, tik,» tovushi ham ravshan eshilib turardi. Ana shu har bir soniya urishi bilan birga hayot ham o'tayotgan edi. Hayot! Kishi hayoti! Shu qisqa bir daqiqada ichida u hayotning nima ekanligini uqib oldi...

Zo'r iroda kuch bilan u boshini birdan ko'tarib oldi va butun daraga qarab tantanavor qichqirdi:

– Men yashayman!

...Nurbek qirg'oqqa chiqib olganidan so'ng, o'zini yerga tashladi va qariyb bir soatga yaqin jonsiz kishi kabi qimir-lamasdan chalqanchasiga yotdi. U iziga qaytishda asboblarni oldimi, yo'qmi, ammo asosiy ish bitdi, Tortilib qolgan tros bo'shadi. Qirg'oqda chig'iriy yordamida Nurbek lyulkani joyiga olib keldi. Tongda u ishini tugatdi.

Nurbek suv bo'yiga tushib, etigi bilan suv kechdi va faqat endigina suv ichishga o'zini haqli deb bildi.

U suvni katta-katta qultumlar bilan sekingina icharkan, bolalarcha kulib qo'ydi. Bugun u hayotida birinchi marta chinakam kurash va g'alabaning lazzatini tushundi. Bu safar u faqat o'zi uchun, o'z shuhrati va qahramonligini quruq namoyish qilish uchun emas, balki katta orzular uchun, yuksak maqsad yo'lida xizmat qilayotgan Asya uchun jasorat ko'rsatdi.

– Ha, men baxtliman! – dedi Nurbek. – Ertalab Asya Baydamtol o'zanlari sari yo'l oladi. Yo'l ochiq, ko'priks





tuzatilgan!..

Nurbek zavqlanganidan qumlik ho'l qirg'oqdan chopib ketdi. U uyga kelib, qo'lga qalam olib bir varaq qog'ozga egri-bugri qilib yozdi:

«Asya, men qayoqdan kelgan bo'lsam, o'sha yoqqa ket-yapman. Balki, biz hech qachon uchrashmasmiz, lekin men seni qanday go'zal bo'lsang shundayligingcha umrbod qalbmida saqlayman. Jahling chiqmasin, mendan kulma, Asya, sen men uchun... Xayr, omon bo'l... O'zingni ehtiyot qil... Ha, sal bo'lmasa unutayozibman, men Gersening kito-bini o'qib ulgurolmadim, kechir, men uni o'zim bilan birga olib ketyapman, axir bu sening sevimli kitobing, kurashchan inson haqidagi kitob-ku... Mening tasodifan sen bilan bo'lgan uchrashuvim hayotimdagi eng qiyin va eng baxtli kunlar bo'lib qoladi. Rahmat senga, Asya, barcha yaxshiliklaring uchun... Sen menga ko'p narsalarni o'rgatding... Sen meni Baydamtol ustidan g'alaba qilishing uchun dunyoda hamma-dan ko'proq tilak tilovchi do'sting deb hisobla... Men aminman, Asya, Baydamtol zabt etiladi!..»

IX

Asilboy ertalab barvaqt turib, hovlini aylanib yurdi, otini suvning bo'yiga yetaklab keldi va uni cho'miltirmoqchi bo'lib paqirlab suv quya boshladi. Tog' ortidan quyosh ko'tarildi. Asilboy qo'lini peshonasiga qo'yib quyosh tomon astoydil tikilib qoldi. U yuzlariga sachragan ariq suvidan seskanib ketdi va qo'lidagi paqirni tushirib yubordi. Asilboy Asyaning derazasi yoniga yugurib bordi va kuchining boricha uni taqillatdi.

– Asya, tur tezroq, u ketdi!

Hech narsani anglay olmagan Asya hovliga yugurib chiqdi:

– Nima gap, otajon?

– Qara-chi, qizim, u yoqqa! – g'urur bilan dedi Asilboy





uzoqlashib ketayotgan kishini qo'li bilan ko'rsatib. Odam dovon tomon ketayotgan edi. – Bu Nurbek! – tushuntirdi Asilboy.

– Nurbek! Nurbek! – Bor kuchi bilan qichqirdi Asya. Aftidan, u yugurmoqchi bo'ldi, lekin shu zahotiyiq to'xtab, sezingan, beixtiyor va hayajonlangan tusda, xuddi har galgidek ertalab qoya tosh oldiga yugurib borib, Baydamtolning go'zalligiga mahliyo bo'lib turgandek, dong qotib qoldi. – Shunday bo'lishini bilgan edim! – shivirladi Asya.

Nurbek katta qoya orasiga yashirindi. Asya u bilan faxrlanar, ayni chog'da uni qo'msab yurak-bag'ri o'rtanib yonayotgan edi. U ko'z yoshi qilmaslik uchun yuzini teskari burib oldi va so'radi:

– Ota, bu yerdan sovxozgacha uzoqmi?

– Dovondan narida, anchagina yo'l, lekin bahuzur borsa bo'ladi.

Ruschadan Asil RASHIDOV tarjimasida



RAQIBLAR

(hikoya)

Endigina ishdan qaytgan Xonimgul uy ishlarini ana-mana deguncha bitirdi-da, ko'chaga, poda yo'liga chiqdi. Qora sigimi ertaroq bog'lab olmasang, u yomon, darrov qo'shnilarning ekinlariga tushib ketadi. Orqasidan o'n chog'li kishi halloslab quvlamasa, osonlik bilan ushlatmaydi.

Xonimgul qo'liga ikki yashar o'g'li To'g'onni ko'tarib olgan edi. Ularning ikkalasi ham ko'chani kun botish tomoniga tikilib turishardi. Poda har kuni o'sha yoqdan kelardi. Ko'chani oxiridagi qator tizilgan teraklarning ignadek uchiga go'yo quyosh ilinib qolganday, so'nggi nurlarini sochib, qirning ortiga botib bormoqda edi. Botib borayotgan quyosh o'rmini borgan sari g'ira-shira qorong'ilik egallab, pastlikdagi ko'lankalarni o'z qa'riga tortib borayotganday, tobora hamma narsa ko'zdan g'oyib bo'lib borardi.

Kech kirib qolgan bo'lsa ham, oftobning tafti hali qaytganча yo'q, kun botish tomondagi qozoq dashtidan kimdir birov atayin yelpiyotganday garmselning¹ issiq nafasi yuzlarga lovullab ura boshladi. Hozir tevarak-atrofdagi hamma narsa: holsiz tebranayotgan butalar, jimjit to'qayzor singari issiq havoda dimiqib turgan chorbog'lardagi oq jo'xorilar, chivinga talanib ariq bo'yida bosh siltab turgan bo'zbiya, mana shularning bari saraton issig'ida kuyib-yonib, hozir salqin tunning kelishinigina orziqib kutayotganday. Tunda yuqoridan muzdek shabada esardi, tongda hordiq chiqarib yotgan yer betini shudring qoplardi, o'shanda toshlar marvarid donachalari bilan qoplanganday jilvalanardi, mollarning yegani singib, semirardi, qurib-qovjiragan nihollarga qayta jon ki-

¹ *Garmsel* (forscha: issiq mamlakatlar, o'lkalar) – yozda bo'ladigan issiq yoqimsiz zararli shamol.



rardi.

Sigirlar rosa to'yib qaytganidan og'irlashib qornini ko'tara olmay ko'chani o'rtasida shoshmasdan bir-bir bosib, yo'lning changini burqsitib kelardi.

Ikki yuzi qip-qizil olmaday, burni esa sal yassiroq, tinib-tinchimas kichkina To'g'on Xonimgulning qo'lida olg'a talpinib, chiviqni o'ynab, qora sigirni: «Hish-hish, hish!» deb chaqirardi. Qora sigir To'g'onga parvo qilmay, erinchoqlik bilan sudralib keldi-da, jo'xori tomon intilmoqchi edi, Xonimgulni ko'rib to'xtab qoldi.

– Hayda, To'g'on, uyga hayda! – dedi Xonimgul qo'lidagi bolasini erkalatib. Shu payt bolasi ko'ziga chindan ham ishga yarab, go'yo mol haydashib yurganday ko'rinib, onasi bundan o'zicha suyunib qo'ydi.

Xonimgul bir bola ko'rgan juvon bo'lsa ham, qiz paytidagi husni jamolini yo'qotmagandi. Kulib turganda yuzlaridagi kuldargich yanada chuqurlashib, chehrasida qandaydir uyatchanlik balqib turardi. Uning sal qiyiq chiroyli ko'zlari ba'zan sho'x qulunday o'ynoqlar, ba'zan ichki nozik hissiyotlarini shundoqqina ko'rsatib, uzoq vaqt porlab turardi.

– Aylanayin podachim! Sening bu mol haydaganingdan aylanay! – deb Xonimgul bolasini quchoqlab, qayta-qayta o'pdi. Bolaning salmog'idan tortilib tovoniga tushgan uzun ko'ylagining etagini yerga qo'shib bosayotgan Xonimgul erka-langanday bidirlab kelardi. – Hayda, sadag'ang ketayin, hayda... Chiviq bilan ur... Bosh, uni qara, jo'xoriga kirmoqchi chog'i! Bosh desa!.. Aylanayin, men uni hozirgina sog'aman, sut ichasanmi, To'g'on?

Xuddi shu vaqt ko'chadagi chang-to'zon ichida bir otliq ko'rindi. Uning ot haydashi bejo edi. Devorning boshida qo'nqayib o'tirgan boyo'g'liday hurpayib, terga botgan kigiz qalpog'ini chaqchaygan ko'zigacha bostirib kiyib olgan, havo yonib turganiga qaramay ustida yog'in-sochindan o'ngib ketgan plash.

– Otang keldi, qara-chi. To'g'on, otang keldi! – dedi Xo-





nimgul kuyoviga jilmayib.

Qoratoy aslida o'zi qop-qora kishi. Biroq bugun uning terlab-pishib chang bosgan yuzi o'zgacha xunuk tortib rangi o'chib ketgan edi. Uning ko'pdan beri ustara tegmagan shopday mo'ylovining uchlarini ham boyagi issiq garmsel urganday sarg'ayib ketgan.

Qoratoy tizginni tortgani yo'q. U bolasi bilan xotining yonida to'xtamay go'yo boshqa begona kishilarni uchratganday, ularning oldidan o'tib borayotib bir tikilib qo'ydi-da, darvozaga suykanib yotgan sigirga yetib borib, uni qamchi bilan qulochkashlab jon-jahdi-la bir soldi-da, indamasdan uyga haydadi.

– Ota, ha, chuv! Ota, ha, chuv! Ota! – Otga mindirgin deganday otasiga chuldirardi kichkinagina To'g'on.

– Qoratoy, o'g'ling'ni mindir! – dedi Xonimgul. Qoratoy otining jilovini biroz tortib, qayrilib turib bir kulimsirayin dedi-yu, lekin kulmadi. Lablarida tabassum bir ko'rindi-yu, yana yo'qoldi. «Ey, qochib tursang-chi», – deganday Qoratoy o'g'liga qarab qo'lini siltadi.

Hech nimaga tushunolmay qolgan Xonimgul bolasini ko'kragiga bosganicha, o'mida serrayib turib qoldi.

Boshqa kunlari Qoratoy suv boshidan kelganida otdan tushmay turib doimo «Qani, xonim, o'g'ilchani ber!» deb, ot ustida qulochini yozib engashardi. O'shanda uning ma'yus ko'zlariga kutilmaganda sevinch uchqunlari, xo'mraygan yuziga iliqlik yugurardi. Qoratoy To'g'onni oldiga mindirib olib, o'zicha allaqaysi ohangda xirgoyi qilib, kechki salqinda ko'cha bo'ylab o'g'lini nari-beri sayr qildirardi. To'g'on bo'lsa chilvirning bir uchini ushlab kichkintoy oyoqchalari bilan tepinib, quvonchidan lablarini cho'chchaytirib: «Ko'rdilaringmi, otni o'zim haydab yuribman!» – deganday taltayib qo'yardi. Shunda bularni ko'rgan kishilar:

– Voy-bo'y! Bizning To'g'on ajabtovur yigit bo'lib qolibdi-ku! – deyishib, chindan ham suyunishardi. – Ko'rmay-





sanmi! Otni o'zi minib yuribdi! Borakallo! Azamat, azamatda o'zi!

Mana shu aytilgan oddiy so'zlar Xonimgul uchun onalik mehriining eng yuksak cho'qqisiga olib chiqqanday bo'lardi.

Xonimgulning eng yaxshi ko'rgani – kechki payt. Qoratoy otini soyga tushovlab kelib, ko'nglini joyiga qo'ygach, ozmox qo'biz ham chertib qo'yardi. O'choqning boshida yostiqa yonboshlab, qo'li bilan qo'bizning¹ torini chertib, uyqusiraganday shishinqiragan qovog'ining ostidan, yonida chordona qurib xursand bo'lib o'tirgan To'g'onni erkalatib, kulimsirab qarardi.

Yerda xamir qorib o'tirgan Xonimgulning lorsillagan yuzlari olovning taftidan loladay qizarib ketgan edi. Qoratoy, albatta, mohir qo'bizchilardan emas, uning chertganini har bir qirg'iz eplab chertadi, biroq u chertib o'tirgan eski kuy Xonimgul uchun obdan yoqimli, bu kuyni u tun-u kun mijja qoqmay eshitishga tayyor. Uning orzulari ro'yobga chiqqan: qarshisida bolasi, bir yostiqa bosh qo'ygan umr yo'ldoshi o'tiribdi. Ularga Xonimgul o'z qo'li bilan ovqat pishiryapti. Qoratoy chertayotgan kuy Xonimgulga qanot berib, u hozir osmonda aylanib uchib yurganday. Bunday paytlarda Xonimgul: «Shunday ahil, rizqi-ro'zli oila peshonamga bitganidan roziman», – deb o'ylardi.

Xonimgulning shunday o'ylashida jon bor. Goho tengqur kelinlar yashirmay-netmay: «Sen juda baxtlisan, Xonimgul! Kuyoving ro'zg'orga jonkuyar, chorva kishisi, Jamoa xo'jaligining suvchisi. Sen dala ishida bo'lsin, uy ishida bo'lsin, hech kimdan ortda qolmaysan. Turmushlaring tinch, o'g'ilchang bor, qaynanang bilan ahilsan, armonsiz o'tasan», – deb aytishardi. Bunday paytlarda Xonimgul barcha quvonchini ichiga yutib, indamasdan kulib qo'yardi-da, qo'lidagi ketmonini yana ham ildamroq siltardi. «Biroq sizlar eng negizini bilmaysizlar!» – deganday Xonimgul o'zicha kulimsirardi. «Men uchun sevish hammasidan qimmat. Men Qoratoyni

¹ Qo'biz qisqa dastali, pardasiz, torli musiqa asbobi (do'mbiraga yaqin).



sevaman. Qoratoy meni sevadi. Ikkovimiz bolamizni sevamiz... Sevmagan odamlarning boshi birikadimi?» Biroq kutilmaganda, qandaydir sabablar bilan ular o'rtasida shirin turmushning buzilishini Xonimgul xayoliga ham keltirmas edi. Qoratoyning bugungi avzoyi Xonimgulni o'ylantirib, tashvishga solib qo'ydi. «Bu nimasi, u nega bunday qilyapti?» – deganday To'g'onning yuziga ayanchli holatda termilardi. Bola bo'lsa ona qalbini tushunganday yig'lay boshladi, u, aftidan, otga mindirmading, deb otasidan ko'ngli o'ksiganga o'xshaydi.

– Qo'y, To'g'on! yig'lama, qo'y! – dedi Xonimgul. U bolani ovutishga qanchalik urinmasin, o'zi ham allanarsani eslab xayolga cho'mdi. Biroq o'y-xayollarining uchini topolmadi. Bolani yupatishga boshqa munosib so'z topolmay, Xonimgul uni yanada qattiqroq quchoqlab bag'riga bosdi.

Old tomondan urgan kuchli shamolga ko'ksini qalqon qilib turganday Xonimgul To'g'onni bukchayganicha quchoqlab turaverdi. Ayol tez-tez nafas olayotganidan bo'yin tomirlari sirtiga bo'rtib chiqqan. Xonimgulning o'zi uchun ham, bolasi uchun ham o'ksigan yuragi aybsiz izza bo'lganiga chidamay o'rtanib yonib, allaqanday qo'rqinchli hodisa yuz berishini oldindan sezayotganday gup-gup urardi.

Xonimgul uyga kirib kelganda, Qoratoy o'sha chang bosgan plashini yechmasdan, burchakdagi stol yonida tik turganicha, katta kosani qo'sh qo'llab ushlab ayron ichayotgan, ekan. U xuddi uzoq chopib, yutaqib qolgan ot singari ayronni jon-jahdi bilan qultullatib ichardi. Xonimgul unga indamay qarab turaverdi. Har bir qultumni yutganda uning yungli bo'ynidan kekirdagi goh pastga tushib, goh yuqoriga ko'tarilib turardi.

Xonimgul erining fe'li-atvori nimaga bunday o'zgarib kelganini tushinib yetmadi. Qoratoy hamma vaqt kam gap edi, albatta. Biroq Xonimgul erini hali hech qachon bugungidek begonlashib, g'azabga to'lganligini ko'rmagan edi.

Qoratoy, nihoyat, kosani tokchaga qo'ydi, yorilib, dag'al-





lashib ketgan katta kafti bilan lablarini artgancha, xotiniga ko'z qiri bilan nazar tashladi va orqasiga burilib, indamasdan karavot tomon odimlab ketdi.

– Bolani bu yoqqa olib kel! – dedi u plashini devordagi mixga ilar ekan, bo'g'iq ovoz bilan.

«Nimaga kerak u senga? Sadqayi bola ket! Xudo yorlaqab sog'inib qolibsani! Shoxini sindirganing ham yetar!» Xonimgul kuyoviga shunday deb aytmoqchi bo'ldi. Biroq bunga jur'at etmadi. Shu mahal Qoratoy kigizga o'tirarkan, bir yeri qattiq og'riyotganday tishini tishiga qo'yib ingrardi. Aftidan, qandaydir achinayotganday ko'rinib, bosh-yuzlari burishib, qarib qolgani, ayniqsa bugun ko'zga alohida tashlanib turardi. Shunda buni payqagan Xonimgul qalbidagi g'azab alangalari birdan tarqalib ketdi.

– To'g'on katta onasinikida, – dedi Xonimgul eshikka chiqib borayotib, – senga nima bo'ldi, Qoratoy? Nega muncha qovog'ing soliq?

– Hech nima... Ovqatingni qil...

Xonimgul bir chelak suv olib uyga qaytib kelganda kuyovi hali ham boyagiday gangigan, quyi solingan boshini kaftiga qo'yganicha kigizning ustida yonboshlab yotardi. U shu bo'yicha qo'zg'almay yotaverdi, biroq Xonimgul yaqinlab kelganda uni ataylab javratmayin dedimi yoki boyadan beri o'ylanib yotib bir fikrga kelgan bo'lsa shuni aytishga o'zini chog'ladimi, har qalay, Qoratoy o'rmidan sakrab turdi-da:

– Rezinka etik qayerda, olib kel! – deb xotining ro'yxush bermayotganini anglab, shartta buyruq qildi. Paytasini shosha-pisha o'rab, rezinka etigini kiyib olgan Qoratoy eshikka shoshilib yugurib chiqdi, Qantarig'liq turgan otning pushtanini biron nimadan o'ch olayotganday jon-jahdi bilan tortgan edi, ot o'rmidan qo'zg'alib ketdi.

– Tak! – dedi Qoratoy ovozing boricha zarda bilan baqirib, – harom o'lgur!

So'ng u xotiniga qayrilib, xo'mrayib yovuzlarcha tikilib qaradi.





– Sening Sobirbeking! – dedi u rang-quti o‘chib, qaltirab, – yo meni de, yo uni de!..

Buni uqib boyadan beri ko‘ngli xiralashib, allaqanday yomon narsani sezib hadiksirab yurgan Xonimgulning qalbi yana Sobirbek, deganida qinidan chiqib ketguday bo‘ldi. U Qoratoyga qarab otildi va ot uzangisiga yopishib olib yalinib-yolvordi:

– To‘xta, Qoratoy! To‘xta, bu nima deganing? Nima uchun bunday deypasan?.. Qaysi Sobirbek?..

Biroq Qoratoy xotining so‘zlariga quloq solmay, uning qo‘lini siltab tashlab, otiga ustma-ust qamchi bosib, chang-to‘zonni ko‘tarib chopib ketdi.

Xonimgul «Qoratoy! Qoratoy!» – deb baqirganicha qolaverdi. Tog‘dan esayotgan kechki shamol g‘azabga to‘lgan Xonimgulning etak-englarini hilpiratib: «Sen bu yerda nima qilib turibsan, qitiqlayinmi-a?» deganday yulqilab o‘ynayotgan edi. Xonimgul uyga qaytarkan, yelkalari sovuqdan uchib titrardi.

Tog‘dan qorong‘ilik bosib kela boshladi. Allaqayerdan, olis-olislardan boyo‘g‘lining qichqirig‘i eshitildi. Eshitildi-yu, darhol jimib qoldi. Samoda yulduzlar fanari yona boshladi. Koinot uyquga ketdi.

II

O‘sha kuni kunduzi chaqirilgan jamoa xo‘jaligi suvchilari va dalachilik brigadalari¹ kengashiga Qoratoy biroz kechikib keldi. Tuman ijroiya qo‘mitasi raisining katta kabineti kengash qatnashchilari bilan liq to‘lgan edi. Qaysi birlari dera-zalarning tagida, boshqalari eshikning bo‘sag‘asida devorga suyanganicha o‘tirishardi.

¹ **Brigada** (fransuzcha: brigade < italyanacha: brigata – otryad, odamlar guruhi, qo‘shin) – bir necha polk, batalon yoki diviziondan va maxsus qo‘shinlar bo‘linmalaridan, dengiz flotida esa bir necha turdagi harbiy kemalardan iborat harbiy-taktik qo‘shilma; 2) mehnatning muayyan bir turini birgalikda bajarish uchun tuzilgan va ish natijasi uchun umumiy javobgar bo‘lgan jamoa, mehnatchilar guruhi (bu yerda shu ma‘noda).



Qoratoy koridorga kirib, eshigi ikki yoqqa ochib qo'yilgan kabinet tomon bo'yin cho'zib o'tirishgan kishilar to'piga kelib qo'shildi.

Kengashda chiqib so'zlaganlarning barisi birgina masalani muhokama qilishardi. Tumanda sug'orish ishi yomon ahvolda, ekin-tikin vaqtida sug'orilmay qurib, kuyib ketyapti. MTSning¹ bosh agronomi² «Beshtosh» jamoa xo'jaligi haqida uzoq gapirdi. Unda Qoratoy suvchilik qilardi. Ilg'or jamoa xo'jaliklarda bedalar ikki bor o'rilib, g'aramlanayotgan bo'lsa, «Beshtosh» jamoa xo'jaligida bir marta o'rilgandan so'ng boshqa sug'orilmay, beda suvsizlikdan shu bo'yicha o'smay qolgan. Ish shu ahvolda bo'lar ekan, beshtoshliklar bu yil ham o'tgan yillardagidek bedani ikki marta o'rib olishiga ko'zi yetmaydi. Jo'xori bo'lsa endigina bir marta sug'orilibdi, qay bir yerlariga butunlay suv chiqmay, tap-taqligicha yotibdi, boshqa jamoa xo'jaliklarda bo'tako'z ekinlari to'rt-besh bor sug'orilgan bo'lsa, «Beshtosh»da atigi ikki marta sug'orilgan, xolos.

Jamoa xo'jaligi sha'niga aytilgan agronomning bu xildagi so'zlarini Qoratoy beparvolik bilan odatdagi so'zlar-da, deganday tinglab o'tirdi. Bu yetishmovchiliklar haqida uning ham o'z-gacha aytar so'zi bor. Bu narsalar unga ilgaridan besh qo'lday ma'lum edi. Chunki Qoratoy o'zining jonajon ishi – suvchichilik haqida erta-yu kech bosh qotirar edi. U ko'pdan beri bunday savollarga javob berish uchun o'ylab, tayyorlanib yurardi. U o'z fikrlarining to'g'riligiga qattiq ishonar edi ham. Suvchining o'ziga xos tegishli ishlari bor: jamoa xo'jaligiga berilgan suvni belgilangan norma bo'yicha ariqlarga bo'lib tarqatish kerak. Qolgan boshqa ishlar esa raisga tegishli, brigadirga tegishli. Ishni o'shalar boshqaradi-ku! Darvoqe, suv ishi jamoa xo'jaligida g'oyat yomon ahvolda, biroq bunga kim aybdor? Qoratoymi? Yo'q, jamoa xo'jaligida suv yetish-

¹ MTS – mashina-traktor stansiyasi.

² **Agonom** (agro.. + *yunoncha*: nomos – qonun; odat) – qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi, uning qonun-qoidalari haqidagi fan; qishloq xo'jalik va dehqonchilikka doir nazariy va amaliy bilimlar mutaxassisi.





masa, Qoratoyning qo'lidan nima ham kelardi? Yo'qni yo'ndiradimi? Ayrim vaqtlari suv yetarli bo'lgani bilan sug'orishga odam yetishmay qoladi, hammasiga jamoa xo'jaligi raisi aybli, u javob beraversin...

Qoratoy bu gal ham kengashda aytiladigan gaplarni ko'ngliga olmay odatdagidek qosh-qovoq qilib o'tirmasdan, kelgan bo'yidan ovulga qaytib ketaverishi mumkin edi. Biroq kengash oxirida kimdir bиров burchakdan turib gapirib qoldi: «Unday degan bilan ham, bunday degan bilan ham, baribir, suv normasi ko'paytirilib, har birimizga uch-to'rt quloqdan suv qo'shib bermaguncha ish bitmaydi». Qoratoy o'zini birdan yengil his qildi, – uning ayni muddaosidagi gap aytilgan edi. O'zi ham doimo suv deb qaqshab yurardi. Ish ko'ngildagidek bo'lish uchun jamoa xo'jaligiga bo'lib berilgan suv yana kam deganda yarim baravar ko'paytirilishi zarur edi. Ko'pchilik suvchilar bu taklifni quvvatlab shovqin-suron qilishdi: «To'g'ri! To'g'ri aytadi, hamma gap shunda-da!»

Ovozlar biroz bosilgach, Sobirbekka so'z berildi.

Sobirbek Qoratoylarga qo'shni – Jdanov nomli jamoa xo'jaligining suvchisi. U porusina ko'ylagining etagini orqa tomoniga tortib qo'ydi-da, stol yoniga yengilgina odimlab keldi. So'ng o'tirganlarning ko'nglidagini bilmoqchi bo'lganday, ularning har biriga ko'z yugurtirib chiqdi. Hadeganda Sobirbekning o'ziga xos belgilarini anglab olish qiyin edi. Uning yoshi o'ttizlardan oshgan, keng yag'rinli, qo'y ko'zli, sariqdan kelgan kishi edi. Uning baquvvat gavdasi ko'rinishdan yoshlik chog'idan mehnatga chiniqqan kishilarni eslatardi. Sobirbekning yoqimli kulimsirab turgan yalpoq yuzlari, kishilarni maftun qiladigan ishonchli ko'z qarashlari, vazmiyligi, birovga yomonlikni ravo ko'rmaydigan yuvosh kishini eslatardi. Biroq ish haqida, suv xususida so'zlaganda, uning haligi mo'min-qobilligi bir zumda yo'q bo'ladi-qoladi. Sobirbekning bu tabiatini Qoratoy boshqalardan ko'ra yaxshiroq bilardi...

Yaqin kishilar orasidagi o'zaro aloqa va munosabatlar





ham vaqti kelib juda murakkablashib ketishi mumkin. Mana hozir Sobirbek so'zlay boshlaganda, Qoratoy uning so'zlarini menga hech qanday qizig'i, tegishli joyi yo'q, deganday, o'ziga yuqtirmay, shunchaki tinglab o'tirdi. Ular go'yo ilgaridan kelishib qo'ygan kishilardek, bir-birini hech vaqt yomonlab ham, yaxshilab ham gapirmas edilar. Sen menga tegmasang, men senga tegmayman, sen mening ishingga aralashmasang, men sening ishingga aralashmayman, deb kelishib qo'yganday, o'zaro yoqtirishmasalar ham biri ikkinchisiga gap tegizishdan ehtiyot bo'lib yurishardi. Oldin do'stlashib yurgan kishilarning orasi buzilib, yo'llari ikki tomonga ayrilib ketgan paytlarda shunday hodisa yuz beradi: yaxshi, yomonni yashirishib bir-biridan uzoqlashaverishadi. Ularning do'stligi odam qatnamay qo'ygan yolg'izoyoq yo'lni o't bosib ketgani kabi bora-bora, o'z-o'zidan unutilib, qalbdagi o'kinchlarni bir-biriga aytishmay yurgan do'stlar orasidagi ziddiyatlar kuchayib, kek saqlaydigan bo'lib qoladilar. Ular ochiqdan ochiq qasdlashib qolmasa ham, har biri o'z dardini ichiga tugib, paytini poylab yuradi.

Mabodo ulardan biri qo'l ko'tarib qolguday bo'lsa, ikkinchisi ot qo'yib kurashga kirishga tayyor turadi. Ana shunda ular bir-biriga dushman ekanini yashirib o'tirmasdan, yuzmayuz keladi. Hozircha ko'nglida biror g'arazi bo'lmagan Qoratoy Sobirbekning so'zlarini sovuqqonlik bilan tinglab o'tirardi.

Sobirbek u-bu deb ezmalik qilib o'tirmasdan, gapning bo'larini aytayotgan edi:

– Bu yerda ba'zi birlarimiz suvni taqsimlash masalasi qayta ko'rib chiqilsin, tekshirilsin, degan fikrni aytyapmiz, – dedi u bamaylixotir so'zlab. – Bu bir tomondan to'g'ri, albatta. Chunki har bir ishni qayta-qayta ko'zdan kechirib, tekshirib turish – foydadan xoli emas. Bizning suvchilarimiz – gidrotexniklar¹ ham buni allaqachon inobatga olib qo'yish-

¹ **Gidrotexnik** (gidro. + texnika) – texnikaning suv resurslaridan xalq xo'jaligida foydalanish va turli xil suv ofatlariga qarshi kurashish maqsadida ko'riladigan



gan bo'lsa kerak. Bu haqda ularning o'zlari gapirishar. Biz, suvchilar, esa bu yerda bundan boshqa ishlar to'g'risida kengashib olishimiz kerak. Aks holda qizining siri onasiga ma'lum, deganlariday, bizning bilganimiz bitta. U ham bo'lsa: «Suv yetmayapti, chanqadik, ko'proq suv ber!» – deb ayyuhannos solganimiz solgan. Agar suvni ko'paytirib berganlari taqdirda ham yana suv yetmaydi deb chopganimiz chopgan. Suvning ko'pi yaxshi. Suv qancha mo'l bo'lsa, non ham shuncha serob bo'ladi, bu hammaga ma'lum. Lekin ba'zi birovlarimiz Chuy arig'ining hammasini dalasiga burib yuborsang ham ko'zi to'ymay, o'shanda ham suv yetmaydi deb zorlanadi. Yo'q, o'rtoqlar, bu kulgi emas. Bu muammo har birimizni qattiq o'ylantirmoqda. Axir unga xudoning shuncha-ki oqib yotgan suvi deb yengil-elpi qarash mumkin emas-da. Suv deb qanchalik tashvish tortyapmiz, mehnat qilyapmiz... Shunday ekan, bu haqda bafurja o'tirib gapirishib olaylik... Mana masalan, ko'klamda dalani kezgan vaqtingda, bir tekisda unib chiqqan ekinlarni ko'rib qalbing quvonchga to'ladi, kuzga kelib xirmon ko'tarilganda hosilni ko'rib xafsalang pir bo'ladi. Mana hozir ham ekinlar suv yuzini ko'rmay quvrab ketyapti... Nega shunday bo'lyapti? Suv yetishmasligidanmi? Yo'q, bunday emas. Meningcha, har bir jamoa xo'jaligida yetarli suv bor, hatto suvga serobmiz ham deya olishimiz mumkin. Xo'sh, shunday ekan, asosiy gap nimada?

Sobirbek koridorda o'tirgan bir gala odamlar tomon g'ozday bo'yin cho'zib qararkan, birdan Qoratoygga ko'zi tushishi bilan taqir qirilgan boshini qashib, xayoliga biror narsa kelganday biroz jim qolib, gapni ulab ketdi:

– Har kim ko'rgan-bilganini gapiradi. Qoratoy bilan ikkimizning ovulimiz yonma-yon. Ichadigan suvimiz ham bir. Qatta ariqning narigi sohili ularniki, berigi sohili bizniki... Bu tomondan Qoratoyni do'st deb bilaman. Men uni yomonlamoqchi emasman, lekin men bugun haq gapni aytolmasdan





ham turolmayman. Sen ham suvchisan, men ham suvchiman. O'zingga ma'lum, «do'st achitib gapirar, dushman kuldirib», – degan maqol bor.

Sobirbekning bu so'zlarini tinglab o'tirib Qoratoy o'z qulog'iga ba'zan ishongisi kelmasdi. Bu gaplarning hammasi unga to'g'riday bo'lib tuyulardi. Biroq to'g'ri so'z toshni yorar deganlariday...

Sobirbekning so'zlari asta-sekin Qoratoyga og'ir bota boshladi. Sobirbek haq gaplarni aytayotgan bo'lsa ham, Qoratoy uni aksiga tushunib, g'azablanayotgan edi. Qoratoy aldandigan anoyi emas, Sobirbek nima uchun boshqalarni misolga keltirmay, uning ishi haqida gapirayotganini yaxshi payqardi. Sobirbek undam o'ch olmoqchi. U shu kengashda xalqning ko'z oldida ataylab uning obro'yini to'kib, sharmanda qilmoqchi. Bo'lmasa, «Beshtosh» jamoa xo'jaligi ekinlarni sug'orishda eng orqada qolgan, deb bunchalik javramasdi.

Haqiqatan ham, Sobirbek bugun yechinib olib, kurashga tushgan kishiday do'stlarini ham, boshqalarni ham yuz-xotir qilmay, qattiq tanqid qilayotgan edi:

– Qachon bo'lsa suv oz, suv yetishmaydi, deb bahona qilib yuradi. Bu odatini tashla, Qoratoy. Aks holda ish ham yurishmaydi, ekin ham o'smaydi. Sening ixtiyoringga uch yuz litr suv berib qo'yilibdi. O'z dehqon tilimiz bilan aytganda, bu olti quloq suv! Hoy, bu hazilakam suv emas. Men ham uch yuz litr suv olaman. Bizning ekin maydonimiz ham deyarli birday. Shu suvning o'zidan ham tejab-tergab foydalansak, xudo haqqi, yetish u yoqda tursin, hatto oshib ketishi ham mumkin. Lekin sen o'sha o'zingga berilgan suvning hammasidan to'la foydalanayotibsanmi? Hamma gap ana shunda! Men hozir senga to'ppa-to'g'risini aytib bera qolay, – deb Sobirbek cho'ntagidan yon daftarchasini oldi. O'tirganlar qo'zg'alib ivir-shivir qila boshlashdi: «Sobirbekning gaplari to'g'ri! Hamma balo o'zimizda! Suv isrof bo'lib ketyapti». Sobirbek bloknotini varaqlab, bir joyini ochdi-da, gapira boshladi:





– Agar shu vaqt ichida sugʻorilgan yer maydonlari hisoblab chiqilsa, haligi uch yuz litr suvdan faqat bir yuz yetmish litrigina foydalanilgani maʼlum boʻladi. Shunday ekan, qolgan yuz oʻttiz litr suv qayerga ketgan? Bu suvlarning bekorga oqib yotgani oʻzingga ham ayon, Qoratoy. Ularning bir tomchisi ham ekinlarga sarflanmagan. Xoʻsh, nima uchun bular haqida gapirmaysizlar. Bu suvchining ishi emasmi? Hosil olamiz der ekanmiz, har kuni uch mahal ovqat qilishni kanda qilmaganimizdek, ekinlarning ham bir kun emas, bir soat ham kechiktirmasdan qondirib sugʻorib turishimiz kerak. Buning uchun esa suvchi erta-yu kech dalada, suvning boshida turib joy kuydirib ishlashi kerak. Qoratoy, sen tungi sugʻorishda boʻlasanmi? Yoʻq, albatta. Odam boʻlib hali biror marta seni kechasi suv boshida koʻrganim yoʻq! Ariq-ariqlarga taqsimlab berilgan suv qayerga oqyapti, uni kim boshqaryapti, aminmanki, qanchasi bekorga isrof boʻlyapti? Sen shularni tekshirib koʻrdingmi? Oʻz suvchilaring aytsin, yoʻq albatta, sen buni qilayotganing yoʻq. Qachon qaramay toʻgʻon boshida, reykanan¹ koʻzingni uzmay oʻtirganing oʻtirgan. Agar, suv rejadan salgina pasaydimi, darhol gidrotexniklarga: menga suv yetmayapti, suv beringlar, deb chopib qolasan. Ammo shu payt pastda qancha suv foydalanilmay, isrof boʻlib oqib yotgani bilan ishing yoʻq. Qanday boʻlmasin, birovning hisobidan boʻlsa ham, koʻproq suv olish payidan boʻlasan, oʻzim boʻlay deysan. Boshqalar suvsiz qolsa ham, senga baribir. Olma pish, ogʻzimga tush, deb doimo reykaning tagida oʻtirasan... Asov otni oʻrgatib mingan kabi suvning ham tizginchilvirini qattiq qoʻlga olmasang, toʻgʻri kelgan tomonga urib ketadi... Buni unutmang Qoratoy, sening oʻming reykaning tagida oʻtirish emas, balki, dalada, suvning boshida, suvchilarning orasida...

Sobirbek borgan sari qizishib soʻzlay boshladi. Uning soʻzlari Qoratoygagina emas, oʻtirganlarning hammasiga

¹ Reyka (*ruscha*: рейка – yassi chorqirra yupqa taxta) – 1) yupqa, ensiz uzun taxta; 2) darajalarga boʻlingan va yer, suv hamda qor qatlamining past-balandligini (chuqurligini) aniqlashda qoʻllanadigan chorqirra yogʻoch (bu yerda shu maʼnoda kelgan).



qattiq botayotganday edi. Suvchilar boshlarini egib, jiddiy qiyofada jimgina o'tirishardi.

Sobirbek «Beshtosh» jamoa xo'jaligida ishlamasa ham, u jamoa xo'jaligini miridan-sirigacha o'rganib chiqqanday gapirardi. «Beshtosh» jamoa xo'jaligida sug'orish ishlariga erta-roq tayyorgarlik ko'rmaydilar. Faqat suv bosib kelgandan keyingina tashvishga tushib qoladilar. Tajribali dehqonlar bunday qilmaydi, ular erta ko'klamdan boshlab taraddudga kirishadi. Sug'orish kartalarini ishlab chiqishadi... Yerga qo'sh tushishi bilan peshma-pesh yangi ariqlar olinib, to'g'onlar tuzatib qo'yiladi, eski ariqlar qazib taxt qilinadi, tajribali suvchilar tanlanib, ularning har biri ma'lum kartalarga birkitib qo'yiladi. Biroq «Beshtosh» jamoa xo'jaligida bunday ishlar qilinmaydi. Qoratoy bo'lsa, bunday ishlar bilan yetarli shug'ullanmaydi, harakat ham qilmaydi.

Qoratoy, senlarga ajratilgan suv ekinlarga yetib bormas-danoq, eski ariqlarda yo'l-yo'lakay qurib, yo'qolib ketmoqda. Shu zaylda ekinlar suv ichmasdan qolib ketyapti, jamoa xo'jaligining olayotgan hosili ham kamayib ketyapti. Bu bilan ish bitmaydi. Hammamizga ma'lum, har bir litr suv uchun jamoa xo'jaligi pul to'laydi. Senlarda bo'lsa, suv yo'lda-cho'lda isrof bo'lib ketgani uchun birgina o'tgan yilning o'zida jamoa xo'jaligi ellik ming so'mdan ortiq ziyon ko'rdi. Butun tuman bo'yicha esa foydalanilmay isrof bo'lib ketgan suv uchun necha minglab so'm zarar ko'rdik. Agarda buning ustiga, sifatsiz sug'orish natijasida hosilning kamayib ketganini qo'shib hisoblaydigan bo'lsak, keltirilgan zarar miqdori o'n baravar, yuz baravar oshib ketishi mumkin. Ey, og'aynilar, buning uchun kim javob beradi? O'zlaring aytinglar-chi, kim javob berishi kerak? Menimcha, avvalo, bunga biz, mana men, mana sen, Qoratoy, suvchilar javob berishimiz kerak. O'zlaring bir o'ylab ko'ringlar-chi, mabodo cho'pon bir uloq yo'qotsa, u uloqni to'laydi. Shunga javob beradi. Agarda bizning suvchilar vaqti bilan yuzlab kubometr¹ suvni isrof

¹ Kubometr (kub + metr) – har tomoni bir metrdan bo'lgan, ya'ni bir kub metrga teng hajm o'lchami.





qilib yuborsalar ham, javobgarlikka tortilmaydi. Axir, o'rtoqlar, bunga chidab bo'ladimi? Suv – bu suvchining boqib yurgan moli. Yaxshi suvchi undan doimo ko'z-quloq bo'lib turadi, har bir tomchisini ham tejab-tergab sarflaydi. Mana shunday hammamiz to'planishib o'tirganda aytadigan taklifim shuki, mehnat kuni suvchilik vazifasi uchun yozilmasdan, balki ish jarayonida foydalangan suvning hisobidan yozilishi kerak, siz qo'shni tumanning vakillaridan mening bu taklifimni hamma yerda quvvatlashlaringni so'rayman... Ot ustida yurib suvchilik qilgan boshqa-yu, suv kechib, jonini jabborga berib ishlagan suvchilik boshqa...

Qoratoy bu so'zlarni eshitib bezovtalanib o'tirardi. Bu ham mayli-ya, ayniqsa Sobirbekning «sen», «sen» deb qo'lini nayza qilib, ko'rsatib gapirgan gaplari uning suyak-suyagidan o'tib ketdi.

– Yer traktor bilan haydaldi. Jamoa xo'jaligi ishchilaringiz bug'doyni ekib, unib chiqishiga ham erishdi. Sug'orish mahaliga kelganda, hammasi bekorga ketdi. Shuni bilginiki, Qoratoy, sen odamlarning mehnatini zoye ketkazding. Uchtepa uchastkasidagi makkajo'xorilar hanuzga qadar biror marta ham sug'orilmadi. Yaxshi unib chiqqan ekinning nobud bo'lishiga nega yo'l qo'yding? Bilaman, sen hozir, bu tepalikka suv chiqmaydi deb aytasan. Biroq u tomonga kun botar betdan ariq olib o'tish mumkin-u, sen bo'lsang bu haqda ertaroq harakat qilmading, bosh ham qotirmading.

Qoratoy o'tirganlarning hammasi o'ziga tikilib qarayatganini sezib turardi. Qoratoy shu payt yer yorilsa-yu, yerga kirib, ko'zdan g'oyib bo'lgisi keldi.

U qaynoq suvga pishib olinganday beti-boshi taram-taram qizarib ketgan edi. Kengash tamom bo'lishi bilan u ijrokomning eshigidan birinchi bo'lib yugurib chiqdi-da, shu bo'yicha otiga irg'ib minib, to'ppa-to'g'ri dalaga qarab chopib ketdi. Biroq u ot ustida ketayotganda ham Sobirbekning so'zlari quloq ostida jaranglab eshitalardi. Go'yo Sobirbek uning orqasidan quvib kelayotganday edi. Qoratoy Uchtepa tomon





chopib borarkan, u hamon kengashda aytilgan gaplarni bir-bir eslab turli xil o'y-xayollarga cho'mardi. Ammo qancha o'y-lamasin Sobirbekning aytgan gaplarini ma'qul ko'rmasdi. O'zini oqlash uchun qanday bo'lmasin, turli xil dalillar izlab topishga harakat qilardi. Lekin shunday bo'lsa-da, topgan javoblari tinchitib, hovuridan tushirmayotgan edi. Qoratoyni iztirobga solayotgan narsa: kengashda gangib qolib, Sobirbekka, hech bo'lmasa, bir og'iz ham javob qaytarolmaganida edi. Mana endi Sobirbek uni burniga sirtmoq solingan tuya kabi o'z izmiga solib oldi. Eh, kallavaram, Sobirbekning bunday ayyorligini sal ilgariroq bilsa, qani edi! Zarba berib, shoxini sindirib, ikkinchi marta og'iz ochmaydigan qilib qo'yardi-ku-ya!

Biroq nima ham deya olardi? Sen, Sobirbek, boshqalarning ishiga aralashmasdan, o'zingni bilaver deb endi aytib bo'larmidi? Endi hech kim u haqda shikoyat qilolmaydi. Sobirbekni butun tuman biladi, u mohir suvchi, eng yaxshi suvchi. Sobirbekning jamoa xo'jaligida beda har yili to'rt martadan o'rib olinadi. Uning jamoa xo'jaligida silosga¹ mo'ljallab ekilgan jo'xorining har bir gektaridan olti yuz sentnerdan hosil olinadi, jamoa xo'jaligi ishchilariga har bir mehnat kuni uchun tuman bo'yicha hammadan ko'p pul, g'alla, go'sht, moy beriladi. Viloyat gazetasi Sobirbek haqida maqolalar bosib, undan o'mak olishga chaqirdi. Bilimi jihatidan ham Sobirbek hammasidan ustun. Ko'pchilik jamoa xo'jaliklarida jo'xorini yer yetilgandan so'ng yoppasiga sug'orishadi deyishadi. Ma'lum bo'lishicha, bu eski usul yaxshi natija bermabdi. Uning fikricha jo'xorini jo'yak-jo'yak qilib zaxlatib sug'orish ma'qul ekan. Shunda hosil ikki baravar ortar emish. Uning aytishicha, agar kanop² hozirgi kunda qonib suv ichsa, sutkasiga 12–14 santimetr gacha o'sishi

¹ **Silos** (ispancha: silos - don saqlanadigan o'ra) - chorva mollari uchun o't, makkajo'xori, kartoshka, kungboqar va shu kabilarning ko'k poyalaridan maxsus yo'l bilan tayyorlanadigan to'yimli yem, ozuqa.

² **Kanop** (ruscha) kenaf (lotincha) kanop. 1) poyasidan tola olinadigan, bir yillik baland o'tsimon o'simlik; uning tolasi; 2) shu toladan eshilgan ip.



mumkin emish. Tavba, har bir o‘simlikni o‘lchab yurganday gapiradi. Qishda sug‘orish masalasini ko‘targan ham Sobirbek emasmi? Yerni qishda ham sug‘orish kerak ekan, shunda yer namlikni yaxshi saqlar emish. Buni eshitib turgan yonidagi bir chol: «Obbo shayton-ey», – deb yoqasini ushlab Sobirbekka tan berayotganini Qoratoy ham ko‘rib turgan edi. To‘g‘ri, Sobirbekning ilmi zo‘r, o‘zi ham ishning ko‘zini biladi, uzoqni ko‘radi!

Qoratoy-chi? U nimalarni biladi? Qoratoy ham suvchilik kasbini Sobirbekdan kam bilmaydi, albatta. Ular ikkalasi ham suvchichilik kursida birga o‘qishgan. Ammo Sobirbekning baxti bor ekan. Ilg‘or jamoa xo‘jaligiga keldi-yu, ishlab, tezda nom chiqardi. Xo‘sh, u «Beshtosh» jamoa xo‘jaligida ishlab ko‘rsin-chi! Uning kimligi shunda ma‘lum bo‘ladi! Dastavval Qoratoy ham ishga zo‘r ixlos bilan kirishgan edi. Uning ham halol mehnat bilan xalq o‘rtasida shuhrat qozonsam degan orzu-umidlari bor edi. Ammo, ish boshidanoq chappasiga ketib, o‘zini o‘nglab ololmadi. Raislar biri kelib, biri ketib tez-tez almashinib turdi. Ana shunday sharoitda yangi takliflarni amalga oshirib, havas bilan ishlab bo‘larmidi... Oylar, yillar o‘tdi. Qoratoy ham bora-bora ishning borishiga qarab ko‘nikib qoldi...

Taqdir ataylab qilganday, ko‘p vaqtlar Qoratoy bilan Sobirbekning turmush yo‘lini bir yo‘ldan boshlab bordi. Ularning qishloqlari ham yondosh edi, yoshligidan bir-biri bilan tanish edilar, keyinchalik o‘spirinlik kezlarida «ShKM»¹ maktabida birga o‘qishdi. Urush paytida ham ular bir batalonda² xizmat qildilar.

Belorussiyada bir poxodda ketayotib, jildirab oqayotgan kichik suvning bo‘yida dam olib o‘tirishganlari hali ham esida saqlanib qolgan edi. Sekin oqayotgan kichkinagina ariqchanning yoqasida soya tashlab turgan butalar, suv ichida o‘sgan qalin qamishlar, musaffo osmon, sukut saqlab turgan tushki

¹ **ShKM** (Школа колхозной молодежи) – kolxozchi yoshlar maktabi.

² **Batalon** (fransuzcha: *bataillon* – jangchilar bo‘linmasi) – bir necha rotadan va maxsus bo‘linmalardan iborat bo‘lgan harbiy qism.



payt, xullas, atrofdagi jamiki narsalar nafasini ichiga saqlab, o'sha sokin oqayotgan suv tinchligini buzmayotganday bo'lib tuyulardi. Shu payt otishmalarning ovozi ham eshitilmay, bir lahzaga urush dahshatlari unutilib, tinchlik hukm surardi. Bunday sukunat og'ushiga cho'mgan askarlarning har biri o'zicha turli xil shirin xayollarga berilardi. Sobirbek etigini yechib qayta kiyayotgan edi, ko'zi suvga tushib tikilib qoldi:

– Eh og'ayni, bizning qadrdon tog' suvlarimiz qanday ajoyib-a. Ularni juda ham sog'indim-da, Qorato'y! – dedi u. – Har bir ariqning suvi o'zicha bir tuganmas boylik ekanini endi payqab o'tiribman. Okopda¹ yotganimda ba'zan suvning shildirab oqayotgani eshitilib turganday bo'ladi... Omon-eson uyga qaytib borsak, albatta, suvchi bo'lamiz... O'shanda sen ham men bilan birga qo'shilib dalaga sug'orishga chiqasan. Axir, dehqonning huzur-halovati o'shanda emasmi? Sening Xonimgulingni ham birga ergashtirib olamiz... Dalaga suvni boshqarib boramiz-da, keyin men sizlarga ashula aytib bera-man. Sug'orishda tilsiz kishi ham kuylamasdan turolmaydi! Yovni yengib, omon-eson qaytsak, tilagim shu!..

O'shandan beri oradan qancha yillar o'tib ketdi. Ularning ikkalasi ham urushdan bir vaqtda qaytib kelishdi, ikkovi ham suvchi bo'lib birga ishlab yurishdi. Qorato'yning og'ir tabiat-liligi va tund mijoziga qaramasdan ular o'rtasidagi do'stlik aloqalari avvalgiday davom etaverdi. Biroq kunlardan birida Sobirbek o'z o'rtog'i Qorato'yning qallig'i Xonimgulni sevar emish, degan so'z chiqib, ovulda mish-mish gaplar tarqaldi. Shu-shu Qorato'yning do'stidan ko'ngli sovib, Sobirbekdan uzoqlasha boshladi.

Qorato'y Xonimgulga uylangandan keyin ham Sobir-bekka ochiq ko'ngil bilan qo'l bergani yo'q. Qorato'y bu haqda qancha o'ylab ko'rsa ham, bir qarorga kelolmay, sabr kosasi to'lib yurdi. Buning sababi ham bor edi, albatta, u sirdan qaraganda unchalik sezdirmay yurgani bilan Xonimgulni

¹ Okop (ruscha: окоп – kovlangan joy) – jonli kuchlar va jangovar texnikani dushman o'tidan pana qiladigan harbiy inshoot.





jondan aziz ko'rardi. Uning ichi torligi ham, rashk qilishi ham shunga yarasha edi: Xonimgulga biror kishi kulib qaradimi, bo'ldi, jonajon do'stimi, tug'ishgan kishisimi – kim bo'lishidan qat'i nazar, zaharini sochib, hazilmi, chinmi, surishtirib o'tirmasdan, qo'lga tushsa shu zahotiyiq jiqqa-mushtlashishdan ham qaytmasdi.

Ilgaridan shubhalanib yurgan yovuz niyatli Qoratoy Sobirbekning har bir bosgan qadamini kuzatib yurib, unga nafrat bilan qaray boshladi. Buni sezgan Sobirbek ham u bilan ko'pdan beri gapirishmas edi. Qoratoy Sobirbekning bunday yurishini ko'rib o'zicha: u Xonimgulni unutmayapti, Sobirbek mening baxtingga chang solyapti, deb sal narsadan gumonsirab yurdi. Bora-bora Qoratoy Sobirbekning mehnatda erishgan yutuqlariga ham hasad bilan qaray boshladi. Sirtidan qaraganda u Sobirbek erishgan muvaffaqiyatlarni nazarpisand qilmay yurgan bo'lsa ham, aslida uni ko'rganda ichidan zil ketib yurardi. To'g'ri, Qoratoy ham Sobirbekdan orqada qolib ketmaslik uchun harakat qildi. Biroq uning ishlari nima uchundir olg'a bosmadi. Bular Qoratoyning qalbini battarroq tirnab-o'rtab, eski qadrdonidan o'mak olishga, yordam so'rashga, unga boshimni egib boramanmi, degan g'urur yo'l bermasdi. Sobirbek bo'lsa o'chakishganday nomi xalq og'zidan tushmay maqtalib, borgan sari obro'-e'tibori ortib borayotgan edi. So'nggi vaqtlarda Qoratoy buni xalq tugul o'z xotinining og'zidan ham eshitib qoldi. Kunlardan birida Xonimgul Sobirbekning surati bosilgan gazetadagi maqolani o'qib o'tirgan edi. Bunga ko'zi tushib qolgan Qoratoy hadeganda sir boy bermay, jimgina turdi-da, so'ng sabri chidayolmay:

– Iye, yana sening Sobirbeking haqida yozishibdimi? Qani, yana nimalar deb maqtashibdi! – deb, rashki kelib, ichidan kuyib borayotganini sezdirmaslikka harakat qilib kulimsirab qo'ydi. Bundan biroz oldinroq Xonimgul dugonalari bilan birga Sobirbeklarning qishlog'ida qo'yilgan kinoga borib kelgan edi. Aytishlaricha, u yerda Sobirbek bilan





Xonimgul yonma-yon o'tirishib, kinoni ham ko'rmasdan, bir-birlari bilan gapirishib o'tirgan emish. Buni eshitgan Qoratoy xotini bilan ochiqchasiga gaplashib olmoqchi bo'ldi, biroq u nari-berini o'ylab: – Bizning ovulimizda shu kungacha klub qurilmaganiga kim aybdor? – dedi-yu, yana shashtidan tushdi.

Boshidan kechganlarini shu tarzda o'ylab borar ekan, Qoratoy Uchtepadagi ekinzorlar tomon qanday yetib kelganini bilmay qoldi. U endi jo'xorilarning qay ahvolda ekanligini o'z ko'zi bilan ko'rdi. Ko'rganlariga ishongisi kelmay, ko'zlarini uqalab-uqalab qo'ydi. Lekin bu bilan manzara o'zgarmadi. Sarg'ish tortib kuyib yotgan bo'z tuproq gugurt chaqsang lop etib yonib ketguday. Jo'xorilar bo'lsa allaqachon quvrab o'tkir quyosh nuriga tob berolmay yaproqlarini naycha singari qat-qat o'rab olgan edi.

Ona-Yer, u ekinga sut beradi, hayot baxsh etadi. Lekin, u hozir yetim bolalardek o'gay qolgan. Uning suti yo'q, egasiz qolgan, jo'xorilar ayanchli ahvolga tushib, baribir, ovozdan: «Bizga suv kerak! Suv! Tezroq bir tomchi bo'lsa ham suv kerak!» deya yalinib-yolvorayotganday edi. Ana shu paytda Qoratoyning yuragi umrida birinchi marta, haqiqatan ham iztirob chekib, zirqirab og'rimoqda edi. Shunda uning quloqlari ostida yana Sobirbekning ovozi jaranglab eshiltiganday bo'ldi: «Sen suvchisan, suv qo'lingda, hosil uchun sen javob berasan. Bilib qo'y, Qoratoy, elning rizqini qiyganing, ter to'kib qilingan mehnatni zoye ketkazganing uchun xalqning uvoli tutadi seni».

Shu mahal ko'ngilni behud qiluvchi garmsel boshlandi. Issiq shamolning quyuq to'lqinlari yer betiga olov purkab, qolgan-qutgan so'nggi namlikni ham so'rib olayotganday Qoratoyning badanlarini kuydirib yondirardi.

– Garmsel! – deya baqirardi Qoratoy jon-jahdi bilan, nafasi bo'g'ziga tiqilib. – Garmsel keldi! – so'ng u otning yoliga mukkasidan yiqilib tushdi-da, o'zicha bo'g'iq ovoz bilan pichirlay boshladi. – Bundan ko'ra, mening suvsiz qolganim yaxshi emasmidi?! Bundan ko'ra, mening chanqab o'lga-





nim ma'qul emasmi?!)

Birozdan so'ng Qoratoy boshini bir chulg'ab oldi-da, o'nqir-cho'nqirlarga qaramay, dala bo'ylab, chang-to'zon ko'tarib ovul tomon ot qo'yib boraverdi. U tizginni bo'sh qo'yib chopib borar ekan, hozirgina ko'chada podani to'sib turgan Xonimgul bilan To'g'onning oldiga yetib keldi-da, otni taqqa to'xtatdi.

III

Tunning birinchi yarmi shu kunlarda odatdagidan qop-qorong'i edi. Oy qorayib ko'ringan tizma tog' cho'qqilaridan kechikib chiqayotgan edi. Sug'orish uchun tun eng yaxshi vaqt. Sobirbek sug'orishning qanday borayotganini tekshirib yurdi. Hamma ish joyida. Suvchilarga kunduz kuni topshiriq berib qo'yilgan, ularning har qaysisiga alohida yer ham taqsimlab berilgan. Endi bo'lsa Sobirbek biror yerga suv chiqmay qolmadimikin deb, marzama-marza yurib sug'orilgan ekinlarni ko'zdan kechirib yurgan edi, bir vaqt:

– Sobirbek, qayerdasay, ho-o-o, Sobirbek qayerdasan! – degan ovoz eshitilib qoldi.

– Men bu yerdaman!

– Suv yo'q! Suv qurib qolyapti! – deya baqirardi haligi suvchi. Sobirbek u tomon chopib borarkan, narigi yoqdan yana qiyqiriq ovozi eshitidi:

– Hoy, suvchi, suv yo'q! Suv qani?

Haqiqatan ham ariqdagi suvlar o'zidan o'zi kamayib qurib qolgan edi. «Katta ariqqa urib ketdimi, nima bo'ldi?» – deganicha Sobirbek katta ariq tomon chopib ketdi... Ariq joyida, boya-boyagiday. Ammo suv kamayganidan kamayib, ariq tubidagi toshlar qorong'ida yiltirab ko'rinib turardi. «Tavba, bu nimasi bo'ldi?» – deb Sobirbek hayron qoldi-da, kanalning biror yerini suv olib ketganmikin degan xayolga borib, birdan cho'chib ketdi. Bo'lmasa bu kanaldan yolg'iz Sobirbeklar emas, «Beshtosh» jamoa xo'jaligi ham suv ichardi, qolaversa,





kanalning urib ketgan yerini bog'lash oson ish emas. Unga qancha kuch, qancha vaqt kerak. Sug'orish qizg'in ketayotgan hozirgi paytda suvsiz qolish bu hosildan mahrum bo'lish degan gap. Nima bo'lsa ham tezroq harakat qilish kerak, deb Sobirbek tun qorong'isiga qaramay, otga yana qamchi bosdi.

Mana, u kanalning boshiga ham yetib keldi. U yerda ikkala jamoa xo'jaligi uchun suv bo'lib berib turadigan katta shlyuz¹ o'rnatilgan edi. Sobirbek otini kanal chetidagi tolga bog'ladi-da, o'zi kanalning tepasiga irg'ib chiqdi va shlyuzning ko'prigi bilan yurib borayotib birdan to'xtab qoldi. Sobirbek katta ariq boshidagi shlyuzning berkitilganini ko'rib o'z ko'ziga ishonmasdi. Kanaldan ariqqa tomon hech bo'lmasa jildirab ham suv oqayotgani yo'q. Qoratoylarning shlyuzi bo'lsa, oxirigacha ko'tarilgan. Suvning hammasi ularning arig'ida sharqirab oqayotgan edi.

«Bu nimasi, buni kim qildi?» – deb Sobirbek o'ziga-o'zi savol berardi-yu, unga javob topa olmasdi. U umrida bunaqa hodisaga duch kelmagan edi. Suvning shovqin solib, sharqirab oqayotganidan Sobirbekning so'zlarini eshitib bo'lmasdi.

– Yo'q, bu yerda qandaydir anglashilmovchilik bor. Bunday bo'lishi mumkin emas. Buni darhol tuzatish kerak!...– der edi Sobirbek o'ziga-o'zi pichirlab.

U otining yoniga borib, hamisha egarining qoshiga bog'lab yuradigan katta klyuchni yechib oldi-da, qaytib kelib o'ziga tegishli suvni ochib yuborayin degan maqsad bilan klyuchni shlyuzning gaykasiga² solib burayotgan edi, yaqin atrofdan birovning haybatli ovozi eshitildi:

– Tegma unga, qo'lingni tort!

Sobirbek yalt etib yon-atrofiga qaragan edi, ko'prikning

¹ Shlyuz (*gollandcha*: sluis < *fransuzcha*: ecluse < *lotincha*: exelusa - to'siq, g'ov; yo'l qo'ymaslik) – 1) kemalarni daryo yoki kanalning suv sathi turlicha bo'lgan bir uchastkasidan ikkinchisiga o'tkazish imkonini beradigan, darvozalar orqali o'zaro tutashgan gidrotexnik kameralardan iborat inshoot; 2) to'g'onlarda suvni qo'yib yuborish yoki bo'g'ish uchun xizmat qiladigan maxsus teshik; to'g'on qulfi (**bu yerda shu ma'noda**).

² Gayka – boltga burab kiritiladigan, mashina va mexanizmlarning qismlarini bir-biriga mahkamlash uchun ishlatiladigan o'rta teshik detal.



ustida qandaydir qanotini yozib yuborgan burgutga o'xshash, ola-bula juldur yopinganday boshini ichiga olib kelayotgan ko'lanka paydo bo'ldi. Uning afti basharasi ko'zga ko'rinmasdi.

- Sen kimsan?
- Qo'lingni tort deyapman!
- Qoratoy, senmisan? U javob bermasdi.
- Bizning suvni sen bo'g'ib oldingmi?
- Menga suvning hammasi kerak!
- Bunday huquqni senga kim berdi?

Qoratoy lapanglagancha ikki sakragan edi, Sobirbekning qarshisida paydo bo'ldi.

- Yo'qol, hozir ko'zimga ko'rinma!
- Qoratoy, aqling joyidami o'zi? Nima deb vaysayapsan?
- Hozir bu yerdan ket! Suvni bermayman dedimmi, bermayman! Uni o'zim uchun emas, jamoa xo'jaligi uchun olyapman! Ekinlar quvrab ketibdi, menga suvning hammasi kerak. Hozir ket, joningdan umiding bo'lsa, bu yerdan hozir ket! Nima qilsang ham suvni bermayman.

- Boshqalarning ekini sug'orilmasdan qolib ketsa maylimi? Bu kurakda turmaydigan so'z. Bu o'g'rilikdan boshqa narsa emas!

- Men o'g'rimanmi? Tilingni tiy! - Qoratoy sakrab borib Sobirbekning qo'lidagi temir klyuchni yulib oldi-da, orqaga bir qadam tisarilib, qulochkashlab turib Sobirbekning boshiga urmoqchi bo'lgan edi, Sobirbek epchillik qilib, Qoratoyning qo'lini ushlab qoldi. So'ngra u qo'liga butun kuchini to'plab, Qoratoyning bilagini qopqon kabi sindirgudek mahkam siqib turaverdi. Nihoyat, klyuch Qoratoyning qo'lidan sho'lp etib suvga tushib ketdi. Biroq Qoratoy hamon yon bergisi kelmadi. Aftidan, u holdan toyib yiqilmaguncha olishmoqchi. Sobirbekni ko'prikning chetiga sudrab borib, suvga itarib yubormoqchi. Buni sezgan Sobirek bir qo'li bilan shlyuzning temiridan ushlab olib, o'rnidan qimirlamay turaverdi. Ular shu zaylda yuzma-yuz olishib, ko'prik ustidan suvga tushib ket-





maslik uchun bir-birini ushlab, yopishishardi. Qadrdon do'st bo'lib yurgan kezlarida ham ular bir-biri bilan bunchalik yaqinlashgan emas edi. Atrof bo'lsa jimjit, qorong'i, biror tirik jon yo'q. Faqat endigina bosh ko'tarib kelayotgan to'lin oy «Bu olishib yotganlar kim bo'ldi», – deganday, qir orqasidan bosh cho'zib qarayotgan edi. Agarda hozir kun qorong'i bo'lmaganida, Sobirbek Qoratoyning quturganday qon to'lgan ko'zlarini baralla ko'rgan bo'lardi, chakkasida bo'rtib chiqqan qon tomirlarini yuragi bilan birgalikda gupullab urayotganini sezgan bo'lardi, uning irvaygan og'izlari murdani eslatardi. Biroq qorong'ida Qoratoyning kuyib-yonayotgan issiq gavdasi, anqib turgan ter hidi va xirillab chiqayotgan so'zlarigina sezilardi.

– Suvni bermayman dedim – bermayman! Bu tunda suvdan men foydalanaman. Ekinlar suvsizlikdan quvrab ketyapti!..

Biroz vaqt o'tgach, Qoratoyning madori qurib, bo'shashgan edi, Sobirbek uni o'zidan nariga itarib yubordi:

– O'ringdan jilma, Qoratoy! Qo'zg'ala ko'rma! – dedi Sobirbek, – oqibat shu edimi? Hosil uchun, birinchilik uchun shunaqa kurashishimiz kerak ekan-da. Sen meni kim deb bilasan?

– Sen menga dushmansan! – dedi Qoratoy entikib xirillab. – Sen menga dushmansan... Sen mening sevgan xotinimga ko'z olaytiryapsan, sen meni sinamoqchi bo'lib yig'ilishlarda yomon ishlaydi, deb ishimni muhokama qilasan. Lekin meni aldayolmaysan, bilib qo'y shuni... Sug'orishda qanaqa qilib ilg'or bo'lib yurganingni ham bilaman, sen mening suvimni ham tuni bilan o'zingga foydalanib yuribsan...

– Nima-nima? – dedi-yu, Sobirbekning tomog'i bo'g'ilib, boshqa so'z aytishga chamasi kelmadi, shekilli, Qoratoyning yoqasini qo'sh qo'llaganicha o'ziga niqtab tortib, shu bo'yi-cha qimirlatmasdan xippa bo'g'ib turaverdi, so'ng qorong'ida uning ko'zidan ko'nglida nimalar borligini bilib olmoqchi bo'lganday, yuziga anchagacha tikilib turdi-da, qandaydir





o'kinch bilan boshini chayqadi:

– Hammasi tushunarli! Men ketdim. Ammo shuni bilgin-ki, sening ariqlaring shuncha suvga chidash berolmaydi... Sen o'zingga-o'zing dushmanlik qilyapsan... Agar bir ho'plam suv bekorga ketsa, keyin o'zingdan o'pkala...

Sobirbek ketgandan so'ng Qoratoy ko'prikning ustida turib, oy nurida oqarib ko'ringan Sobirbekning gimnastyorkasiga¹ anchagacha qarab qoldi. Sobirbek bu to'qnashuvda g'olib chiqqanday boshini baland ko'tarib, ko'kragini kerib, mardonavor odimlab ketayotgan edi, Qoratoyning bo'lsa boshi aylanib, butun vujudi olov bo'lib yonayotgan edi. U hozir o'zini g'oyat kuchsiz, biron adashtirib, yolg'iz tashlab ketgan go'dak singari his qilardi. Shu payt u ketib borayotgan Sobirbekka: «To'xta! Menga suving kerak emas, suvingni ol!» – deb baqirib yuborishiga sal qoldi.

O'z qilmishini to'g'ri deb topish va undan qanoat hosil qilish uchun Qoratoyga yana nimadir yetishmayotgan edi. Kanalning tepasidan chopib tushgan Qoratoy ariq yoqasiga kelib o'tirdi-da, jonimni jabborga berib topgan suv senmisan, deganday tomog'i qurib-chanqagan kishi kabi hovuchlab qult-qult suv ichdi-da, o'zicha nimalarnidir gapirayotgan edi:

– Shoshmay tur, hali men senga ko'rsatib qo'yaman. Endi hamma suv o'z qo'limda... Bu kecha hamma ekinlarni sug'orib olaman. Muddaom shu. Meni o'g'ri deb ko'rsin-chi, men o'g'ri emasman!.. Ular ekinlarini to'rt-besh martalab sug'orib olishgan. Bir kecha suv olmasa olmabdi-da... Bizga bo'lsa hoziroq suv kerak. Mana, yana garmsel esib kelyapti... Yo'q, Sobirbek, bekorlarni aytibsan, bizga olti quloq emas, o'n-o'n besh quloq suv kerak... Uchtepadagi jo'xorilarga suvni o'sha eski ariqlar bilan olib boraman.

Haqiqatan ham ariqda katta suv to'lqinlanib oqayotgan edi. Uning kuchli oqimiga qarab turgan Qoratoyning ko'zlari jimirlab ketdi. Bahorgi toshqin daryo kabi qirg'oqlari bilan

¹ *Gimnastyorka (ruscha)* – tik yoki qaytarma yoqali, ustidan kamar bog'lanadigan ust ko'ylak (rasmiy harbiy kiyim).





to'lib oqayotgan ariq suviga kaftingni solib to'smoqchi bo'lsang, suv go'yo asov toydek sapchib, duch kelgan tomonga olib ketishi mumkin. Suv erkin oqishni yaxshi ko'radi. Agar unga quloq solib tursang, suv o'zining kuchli oqimi bilan ariq qirg'oqlarini kemirib ketib, ko'zga ko'rinmas qumlarni muttasil oqizib borayotgani eshitiladi.

Biroq Qoratoyning xayoli boshqa narsada edi. U bugun qanday bo'lmasin, tuni bilan ekinlarning hammasini sug'orib olmoqchi edi. Suv hozirgacha Uchtepaga yetib borganini, u yerda suvchilar kechadan beri shaylanib, tayyor bo'lib turganini xayolidan o'tkazdi-da, Qoratoy o'rnidan sapchib turib quvonchidan o'zicha miyig'ida kulib qo'ydi. Ha, sug'orish boshlandi! Endi tezroq harakat qilib qolish kerak...

IV

Qalin kanopning qoq o'rtasidagi yolg'izoyoq yo'l bilan chor atrofga nazar tashlab bir ayol kelardi. Uning boshiga bir o'ram qilib bog'lab qo'yilgan oq ro'moli yelkasiga sidirilib tushgan, ko'ylagining yoqalari ochib yuborilgan, qorong'ida ko'ksi oqarib ko'rinib turardi. Bu Xonimgul edi. U shoshilganicha qayergadir ketib borardi. Uyqusidan cho'chib uyg'onib ketgan to'rg'ay yonidan parillab uchib ketgan edi, Xonimgul cho'chib ketib qichqirib yuborishiga sal qoldi va qo'rqqanidan qo'lidagi tugunchani ko'kragiga bosib oldi. Yo'q, u qo'lidagi tugunchani tashlamoqchi emas. Qoratoy ishga bugun ovqat yemasdan ketgan, yana buning ustiga, uning kayfiyati ham buzuq edi. Agar biror hodisa yuz berganini bilganda, Xonimgul Qoratoy uchun jonini berishga ham tayyor edi...

Shu payt allaqayerdan:

– Qoratoy! Qoratoy! Suv urib ketdi! Tezroq kel! – degan kuchli ovoz eshitildi.

Shoshib qolgan Xonimgul o'sha tomonni ko'zlab chopib ketdi. Uch-to'rt kishi, kimligini bilib bo'lmasdi, urib ketgan





ariq yoqasida uymalashib yotgan edi. Ammo Xonimgul ular orasidan Qoratoyni darrov tanidi. U suv o'yib ketgan ariq o'rtasida enkayganicha nimagadir urinib yotgan edi. Qatta ariqdan siqilib oqayotgan kuchli oqim yirtqich hayvon kabi tutqich bermay, qirg'oqni uzib-yulqib, tuproq chiqindilarini o'zi bilan birga oqizib soyga tomon chopardi. Suvning shovul-lab oqayotgan oqimi ichidan dam-badam kishilarning shovqin-suronlari eshitilib qolardi.

– Bo'li!.. Tezroq! Chimni olib kel!.. Toshni bos...

Xonimgulning yetib kelganini hech kim payqamagan edi. Biroq uning qayerdan, qachon kelganiga ham hech kim hech qancha taajjublanmasdi. Xonimgul suv kechib, Qoratoyning oldiga yugurib bordi. Qoratoy unga yalt etib bir qarab qo'ydi-da:

– Chim, chim olib kel! Tezroq! – deb buyruq qildi. Undan keyin nima bo'lganini Xonimgul yaxshi anglamasdi. Boshi qotib, gangirab o'ngimi, tushimi, faqat jon-jahdi bilan chim o'yib yotganini bilardi, xolos. Chimni yerdan ajratib olish qiyin, uni timoqlari bilan uzib olish kerak. Chim juda og'ir bo'lsa ham, Xonimgul uni tashlamay, bola ko'targanday quchoqlab ko'kragiga qisib, Qoratoygga olib kelardi. Qoratoy bo'lsa xotiniga biron nima demasdan bo'g'ilib xirillardi. Shu choq narigi tomondan birovning qichqirgan ovozi eshitildi:

– Nima? Nima bo'ldi?

– Tezroq, tezroq bo'linglar! Suv olib ketyapti!.. – Muskul-lari temirday bo'rtib chiqib, hansirab, bir-birovlarini turtishib suv bilan olishib yotgan odamlar orasidan ayolning horg'in ovozi quloqqa chalindi. Xonimgulning oyog'iga tosh tushib ketgan edi. U oyog'ining og'rig'iga chiday olmasdan «voy jonim», degancha tishini tishiga bosib, suvning ichida o'tirib qolgan edi, narigi yoqdan Qoratoyning «bo'linglar», degan buyrug'ini eshitib, o'midan irg'ib turdi. Shu zahoti bir narsa qirs etib ketdi. Nima bo'ldi, oyog'i sindimi?.. Qoratoyning qoqayotgan qozig'i sinib ketgan edi...

Ko'zlari jimirlab tinib ketdi...





- Baribir, bo'lmaydi!
- Nega bo'lmaydi?
- Eski ariq eski ko'ylak singari, bir joyini yamasang, ikkinchi yeri yirtilaveradi.
- Bas qil!
- Bundan chiqdi, ishlab o'lgin deb qo'ya qol?
- O'!

Yana shiddatli kurash davom etadi! Suv – bu tilsiz yov. U bostirilgan tosh va chimlarning ostidan otilib chiqib, hamma yoqqa toshib, buzib borayotgan edi. Uni jilovlab bo'lmadi... Qo'llarining tobora madori qurib, yuzlaridan nomakob ter quyilardi... Suvchilar Qoratoydan norozi bo'lib, uni ko'rishga ko'zi yo'q edi...

- Shu ham ariq bo'ldi-yu, ichidagi cho'p-xasiga o'ralashib yiqilasan kishi... Yana undan suv qanday oqsin...

- Ariqlarni durustroq qazitmay rais bilan suvchi nima qilib yuribdi...

- Bularning hammasiga Qoratoy aybdor, ikki o'rtada na o'ziga, na o'zgaga qildi...

- Tekin tomoq yurakni og'ritadi!

Bu so'zlarni Xonimgul ham eshitib turgan edi. «Ular nima deyishyapti, Qoratoy biror qaltis ish qilib qo'ydimi?» – deb qo'rqib ketdi.

Suvchilardan biri jahl bilan baqirdi:

- Bas endi, suvni ochib yubor!

Kimdir birov suvni ariqqa tashlab yuborish uchun shlyuz tomon yugurib ketdi. Qoratoy bo'lsa, bir-ikki sakrab yetib keldi-da, uning yo'lini to'sdi.

- Senga kim aytdi suvni tashlab yuborsin deb? Hoziroq izingga qayt! Javobini o'zim beraman!

- Nimaning javobini berasan? Birovlarning suvini ochib olib, ariqlarni buzib yuborganingnimi?

Qoratoy lom-mim demasdi. Qovoq osgan bo'yicha qarshilik ko'rsatmoqchi bo'lib to'planib turgan suvchilarga tomon qo'lidagi ketmonini salmoqlab yaqinlashib bordi.





Haligi so'zlarning ma'nosini, kuyovining qilmishlarini Xonimgul endi aniq anglab yetgan edi.

Qoratoy suvchilarga g'azab bilan tashlandi:

– Ishni tashlab ketishga kim ruxsat berdi?

– Ko'p baqiraverma! Yaxshilik bilan suvni ochib yubor!

– Sen o'g'irlagan suv uchun biz javob bermaymiz!

– Ochib yubormayman! – deb baqirgan Qoratoy joni bo'g'ziga kelib, ketmon ko'tarib suvchilarga hamla qildi.

Shu zahoti suvchilardan biri uni o'z ketmoni bilan to'sib qoldi, ketmonlar bir-biri bilan to'qnashib, qorong'ida olov uchqunlari chaqnadi. Suvchilar ko'plashib Qoratoyni bosib yiqitib, qo'lidagi ketmonini tortib olishdi. Qoratoy shunda ham tinchlanmasdi. U oldida turgan odamlarni boshi-ko'zi demasdan sola boshladi.

Boshqalar uni ushlab qo'lini orqasiga qayirishgan edi. Qoratoy qo'ldan chiqib ketib, ikki-uch qadam nariga borib yiqilib tushdi. Biroq yana o'midan tura solib, quturgan hayvon kabi olishib ketdi.

Hang-u mang bo'lib qolgan Xonimgul tili kalimaga kelmay, majoli qurib, o'sha o'tirgani bo'yicha o'tirib qoldi.

– Voy, bu qanday mudhishlik! – deganicha Xonimgul mushtlashib yotganlarni ajratmoqchi bo'lib, o'zini ularning orasiga otdi. Gandiraklab holdan ketgan Qoratoyni oldini to'sib, urayotgan odamlardan uni himoya qila boshladi:

– Qo'yinglar, sadag'ang ketaylar, hoy bu nima qilganlaring, bola bo'lyapsizlarmi, qo'yib yuboringlar! – deb Xonimgul yiqilib-surilganicha Qoratoyni ajratib olishga talpinardi. Ko'ziga qon to'lib, jon talvasasida olishayotgan Qoratoy ayoliga bo'y bermay, uni qayta-qayta siltab tashladi. Shunga qaramay Xonimgul o'zini qorong'ida mushtlashib yotgan olomon orasiga otib suvchilarga yalinib-yolvordi:

– Qo'ysalaring-chi, ayb sizlarda emas... Qo'li bilan qilgan, boshi bilan javob beradi. Bunga Qoratoyni o'zi javob bersin, sizlar ketaveringlar... Ketinglar hozir... Urmanglar deyapman!





– Hoy, urishni kim boshladi? Uning o‘zi emasmi?
– Boshlagan bo‘lsa, boshlagandir, o‘chlaringni mendan olinglar, undan ko‘ra, meni uringlar.

– Nega seni urar ekanmiz... Hozir ketamiz, bu yerda yotib qoladigan odam yo‘q. Biroq biz buni shu bo‘yicha oqibatsiz qoldirmaymiz. Tegishli joyda gapirishib olamiz... «Ko‘ramiz! Hali iya kengashiga, boshqarmaning oldiga ham boramiz!» – degancha suvchilar ketmonlarini yelkalariga tashlab, ovulga yo‘l olishdi.

Qoratoy bo‘g‘iq ovoz bilan:

– To‘xta! Orqaga qayinglar, hozir qayinglar! – deb bo‘yniga osilib olgan Xonimgulni sudrab, ular tomon intilardi.

Suvchilar to‘xtamadi, unga javob ham qilishmadi. Birozdan so‘ng ular qorong‘ida g‘oyib bo‘lishdi.

Boyadan beri olishaverib holdan ketgan Qoratoyning esi og‘ib, butun vujudi titrab-qaltirab, qo‘llari lattaday shalvirab qolgan edi. Dala ustidan go‘yo momaqaldiraq guldurab o‘tib ketganday atrof jimjit.

Dimiqqan iliq tun mayin tortib qizib yotgan yer betiga salqin tushayotgan edi. Ariq bo‘ylab tig‘iz o‘sgan surgi o‘simligi bilan sariqbosh o‘simliklarning o‘tkir hidi havoda anqib turardi. Kanal tarafdan qurbaqalarning qurillashi elas-elas eshitilib turardi. Narigi yoqda esa qalin butazor oralab ona tuya o‘tlab yuribdi. U bo‘talog‘ini erkalab, cho‘ziq ovoz bilan o‘ziga chorlardi va yantoq poyalarini kirtillatib chaynardi.

Ha, tabiat odatdagiday tinch, o‘z maromida, uning osudaligini faqat birgina narsa – ariqning sharillab oqayotgan suvi buzmoqda edi. Kichkinagina kamarchadan kuch bilan otilib chiqayotgan suv soy bo‘ylab sharqirab oqmoqda. Qoratoy boshini quyi solib, o‘rtanib yotgan yuragini to‘xtatolmay kamardan pishqirib qaynab chiqayotgan suv kabi entikib, og‘ir nafas olardi. Uning «dik-dik» urayotgan yuragi kuyovini quchib turgan Xonimgulga go‘yo o‘z qalbi urayotganday aniq sezilib turardi. Mana, suv so‘nggi tosh va chimlarni ham surib





oqizib bormoqda. U o'chakishganday, avvalgisidan ham kuchliroq sharillamoqda.

– Buni men yolg'iz o'zim uchun qildimmi? – deyardi Qoratoy o'z-o'zicha, kimga yuzlanishni bilmay. – Yo'q, jamoa xo'jaligini deb qildim... Suv bo'lmasa... Ekin maydoni yildan yilga kengayib borayotgan bo'lsa...

Xonimgul kuyovining bu nolishini ko'rib, yuragi tovlanib ketdi:

– Hechqisi yo'q, Qoratoy, ko'p xafa bo'laverma! – deyardi Xonimgul kuyovining qulog'iga shivirlab.

Qoratoy bir xo'rsinib, Xonimgulni quchoqlab turgan qo'llarini ajratib, uni nariga itarib yubordi.

– Ket bu yerdan! – dedi u zarda bilan qahri kelib. – Ko'zimga ko'rinma, yo'qol!

Xonimgul biron narsa demasdan jimgina qayrildi-da, odimlab ketdi. U yurib borarkan, yo'l-yo'lakay quvraylarning boshini chimchib, ularning achchiq donlarini kaftida uqalab, yerga sepib borardi.

Yolg'iz qolgan Qoratoy yana biroz o'tirdi-da, so'ng to'g'onni ko'zlab yurib ketdi.

V

Tong ham ota boshladi. Tog' yon bag'irlariga o'rnamshib olgan pag'a-pag'a yengil bulutlar uyqudan sekin-asta bosh ko'tara boshladi.

Qoratoy bo'lsa yerda chalqancha tushib yotgan edi. Hozir u yerni quchoqlaganicha yolg'iz yotardi.

Yer hammasini tushunadi, odamning sevinch-quvonchiga ham, qayg'u-alamiga ham sherik bo'lishi, o'z bag'riga singdirishi mumkin. Mana, hozir ham chuqur xayollar og'ushiga cho'mib o'tgan voqeani eslayotgan Qoratoyning tinchini buzgisi kelmaganday, sekin-asta yorishib kelayotgan tong shu'lasi yer betiga to'shalib, yuqoridan esayotgan mayin shabada uning zirqirab-qaqshab og'riyotgan tanasi, qavarib





ketgan qo'llari uzra girdikapalak bo'lardi. Qoratoy yotgan yerga yana kimdir birov sharpasiz yaqinlashib keldi-da, uning yoniga o'tira qolib, Qoratoyning boshlarini, kiftlarini silay boshladi. Bu iliq qo'llar Qoratoy uchun g'oyat yaqin, g'oyat yoqimli tuyulardi. Qoratoy zarracha bo'lsa-da, qo'zg'alishdan qo'rqardi; go'yo sal qo'zg'alsa bu orombaxsh lahza, jon ato qilgan baxt qushi parvoz qilib, uchib ketib, ikkinchi marta qaytib kelmasdek bo'lib tuyulardi.

«Qadringga yetmadim, Xonimgul, – deb o'ylab yotgan edi u. – Sening tabiatingni tushunmasdan pastlik qildim. Kechir meni, yuzingga qanday qarayman endi. Baxt-tole degan narsa faqat uyda, o'choqning boshidagina emas, balki, el bilan, jamoaning mehnati bilan chambarchas bog'liq ekanini o'zing ham tushungan bo'lsang kerak...»

– Qoratoy, o'rningdan tur, Sobirbek kelyapti! – deb shivirladi Xonimgul. Qoratoy boshini salanglatib o'rnidan turdi.

– Ma, dalada qolib ketibdi, boshingga kiyib ol, – deb Xonimgul unga qalpog'ini uzatdi. Qoratoyning changga botgan ust-boshini qoqib, ko'ylagining yirilgan joylarini to'g'rilab, qistirib qo'ydi.

– Men uyga ketaverayin, sen keyin borarsan... Oting qo'rg'onning narigi yog'ida tushovli yuribdi, – dedi Xonimgul ketib borayotib. Sobirbek ariqni yoqalab sekin kelayotgan edi. U ba'zan uzangiga oyoqlarini tirab, otining jilovini tortib, atrofga nazar tashlab borardi. Balki, u yangi ariqning qayerdan tushishini mo'ljallab yurgandir.

Qoratoy jimgina qarab turardi.

Do'st oldida javob berishdan ko'ra dushman qo'lida o'lgan yaxshi emasmi?!

1954-yil

Ruschadan Asil RASHIDOV tarjimasida





OQ YOMG'IR

(hikoya)

Yuksak tog' qoyalaridan esayotgan muzdek shamol qorong'i daralar ichidan kuch bilan otilib chiqib, tog' etaklariga ravona bo'lardi. Pastda ovul uyquga cho'mgan.

Atrof jimjit, derazalardan ko'rinib turgan chiroqlar sekin o'cha boshladi. Qirov qoplab, endigina ochilay deb turgan bahor kurtaklari, oy shu'lasida g'ira-shira kumushdek tovlanib turardi. Faqat shamolning tomga yopilgan qamishlarni shitir-latgan tovushi bilan uyqu aralash uligan it ovozi eshitilardi. Uzoqlardan esa tog' daryosining shovullashi va motorlarning guvullashi arang quloqqa chalinardi...

Qorong'ida ovul chekkasidan ikki kishining gavdasi tez yaqinlashib kelmoqda edi. Ana ular, qadamlarini sekinlatib to'xtashdi...

– Endi, bu yog'iga o'zim... Rahmat, – ayol kishining ovozi eshitildi.

– Kel, kuzatib qo'ya qolay, tag'in itlar talab yurmasin, – javob berdi erkak kishining ovozi.

– Men itlardan qo'rqmayman...

– Shunday bo'lsa ham...

– Yo'q, Qosimjon, sen ishga kechikib qolasan.

– Hali vaqt bor, ulguraman, – Qosimjon gugurt chaqdi. Miltillagan alanga bir lahzada qorong'ida katak ro'molli qiz bilan egniga sportchilarning charmli kurtkasini, oyog'iga esa kirza etik kiyib olgan yosh yigitni o'z bag'riga tortib olmoqchi edi.

– O, Saodat, hali yana rosa ikki yarim soat vaqt bor, – dedi u, soatiga qarab.

– Hojati yo'q, Qosimjon, boraver... Biror kishi ko'rib qol-





gudek bo'lsa, gap qilishadi. Bundan tashqari, men juda bezovtalanayapman. Onam nega chaqirtirdi ekan?.. Tobi qochib qolgan bo'lsa-ya?

– Ha-a, agar shunday bo'lgan bo'lsa, uni yolg'iz qoldirish mumkin emas. Lekin sen ko'pam siqilaverma, bir ilojini qilarmiz...

Ular yana biroz turishdi-da, so'ng ajralishdi: Saodat – uyga, Qosimjon bo'lsa, tog' tomonga yo'l oldi. Biroz yurgach, u orqasiga qaradi.

– Agar biror narsa bo'lsa xabar qil... Men kutaman.

– Yaxshi, – bo'g'iq ovozi bilan javob berdi Saodat. U ham bir necha qadam yurgandan so'ng to'xtadi-da, orqasiga qaradi. Qosimjon ko'rinmas edi. Zim-ziyo kecha. Saodat uyiga oshiqdi. U uyiga qanchalik yaqinlashib borar ekan shunchalik qadamini tezlashtirar edi. Oxiri Saodat sabri chidamay yugurib ketdi. Uning miyasi turli xayollar bilan band edi.

Xayolida xuddi u hozir yugurib borib eshikni ochadi-yu, ko'zlari xiralashib, to'shakda yotgan kasal onasini ko'rayotganday edi. «Ona, qadrdonim, qimmatli onam», deb qichqirib yuborgudek bo'ldi Saodat, lekin ovozi chiqmadi.

Mana tanish darcha ham ko'zga tashlandi. Birdan o'ziga qarshi kelayotgan qandaydir soyaga ko'zi tushdi.

– Senmisan, Saodat? – so'radi onasi.

– Nima qildi, opa?

– Shunday kechada yolg'iz o'zingmisan?

– O'zim,– dedi Saodat, yolg'on gapirib.

– Seni qara-ya, xudoning o'zi asrabdi, – qo'llarini ishqalab qo'ydi Zaynab opa. – Shunday ham bo'ladimi.

– Yo'q, men yo'lovchi aravada keldim, – darrov o'ylab topdi Saodat.

Qizini quchoqlaganicha Zaynab opa yig'lab yubordi:

– Kutaverib holdan toydim. Ko'zlarim teshildi. Kech ham kirdi, sendan hamon darak yo'q. Yo'lda biror hodisa ro'y berdimikan, deb xavotir oldim. Kutib olish uchun endi o'zim yo'lga chiqmoqchi bo'layotgan edim.





– Senga nima bo'ldi, opa, biz o'tgan hafta ko'rishgan edik-ku.

Saodat traktor brigadasida¹ pritsepchi² bo'lib ishlardi, u butun yoz bo'yi dala shiyponida istiqomat qildi. Shuning uchun ham u har gal uyga kelganda Zaynab opa uchun haqiqiy bayram bo'lar edi. U qizini shunday sog'in ar ediki, bunday vaqtlarda uning oldidan bir qadam ham jilmas edi. Ular o'choqqa birga o't qo'yishar, ro'zg'or tashvishlari bilan band bo'lishardi – biri xamir qorsa, ikkinchisi go'sht pishirar, Saodat sigir sog'sa, Zaynab opa uning yonida turib, atala pishirardi. Gap deganning keti uzilmasdi. Zaynab opa xizmat qilayotgan jamoa xo'jaligida ham, Saodat ishlayotgan traktor brigadasida ham yangiliklar ko'p. Saodat qachon ariq bo'yiga bormasin, Zaynab opa darcha oldida turib unga tikilganicha kuzatib qolardi. Ona o'z qizining bo'yga yetib qolganiga sira ishongisi kelmasdi. U Saodatning to'lishgan, xushbichim yag'rinlariga mehr bilan qarab turardi. Saodat mayda ko'zli kumush bilaguzuk taqib olgan tiqmachoddek bug'doymag'iz qo'llari bilan obkashni mahkam ushlaganicha epchillik bilan chiroyli qadam tashlab kelardi. Uning bir tekisda nafas olishi ko'y lak burmalarini xiyol qabartib ko'rsatardi.

– Qo'zichog'im, ko'zimning oq-u qorasi, nima desang ham o'zing bilasan, lekin sen bilan maslahatlashmasdan shunday qarorga keldim, – o'zicha tasavvuridan o'tkazardi ona.

Bugun ona-bola har qachongidan ko'ra xursand, bir-birlariga mehribon edi. Saodat onasining behuda chaqirmaganini, unga qandaydir bir muhim narsa aytmoqchi ekanini sezib turardi. Haqiqatan ham Zaynab opa bu gapni aytish uchun ko'pdan beri tayyorlanib yurardi.

¹ **Brigada** (*fransuzcha*: brigade < *italyan*cha: brigata – otryad, odamlar guruhi, qo'shin) – bir necha polk, batalon yoki diviziondan va maxsus qo'shinlar bo'linmalaridan. dengiz flotida esa bir necha turdagi harbiy kemalardan iborat harbiy-taktik qo'shima; 2) mehnatning muayyan bir turini birgalikda bajarish uchun tuzilgan va ish natijasi uchun umumiy javobgar bo'lgan jamoa, mehnatchilar guruhi (**bu yerda shu ma'noda**).

² **Pritsep** (*ruscha*: прицепить – tirkamoq, ulamoq) – o'ziyurar transport vositalariga tirkalgan arava (motorsiz vagon, platforma); traktorga tirkalgan mashina, qurol.

Keyingi kunlarda qizining ko'ngli nimagadir g'ash edi. Buning sababi nimada ekan?

Erta bahor kunlarining birida sal-pal qor yog'ib turgan edi, Saodat halloslaganicha uyga yugurib keldi.

– Opa!–hayajon bilan qichqirdi u ostonadan, – komsomol¹ brigadasi keldi!

– Qanaqa brigada?

– E, bilmaysanmi hali, MTSdan² komsomollar brigadasi. Komsomollar yangi yerda ishlashmoqchi. Ularni o'z ko'zim bilan ko'rdim, opa, mashina va traktorlarda tegirmonning yonginasidan o'tib ketishdi. Ular o'zlari bilan omoch va seyalkalar³ ham olib kelishyapti.

«Muncha u bezovtalanadi?»– hayron bo'lib qoldi shunda Zaynab opa. – Nima bo'libdi, kelsa kelishibdi-da».

Qizi hamon kuyib-pishib gapirayotgan edi:

– Men ularni qayerni haydashini bilaman, opa. Bizga u yer juda ham yaqin. Tog'oy akaning aytishicha, ular bu yil «Eski o'tov»ning hammasini haydashar emish.

Oradan bir necha kun o'tgandan so'ng Saodat MTSga pritsepchi bo'lib ishga kirish uchun onasidan ruxsat so'radi. Zaynab opa qizini uydan chiqarishga hech ko'ngli yo'q edi, lekin Saodatning o'jarligi, o'z aytganida turib olishini bilgan ona biroz bo'shshdi.

– Bu yil pritsepchi bo'lib ishlayman, keyin esa bizni traktorchilikka o'qitishadi. Axir men, komsomol majlisida so'z berganman, so'zimdan qanday qayta olaman.

Biroq ishga Saodatning amakisi Tog'oy aka aralashmaganida bu bahona onaga ta'sir qilishi gumon edi.

– Yoshlarning ko'nglini o'ksitma, hamma narsa ularga ayon, mayli, borsin! – maslahat solardi u onaga. Saodat ham ketdi. Lekin ko'p o'tmay ona qattiq pushaymon bo'ldi.

¹ **Komsomol** (ruscha: «Коммунистический союз молодежи») birikmasining qisqartmasi) – Sobiq Ittifoq davrida kommunistik Yoshlar uyushmasi.

² **MTS** – mashina-traktor stansiyasi.

³ **Seyalka** (ruscha) – urug'larni ma'lum chuqurlikda bir tekis ekish, ekinlarni o'g'itlash ishlariga mo'ljallangan qishloq xo'jaligi mashinasi.



U ko'rdiki, endi Saodat faqat unikigina emas, balki, yana qandaydir qudratli bir kuch uni kundan kun o'ziga tortayotgan edi.

Ba'zi vaqtlar uning nazarida Saodat o'zidan ko'ra aqlliroq tuyulardi. Bu qiz bola uchun ortiqcha emasmikin? Ko'plar o'tishi bilan Saodatda onasi tushunmaydigan qandaydir o'zga cha tashvishlar orta bordi. Nima uchun Saodat unga kelgandan so'ng onasini naqadar sog'ingan bo'lishiga qaramay kallai saharlab turib, sal tong yorishi bilan yana brigadaga oshiqadi?

Qiziq. Saodat ba'zan vazmin, ishchan, erkalik qilib onasiga suykalanar, ba'zan esa birdan ko'z oldi qorong'ila-shib, onasidan ajrab qolgan bo'taloq singari g'amgin bo'lib qolar va xomushlanib, jimgina o'tirardi.

– O'z ishingdan xursandmisan, Saodat? – go'yo hech narsani sezmagandek so'rardi Zaynab opa. – Brigadalarigizdagilar qanaqa odamlar o'zi?

– Juda xursandman! – har vaqt javob berardi Saodat va hayajon bilan o'z o'rtoqlari haqida hikoya qilishga kirishib ketardi. Ular uzoq yerlardan kelishgan, mashinani ham yaxshi bilishadi. Hatto shundaylari ham borki, ular mashinalarni zavodda o'zlari yasaganlar. «Qani, men ham o'shalarday bo'lsam» derdi Saodat, ko'zlari chaqnagan holda. Shunday paytlarda u onasi uchun qandaydir begona va tushunib bo'lmaydigandek tuyulardi. Saodat onasining ko'zlaridagi bu tashvish alomatini sezmasdan, o'zini hayajonga solayotgan hamma narsa haqida, komsomol majlisi, devoriy gazeta-yu, ishyoqmas, dangasa traktorchini qayerdan sudrab kelganliklari haqida va yana boshqa ko'p narsalar haqida gapirayotgan edi. Lekin Zaynab opa bularning hammasini ham tushunvermasdi.

Ular birga choy ichishdi. Saodat dasturxonni yig'ishtirib, piyolalarni yuvib, tokchaga olib qo'ydi. Yotish vaqti ham bo'ldi. Biroq Zaynab opa Saodatga diqqat bilan qaraganicha hamon namat ustida o'tirardi.

– Menga yaqinroq kel, qizginam, o'tir, – o'z yonidan joy





ko'rsatdi u. – Sen bilan gaplashib olmoqchiman...

– Gapir, opa, qulog'im senda.

Zaynab opa o'z fikrlarini jamlab, gapni nimadan boshlashni bilmay anchagina turib qoldi.

– Sen mening ko'z ochib ko'rgan yolg'iz qizimsan, Saodat, – dedi u qizining yuziga tikilib. – Sen mening ham o'g'limsan, ham qizimsan. Mening sendan boshqa hech kimim yo'q. Sen menga oson deb o'ylaysanmi? – Onaning ko'zlarida yosh tomchilari paydo bo'ldi. – Faqat ishda biroz unutaman, uyga keldimmi... yolg'izlik yuragimni yondirib yuboradi... Qayerda qoldi ekan, biror narsa bo'ldimikan, sog'mikan... Ishing ayollar qiladigan ish emas, Saodat. Qiz bolaning plug ustida o'tirishi nimasi... Bu ishingni qo'y, uyga kel... Jamoa xo'jaligida ish oz emas.

Zaynab opa ko'z yoshlarini artib og'ir xo'rsindi. Uning nima demoqchi ekanini shu gaplarning o'zidanoq payqab olish mumkin edi. Lekin Saodat onasi asosiy gapni aytmaganini sezib turardi.

– Nima, dala shiyponimizda qizlardan yolg'iz o'zimanmi? Axir, bizning jamoa xo'jaligida boshqa qizlar ham bor-ku. MTSda yana qanchasi bor! Buning ustiga ular ishda erkaklardan qolishmayapti. Nima uchun men ishni tashlashim kerak ekan?

– Sen ular bilan teng bo'lma! – Zaynabning jahli chiqdi.

– Ular ota-onalarining yakka-yu, yolg'iz bolasi emas.

Saodat onasini mahkam quchoqlagancha ko'ksiga bosib qotib turdi. Unga rozi bo'lishdan boshqa gap ham bo'lishi mumkin emas edi.

– Yaxshi, opa, sening aytganingcha bo'lsin. Biroq menga u yerda yana biroz bo'lishga ruxsat ber. Hademay bahorgi ekish ham tugaydi, o'shanda butunlay qaytib kelaman. Juda oz vaqt qoldi, sabr qil, opa...

Onaning ko'ngli tinchidi. Yotish vaqti ham bo'ldi. Ko'zi endi uyquga ketgan edi, qandaydir shitirlagan ovoz eshitildi. Zaynab opa ko'zini ochdi va Saodatning turib sokin deraza





tomon borayotganini ko'rdi. Oyning ko'kimtir nuri qizning boshi va yelkalarigacha yoritib turardi. Saodat bezovtalanib onasiga qaradi, so'ngra sekingina deraza oldiga bordi-da, tizzasini qo'llari orasiga olib sukut saqlab o'tiraverdi. Aftidan, u nimalarnidir o'ylayotganday asabiylashib, ko'ksiga tushib turgan sochlarini yulqib tortardi.

«Nega uxlay olmayapti?» – onaning yuragi yana xavo-tirdan zirqiray boshladi.

Saodat deraza oynalariga yaqinroq o'tirib, tog' yon-bag'rida ishlayotgan traktor chiroqlarining ahyon-ahyonda yonib o'chayotganini tomosha qilib o'tirdi. Uzoqdan eshitilayotgan motorlarning guvullashiga zavq bilan quloq solardi. Traktorlar go'yo yaqin atrofda ishlayotgandek ularning shovqini goh yaqinlashar, goh qiz diqqatini o'ziga jalb etganday uzoqlarga ketib qolardi.

«Traktorga quloq solyapti», – o'zicha o'yladi Zaynab opa va u ham doim shu guvullagan ovozni eshitadigan bo'ldi. Uning qizi ham o'sha yerda, dalada ishlaydi, Saodat uyda bo'lmagan paytlarda esa ona shu guvullagan tovushni eshitib, ko'ngli biroz tinchiganday bo'ladi. Ha, qizi deraza oldida behuda o'tirgani yo'q. U butun vujudi bilan o'sha yerda, traktorlar zo'r berib shudgor qilayotgan yerda o'tirardi. Buni Zaynab opa yaxshi sezardi.

Saodat uzoqdagi chiroqlarga boqib turar ekan, nazarida o'tkir plug tishlari qo'riq yer qatlamlarini qiya qilib, mayin tuproqlarni taram-taram ag'darib borayotganini ko'rib turganday bo'ldi. Qachonlardan beri inson qo'li tegmagan edi bu yerlarga.

Mana endi ular Qosimjon bilan birga inson qadami yetmagan, qarovsiz yerga birinchi bo'lib jon kiritmoqdalar. Endi bu yerda ekinlar boshhoqlaydi. Hademay yo'llar tushadi. Qadimda ko'chmanchilar ko'chib yuradigan «Eski ko'chman-chi» vodiysidagi tog' oralig'ida uylar qad ko'taradi, shunda odamlarimiz kelgan kishilarga faxrlanib: «Mana shu daladan o'tsangiz molxonani ko'rasiz, undan narida ko'cha bor, xuddi





ana shu yer bizning jamoa xo'jaligi bo'ladi» deyishadigan bo'ladi. – «Ha, buning hammasini o'z qo'limiz bilan yaratganmiz!» – o'ylardi Saodat ko'ngli quvonchga to'lib. Axir, bu chinakam baxt emasmi, butun hayotingni unga bag'ishlasang, arzimaydimi?!

Yorqin quyosh ostida jimirlab yotgan ko'kimtir shudgor uning ko'z o'ngidan o'tdi. Saodat ana shu iliq bug' bilan to'yib-to'yib nafas olardi. Yerning namiqib anqigan hidi uni o'ziga chorlardi. Oh, qanday yoqimli...

O'tloqning narigi boshiga borib qaytishda Saodat tezda plug richaglarini¹ almashtiradi. Oynadek yaraqlagan plug tishlari yer bag'ridan ko'tariladi. Ularning har birida quyosh nuri akslanib turardi.

Traktorni qaytara turib, Qosimjon unga qarab kulib qo'yardi. Saodat esa:

– Bo'sh kelma, Qosimjon! Bugun birinchilikni olamiz! Bo'sh kelma!..

«Qosimjon... uchrashganimiz qanday yaxshi bo'ldi, birga ishlayapmiz! Men dunyoning narigi burchiga bo'lsa ham orqangdan borishga tayyorman», – shivirlardi Saodat o'zicha.

Zaynab opaning ko'ngli xavotirda edi. Nima qilarini, qiziga deyishini bilmay og'ir xo'rsinib, ikkinchi yonboshiga o'girilib yotdi. Saodat seskanib ketdi. Ancha vaqtgacha gapirmay jimgina o'tirdi, so'ng onasi tomon bir qarab oldi va ohistagina karavot oldiga keldi-da, yotdi. Biroq qiz ham, ona ham uxlay olmadi. Ularning har biri o'z xayollari bilan band edi.

Zaynab opa qizining bo'yga yetib qolganini va uning kelgusi taqdiri haqida harakat qilish zarurligini o'ylardi. Agar o'z ovulimizdan biror munosib yigit topilsa, u vaqtda qizi doimo o'z qanoti ostida bo'lardi. Agar kuyov yolg'iz bo'lsa yana yaxshi – ichkuyov qilib olardi. Qiz, hatto sep tayyor ekanidan hali xabarsiz edi. Turli xil kigizlar tayyor, faqat cho-

¹ **Richag** (*ruscha*; to'qmoq, so'yil, gavron) – 1) biror tayanch nuqtasiga ega bo'lgan va oz kuch bilan katta kuchni muvozanatga keltiradigan oddiy qurilma; 2) biror ishni bajarish, boshqarish uchun xizmat qiladigan dastali pishang.



dir sotib olish qolgan edi.

Saodat esa Qosimjon haqida, u bilan birinchi uchrashganlari haqida o'ylardi.. O'sha kezlarda ular bir agregatda ishlashar edi. Har gal ham traktor to'xtaganda Qosimjon uning oldiga kelib so'rardi:

– Sen charchamadingmi, Saodat? Biroz damingni ol. «Nega muncha menga yopishib oldi u? – Jahli chiqib derdi Saodat. – Nima, men yosh bolamanmi?»

Agar Qosimjon undan ahvol so'ramasa, Saodat yana achchiqlanardi: «Nega u biron narsa demaydi? Xafa bo'ldimi yoki men uning joniga tegdimmi?»

Kunlardan birida ular qo'shni chegaraga yaqin joydagi eng baland qoyaga chiqmoqchi bo'lishdi. Saodat o'sha kunni hech qachon unutmaydi. Tik qoyaga ko'tarilish qancha qiyin bo'lmasin, lekin ular charchashni ham unutib, to'xtamasdan nima bo'lsa ham cho'qqiga chiqib olish uchun qat'iy ahd qildilar. Ikkovlari ham u yerda bir-birlariga qandaydir muhim narsa aytish haqida o'ylardilar. Axir bu yerda ularning so'zlarini hech kim eshitmasdi-da: bu yaqin-orada ulardan boshqa biror tirik jon yo'q. Biroq cho'qqiga chiqib olganlaridan keyin ham ulardan birontasi ko'nglidagini ochiq aytishga botinolmadi. Faqat qaytib tushayotganlarida Saodat to'satdan sirg'anib ketdi, Qosimjon uni mahkam tutib qolib, o'pib olmoqchi bo'lib intildi, ammo bu safar Saodatning jahli chiqmadi. U hech qachon o'zini shunday baxtli his etmagan edi.

Zaynab opa lang ochilgan eshik yondoriga suyanganicha uyning ichkarisiga qarab turardi. Uning harakatsiz bosh egib turishidan, taajjublanib xiyol ko'tarilgan qoshlari va bir-biriga botib ketgan lablaridan sukut saqlab, umidsizlikka berilayotgani sezilib turardi.

U biror qo'rqinchli narsani kutayotganday ostonaga qadam tashlashga botinmay turdi yoki nimanidir esladi. Balki,





tog'dan shamol olib kelayotgan shovqin-suronga quloq solayotgandir. Ko'ylagining keng va uzun yengi shalvirab osilib turardi. Yonida esa paqirdagi suvlari chayqalib obkash yotardi. Zaynab opa hozirgina ariqdan suv olib qaytgan edi. Zaynab opa u yerga borib Saodatning erga chiqqanini eshitib kelgandi. Ona qalbi chuqur iztirobga to'lgan. Endi u huvullagan uyda yakka-yu, yolg'iz. Uning uchun hamma narsa muhayyo, biroq qizining ketib qolishi bilan butun orzu-umidlari havoga uchganday bo'ldi.

Agar Tog'oy akaning qaylig'i Jiydagul kelmaganida Zaynab opaning shu zaylda qancha turishini kim bilsin. Jiydagulni ko'rishi bilan Zaynab opa vaysab ketdi:

– Mana, qiz zoti qanaqa ekan? Oh, sho'rim qursin. Xudo mening nasibamni qiymdi, o'g'il bermadi. O'g'il bo'lganda o'z uyini tashlab ketmay, balki, qallig'ini yetaklab kelarmidi.

Jiydagul nimjongina va hamisha mo'min-muloyim, hozir esa butunlay boshqacha bo'lib qolgan bu xotinga qo'rqinch bilan qarab turardi.

– Saodat meni sharmanda qildi! – deyardi Zaynab opa gap orasida. – Qochqin kishidek izzat-ikromsiz ismi-rasmini qilib uzatilmasdan bir darbadarning orqasidan ergashib ketdi. U Saodatni allaqayoqlarga olib ketadi, ko'rmay ham qolaman.

– Qiziqsiz, Zaynab opa, qizingiz uzoqda emas, shu yerda-ku! – deb Saodatning yonini olardi Jiydagul.

– Bas qil! Mening shu ahvolga tushishimga sizlar ham aybdorsizlar. Uning MTSga borishiga sening Tog'oying sabab bo'ldi. Men bo'lsam go'llik qilib, erimning ukasi deb uning gaplariga ishonibman. Bor ayt, agar akasining xotirasi va urug'imizning sha'ni unga qadrlil bo'lsa, Saodatni yo'ldan qaytarsin. Bor!

Shu kuniyoq Tog'oy aka odatga ko'ra xotinini Zaynab opani chaqirib kelishga yubordi.

Tog'oy aka egachisini kutib, kigiz ustiga to'shalgan po'stak ustida qovog'ini solib o'tirardi. Barcha oila a'zolari ham u bilan birga o'tirardi. Uy issiq edi. Qozonda go'sht, stol





ustida esa samovar qaynardi!

– Hammasidan xabarim bor, Zaynab, – gap boshladi Tog'oy, hurmat bilan unga piyoladagi choyni uzatayotib. – Sen uchun o'zim ham xijolat tortyapman. Agar Saodat ahmoqlik qilgan bo'lsa, men hoziroq otni egarlab, sochlaridan sudrab bu yerga olib kelaman! – Cholning ko'zlari g'azabdan chaqnar edi. – Ammo men bunday qilmayman. Undan ko'ra mening qo'llarim uzilib tushsin. «Eski ko'chmanchi»dagi yerlar ko'pdan beri sening qizingga o'xshash odamlarni kutardi. Zaynab, men seni tinchlantirishga va ko'ndirishga harakat qilmoqchi emasman. Lekin bir narsani eslataman. – Tog'oy tilining ostiga nosvoy tashlab oldi va qoramtir mo'ylovini o'ychan silab qo'ydi. – Hozir «Eski ko'chmanchi» yerlari ochilmoqda. O'zing bilasan-ku, bir vaqtlar biz bu ishni uddalay olmagan edik. O'sha vaqtda biz bu pastqam yerlarni oxiri bir kun o'zlashtiramiz, deb o'ylashga ham botina olmagan edik. Boylar bizni siqib, oxiri ana shu «Eski ko'chmanchi» yerlariga haydab yuborishgan edi. U joylarda yerni haydash ham, sug'orish ham noqulay edi.

Esingdami, o'shanda akamni sevib qolib, u bilan bu yerga qochib kelganlaring? Ochlikdan o'lmaslik uchun, hatto mana shu po'staktan ham katta bo'lmagan yerni haydashga qaror qilgan edik. To'g'ri aytasan, yerni qanday tozalaganimiz, toshlarni qo'lda ko'tarib tashiganimiz, tog' yonidan ariq qaziganimiz va «Ilon qoyasidan» suv ko'tarilib bu ariqda chiqmagani yodingdami?

Shularni eslaysanmi, Zaynab? Axir quruq qo'l bilan qoyalarni ag'darib bo'larnidi? Mehnatimiz zoye ketib, ekinlar qurib qoldi. Sen o'shanda qanday yig'laganingni eslaysanmi, hatto biz erkaklar ham ko'z yoshlarimizni zo'rg'a tutib turgan edik. O'shanda biz «Eski ko'chmanchi» yerlaridan kaftdek qismini ham ishlay olmagan edik. Lekin bizga ko'p yer kerakmidi? Faqat ochlikdan o'lmaslik uchun... Endi esa bizning bolalarimiz «Eski ko'chmanchi»ni o'zlashtirishga bel bog'ladilar. Agar sen ularni hozir nimalar qilayotganini ko'rganing-





da edi... Ular zo'r ishonch bilan ishlayapti. Ularda bilim bor, mashina bor... Hademay gallamiz daryo bo'lib oqadi.

Eh, Zaynab, yoshligingda o'z sevgan kishing uchun har qanday qiyinchiliklarga duch kelgansan. Shunday ekan, nima uchun sening qizing o'z sevgani bilan turmush qurishga va u bilan birga mehnat qilishga haqli emas ekan, a?

Zaynab opa jim turardi.

– Sen aqlli xotinsan, – davom etardi Tog'oy, – tushunishing kerak. Saodat shunday qilmasdan iloji yo'q edi. Kuyoving Qosimjon esa ota-onasiz darbadar emas, ajoyib yigit, brigadada birinchi traktorchi. Uning ota-onalari shaharda yashaydi. Ularni juda yaxshi, hurmatli kishilar deyishadi. Saodatga kelsak, u onasini unutib ketadiganlardan emas. Yakshanba kuni ular senikiga kelishadi, kuzda esa sen odat bo'yicha yo'l ochar qilasan. To'yni bo'lsa birinchi hosil yig'ilib, ular yangi uyga ko'chib kirgan kuni qilamiz.

Tog'oy aka nima degan bo'lsa Zaynab opa jimgina o'tirib tingladi. Keyin o'rmidan turib eshik tomon yo'l oldi. U bunga rozi bo'ldimi, yo'qmi, hech kim tushunmadi.

Tog'oy aka mehmonni kuzatishga chiqdi. Tashqarida shunday qattiq yomg'ir yog'ayotgan ediki, hatto, tog'lar ham, daraxtlar ham, nariroqdagi uylar ham ko'rinmasdi. Hamma narsa suvli tuman bilan qoplanib olgan edi.

– Eh-he, hamma yoqni qoplab olibdi-yu! Ana ko'rasan, bu oq yomg'ir kamida ikki-uch kun to'xtovsiz yog'adi...

– Oq yomg'ir deysanmi? – Past ovoz bilan so'radi Zaynab opa va javobini ham kutmasdan ketib qoldi.

* * *

Zaynab opa uyga kirib kelar ekan, xayol seliga cho'mganicha burchakka kelib o'tirdi va yomg'ir tomchilari oqib tushayotgan derazaga qaradi.

– Oq yomg'ir! – shivirladi u allanarsani eslaganday. Zaynab opa yo'lda kelayotiboq, Tog'oy har holda haq degan





xulosaga kelgandi. Lekin u uyining ostonasiga qadam qo'yishi bilan, qo'llari shalvirab, yuragi muzlab ketdi va yana o'zini yolg'iz his eta boshladi. Biror ro'zg'or ishlari bilan band bo'lmoqchi bo'ldi-yu, lekin, yuragiga hech narsa sig'madi. U har vaqt nimadir yetishmayotganligini o'ylardi. Lekin uning nima ekanligiga sira tushuna olmasdi.

Nihoyat u buni topdi: odatdagidek tog' tarafdan kelayotgan motorlarning ovozi eshitilmas edi. Har doim onani traktorlarning ovozi tinchlantirardi, chunki bu ovoz sevimli qizi bilan, uning kelajagi bilan bog'liq edi. Zaynab opa xavotirlanardi: «Traktorlar jim, oq yomg'irning ikki-uch kun yog'adiganday shashti bor. U bechoralar chodirlarda nima bo'ldi ekan? Nam, sovuq, pechka yo'q». Uning yosh kelin-kuyovlarga rahmi keldi. Axir ular chillalik-ku, tezroq yakshanba kela qolsa edi.

Zaynab opa barmoqlari bilan yakshanbagacha necha kun qolganini sanadi. To'rt kun! Qanday uzoq! U tezroq Saodat va Qosimjonni ko'rgisi kelardi. Biroz o'tirgach, keskin o'rnidan turdi-da, sandiqdagi oq surpni olib, erkaklar kiyadigan ko'ylak bichdi. So'ng pechkaga o't yoqdi. Xonada darrov hamma narsa saranjom bo'ldi. Go'sht pishguncha Zaynab opa mashinada ko'ylak tikib bo'layozdi. Endi u qo'l qovushtirib o'tirmasdan bo'g'irsoq qovurilayotgan qozon oldida o'ralashib qoldi. Olovdan qizib ketgan yuzlari qip-qizil bo'lib, mayda ter tomchilari bilan qoplendi. Biror yaxshilikni kutayotgandek ko'zlari quvonch bilan porlardi. Aftidan, u katta bayramga tayyorlanayotganday edi. Ha, haqiqatan ham shunday. U hoziroq «Eski ko'chmanchi»ga borishga qaror qildi. Tayyorlanib bo'lgandan so'ng, Zaynab opa Saodatning sepi uchun asrab qo'ygan gulli shol ro'molni olib keldi-da, ko'ylak bilan birga qo'shib xurjunning bir ko'ziga soldi, uning ikkinchi ko'zini esa go'sht va bo'g'irsoq bilan to'ldirdi.

Endi ketaverish mumkin edi, lekin u o'ylanib qoldi – erga tekkan qizirikiga taklif qilinmasdan borish yarashmasa kerak. Tog'oy kuzgacha kutishni maslahat bergan edi. Lekin bu





nihoyatda uzoq muddat. To'g'ri, Saodat va Qosimjon yakshanba kuni kelishadi. Ammo yakshanbagacha hali to'rt kun bor... U esa o'z bolalarini va «Eski ko'chmanchi»da nimalar qilinayotganini hoziroq o'z ko'zi bilan ko'rgisi kelardi. Agar uni kulgi qilishsa-chi? «Nima deb o'ylashsa o'ylashaversin, baribir, boraman».

Zaynab opa yangi shoyi ko'ylagini, mahsi-kalishini, sevgan choponini kiyib, xurjunini yelkasiga tashladi-da, boshiga katta qanorni yopinib uyidan chiqdi.

Tashqarida bo'lsa oq yomg'ir yog'ayotgan edi.

* * *

Kul rang tuman aralash yomg'irda so'qmoq bo'ylab ot ustida xotin kishi sekin yurib borardi. Yer dengizi haydalib tashlangan, katta ariqlar qazilgan, yomg'ir bilan yuvilib, yer qobig'ini sekin-asta yorib yashil o'simlik – birinchi bahorgi bug'doy unib chiqmoqda. «Eski ko'chmanchi» yerlari tanib bo'lmas darajada o'zgargan. Hosil olish mushkul bo'lgan bir parcha yer qayerda edi? Suv chiqarib bo'lmagan ariq qayoqda qoldi?..

Zaynab opa otdan tushib, yonidagi toshga o'tirdi-da, yig'lay boshladi. Biroq endigi ko'z yoshlar o'z farzandlarining faxri uchun, ularning ajoyib katta ishlarini ko'rib quvonch hislariga to'lgan onaning ko'z yoshlari edi.

1954-yil

Ruschadan Asil RASHIDOV tarjimasi





QIZIL OLMA

(hikoya)

Tun bo'ldi, Isabekov bo'lsa haliyam o'y surib o'tiribdi. Xatni nimadan boshlasin? Bu xatda o'zi nimani yozadi? Juda qiyin, judayam qiyin. Ko'p gaplarni yozishi kerak, rosa yig'ilib qolgan! Kechikkan izhorlarni u tushunarmikan?

Ko'p yillik og'ir oilaviy hayot ortda qoldi. Shuncha xafagarchiliklar, so'ngsiz ta'nalar, ko'pincha nohaq, shuncha janjal va yarashuvlardan so'ng, va nihoyat, ajrashgandan keyin u odamgarchilik qilib uni tushunamikan, kechira olarmikan? Turmushning ilk yillaridagi kabi – beg'ubor, ochiq, mehribon bo'la olarmikan? Bo'lolmasa-chi? Uni tushunmasa, undan ham yomoni, og'rinib, yana ayollik g'ururi va baxtsiz qismatdan so'z ochsa... Unda nima bo'ladi?

Isabekov uning e'tirozlarini ayollarga xos xudbinlik deb baholaganini esladi.

U har doim dugonalariga hasad qilardi.

– Sezdingmi, u hatto mehmonda ham ayoldan ko'z uzmad, odamlarning oldida tiz cho'kib, tuflisining ipini bog'lab qo'yishdan tortinmadi.

– Birovga yoqishga urinmayman, bunaqa erkalashni ham bilmayman, – degandi Isabekov kesib.

– Yoqishga urinish nimasi? Senda noziklik, mehribonlik yo'q, nima desa bo'larkan, sevgingdan uyalasanmi-ey. Men bunday yashashni xohlamayman, sevgan kishim meni ochiq sevishdan qo'rqmasligini istayman. Yo'qsa, odamga og'ir botadi. Sen bu haqda hech qachon o'ylamagansan.

– O'ylashni istamayman ham. Bunga vaqtim yo'q. Shunday bo'la turib, axir, dissertatsiyang¹ yaqinlashib qoldi-ku,

¹ **Dissertatsiya** (*lotincha*: dissertatio – fikr yuritish, tadqiq qilish) – ilmiy daraja olish maqsadida yoziladigan va maxsus ilmiy kengash majlisida himoya qilish uchun taqdim etiladigan ilmiy tadqiqot ishi.





bunday mayda-chuydaga – kim kimning bog'ichini bog'laganiga qanday ahamiyat berasan: hayronman.

– Senga gapirishdan foyda yo'q, baribir, hech baloni tushunmaysan.

Ammo endi u xotini nima haqda gapirganini tushunardi, uning nimadadir haq bo'lganini o'ziga iqror bo'lmasa-da, his qilardi.

U ko'chada ketayotib, o'tgan-ketganlarning e'tiborini tortishi Isabekovga xush kelardi. U ham xotinini jozibali, aqlli, latofatli deb bilardi. Qadam tashlashi ham yoqardi. Umuman, u o'ta yengil va chiroyli yuradi, ingichka poshnali tuflri kiyib olsa, qiz bola deb o'ylash ham mumkin. Raqs tushishi-chi, odamlarning havas bilan qarayatganini sezganda, ko'zlari baxtiyor chaq nab ketadi! Bunday daqiqalarda u ayolini juda sevardi.

Ammo, baribir, nimadir uni erkin, qaysi fazilati uchun yaxshi ko'rishini o'ylamay sevlshiga xalal berardi. Shunchaki sevlshiga. U yoshligiga qaytish uchun o'zini majburlashi, ortda qoldirishi kerak bo'lmagan narsani qoldirganini xijolat bilan his qilardi.

Endi Isabekov xatosini tan olishi kerak, agar buni xato deb bo'lsa. Ammo uni boshqa narsa ko'proq tashvlshiga solar-di: endi ular xarakterlari to'g'ri kelmay, shunday ta'riflash odat tusiga kirgan-ku, bir-birlaridan uzoqroq bo'lish va hammasini uzil-kesil hal qilish niyatida ketganlaridan so'ng u o'zidan kechib, tashqaridan o'tgan umrga nazar tashlay olarmikan? Bunday qilolmasa-chi? Unda hammasi tamommi? Alvidomi? Yo'q, u bunga yo'l qo'ymaydi!

Isabekov bir necha marta qo'liga qalam oldi, tashladi, deraza yoniga borib, ancha paytgacha devorga yopishganча tek turdi.

So'nggi avtobuslar burchakda to'xtab, yo'lovchilarni tezda olib, kuzgi xira chiroqda qizil chiroqlarini lipillatib ketishardi.

Qandaydir yigit qo'shnining qizi bilan bir necha marta



pod'ezd oldiga keldi, keyin yana ketdi va yana qaytdi, xuddi bog'chadagi kabi bir-birining qo'lini qo'yib yubormay ushlab olgan. Isabekov ularga hasad qilmadi, ammo bu manzarada unga sog'inch qadar tanish, ta'sirli, yaxshi bir narsa bor edi.

Qayerlardadir, shahar tashqarisida, tog'larda bo'lsa kerak, jonli olov yulduzchaday nur sochardi. Hoynahoy, cho'ponlarning gulxani. Shu lahzada uning hech narsani o'ylamay, quyuq tun zulmatidan junjikib, olovga o'tin tashlagisi kelib ketdi.

Keyin u derazadan nari ketib, yotoqxonaga, qizi Anoraga ko'z tashlashga kirdi. Katta bo'lib qolgan-u, har doim ustini ochib tashlab sovuq qotib qoladi. Bu gal Anora tinchgina uxlayapti, kun bo'yi charchagan bo'lsa kerak. Ha, qizi tinchgina uxlar, bugun nima qilib qo'yganini bilmasdi. Eh, Anora, Anora! Otasining yuragini tashvishga qo'yganini xayoliga keltirmasdi! Shunday kech paytda nima uchun uxlamayotganini bilmasdi. Isabekov qiziga termulganicha sassiz shunday derdi: «Tinchgina uxlayotganing yaxshi. Hali ulgurasan, ulg'aysang, o'ylarga to'la tunlar bo'ladi. Bundan hech kim qochib qutulolmasa kerak. Hozircha esa uxla, uxla, shirin tushlar ko'rgin».

Kunduzi u Anorani shaharga olib bordi. U o'sha yerda, tabiat qo'ynida, onasi bilan munosabatlarini tushuntirib bermoqchi edi. Xotini xatda shuni qat'iy talab qilgan. U qiziga onasi Moskvaga faqat dissertatsiyasi uchun ketmaganini, birga yashamaganlari ma'qulligini, Anora esa kim bilan turishni tanlashi kerakligini aytmoqchi edi. Isabekov bola uchun og'ir bu suhbatni boshlashga cho'chirdi. Nimagadir shahar tashqarisida bu ishni qilish osonroqday, qizi u bilan qoladiganday, xotini ilmiy tadqiqot insitutiga doimiy ishga o'tib, Toshkentda yashamoqchi edi, u shaharga ketishni istamaydigandek tuyulgandi.

Anora otasi chaqirganda hovlida o'ynayotgandi.

– Sviteringni¹ kiy, shahar tashqarisiga boramiz.

¹ Sviter (inglizcha: sweater < sweat – terlamq, ter chiqarmoq) – jun ipdan to'qilgan, tugmasiz kalta issiq kiyim.



– Shahar tashqarisiga?! – Anora chapak chalib yubordi, keyin ajablanib so‘radi: – Nimaga?

– Shunchaki, aylanib kelamiz.

Isabekovni ko‘chada mashinalar ko‘pligi asabiylashtirdi, mashinalar zo‘rg‘a-zo‘rg‘a yurardi. Yakshanbada har doim shu ahvol. Shahardan chiqqach, mashinalar oqimi tindi. «Volga» chayqalgancha tezlikni oshirib borardi. Silliq asfalt yo‘l uzoq tog‘larga tomon ketardi. Isabekov oldinda oqarib turgan cho‘qqilarga jimgina tikilardi.

– Dada, sekinroq haydang, – iltimos qildi Anora.

Isabekov tezlikni kamaytirdi.

– Qo‘rqyapsanmi?

– Yo‘q, shunchaki, – dedi u va yana derazaga yopishdi.

– Axir, har doim tez yurishni yoqtirarding-ku.

Anora o‘girilmadi, go‘yo eshitmagandek hech nima demadi.

Isabekov uning yupqa sviterni turtib chiqqan ozg‘in yelkalariga, qora mayin sochlari yopishgan ingichka bo‘yniga qararkan, eshikka yopishgan vujudida unga xos bo‘lmagan, begona narsani tuydi. Qizcha bezovtaday edi.

Balki, u sezayotgandir? Axir, bolalar sezgir bo‘lishini ko‘pincha unutib qo‘yamiz-ku. Nega u hech qachon hech nimani so‘ramaydi?

Bu o‘ylardan Isabekovning ko‘ngli buzildi. Yo‘q, qayerdan bilsin? Buni bilishi mumkin emas. U ham, xotini ham sezdirmagani. Yana kim bilsin! Eng qo‘rqinchlisi – u har doim shundan qo‘rqardi – bolaning ruhini buzish. Inson qalbi shunday yaralgan: uni muzlatish oson, ilitish qiyin, ba‘zan esa umuman ilojisiz. Keyin nevrasteniklar paydo bo‘ladi. Yo‘q, Anora normal qiz. Balki, u nimanidir sezayotgandir? Axir, uyda bir nima bo‘lsa, u doim bilgan-ku. O‘shanda qanchalik azob chekkanini hech kim tasavvur qilmagan. Nimayam qilsin, ertami-kechmi, baribir, bilishi kerak. Bu bo‘lmasa, onasi aytadi, u to‘g‘riso‘z-ku. Yaxshisi, o‘zi aytadi. Boshqa iloji yo‘q. Ortiq cho‘zib bo‘lmaydi... Balki, unga shunday



tuyulgandir, Anora derazadan to'kilayotgan barglarga zavqlanib qarayotgandir. Umuman olganda, bu hech nimani o'zgartirmaydi, baribir, aytish lozim. Eh, bugun kun yaxshi. Yurakda ham shunday halovat bo'lsa yaxshiydi...

Barglar sochilgan yo'llar kuzga xos bo'lganiday quruq. Isabekov chindan ham bunday tezlikda ketish nomaqbulligini o'yladi. Barglar, ohista aylangancha, asta yerga tushyapti. Ba'zilari bir lahzaga oynaga urilib kapotga¹ tushadi, keyin nariga uchib, go'yo ortda qolishni istamagandek bir muddat mashina bilan birga ketadi. Yo'lning ikki tomonida quyosh nuri sochilgan quruq sariq dalalar, yig'ishtirilgan uzumzorlar yastanib yotibdi. Oltin kuzning so'nggi kunlari.

«Yomg'irlar o'tadi, hamma yoq qorayib, chiroyini yo'qotadi», – o'yladi Isabekov afsus bilan. U o't yoqqichni yondirib, sigaret tutatdi va yana Anoraga boqdi. U derazaga qarab ketardi.

– Nega jimsan, Anora?

Qizcha taajjub bilan otasiga qaradi-yu, indamadi.

– Kecha darslaringni qilganmiding?

U bosh irg'adi.

– Atrof go'zal-a?

– Ha, judayam.

Isabekov xijolat bo'ldi. Bu majburiy, zerikarli savollar kimga kerak? Unga nima bo'ldi? Axir, ular, odatda, erkin va oson gaplashishadi-ku. Bugun o'zi zerikarli bo'lsa kerak.

– Robertino! – tipirchiladi Anora. – Voy, dada, Robertino. Sinfimizda uni hamma yaxshi ko'radi. Qizlar ham, o'g'il bolalar ham. Siz ham uni yaxshi ko'rasiz-ku? Onam ham.

– Ha, Anora, ha. Albatta, onang ham. Biram chiroyli bo'lib ketgansanki, qizim. – Isabekov qizining katta ochilgan qisiq ko'zlari birdaniga chaq nab ketganidan hayratga tushib sochlarini silab qo'ydi. – Mendan xafamisan, deb o'ylayotgandim.

¹ *Kapot* (fransuzcha: capote) – turli mexanizmlarda ularning ma'lum qismlarini chang, namlik, yog'in-sochin va shu kabilardan saqlash uchun ishlangan, ochilib-yopiladigan temir qopqoq.



– Nimalar deyaapsiz, dada!
– Juda yaxshi, kel, eshitamiz. Keyin men senga Shubert va Robertinoning vatani haqida gapirib beraman.

Suhbat davom etarkan, «Ave Maria» sadolari kuzgi kengliklar uzra ulug'vor suzar, go'yo bu kuzni ham, zaminni ham, inson qalbini ruhlantirardi. Isabekovda kutilmaganda quyoshni, oldindagi viqorli tog'larni, Robertinoning ovozini hamda qizining hayajonini qamragan uyg'unlik hissi uyg'ondi.

Har bir yurakda go'zallikka chanqoqlik hissi yashasa kerak. Bu inson tabiatiga xos bo'lsa kerak. Ammo ko'pincha biz, o'zimiz tushunmagan holda, bu go'zallikni qadrlamaymiz. Mana, hozir ham u bolaning hali mustahkamlanmagan, yarim ertak tasavvurlarini barbod qilishi kerak...

Robertino kuylardi, Anora ham unga qo'shilib past ovozda xirgoyi qilardi. Mashina bo'lsa bu vaqtda katta olma bog'i to'sig'idan o'tib, daryo yonidagi shossega burildi.

Isabekovlar bu yerga yozda kelishardi. Bu yerga kam odam kelardi: daryo kichkina muzdek tog' suvi orasida toshlar ko'rinardi. Plyaj ham yo'q edi. Ammo tog'lar yaqin edi. U yerdan, tepadan Anora chiqishni yaxshi ko'radigan katta xarsanglar tushib qolgan. Balki, shuning uchun Isabekov ham bu joylarga talpinar.

Atrof jimjit. Anora xarsanglar yoniga yugurdi, uning Robertinoga taqlid qilayotgan ovozi toshlar ortida goh yo'qolar, goh yana eshilib qolardi.

«Ave Maria» ohanglari Isabekovni tark etmas, atrofdagi hamma narsa yangilanganday tuyulardi.

Bog', allaqachon bo'shab qolgan, daryo ustida bo'lib, toza, tartibli edi. Go'yo: «Hali mevalarni terishga yana kelishmasmikan!» – deb quloq solayotgandek tuyuladi. To'siq yonidagi somonlar uyumi o'tib ketgan yozdan darak beradi. Yozda bu yerda hamma narsa boshqacha bo'lgan bo'lsa kerak, u eslolmaydi, go'yo yozi bo'lmagandek. Ana, bulutlar paydo bo'ldi – oppoq bo'taloqlar. Oh, ovulda bo'lsang! U yerda bo'lmaganiga ham ancha bo'ldi...





Anora so'qmoq bo'ylab bog'ga yugurib ketganini sezgan Isabekov bu yerga nima uchun kelganini eslab, qichqirdi:

- Qayerga ketyapsan?
- Bog'ga. Daraxtga chiqmoqchiman.
- Sen bilan gaplashib olishim kerak.
- Nima haqda, Robertino haqidami?
- Ha.

- Keyin eshitarman, tez kelaman, - Anora bog'ga yugurib ketdi.

Isabekov yana qiziga hammasini qanday aytishini o'y-lashga tushdi. Aytmoqchi bo'lgani o'ziga ham g'alati, bema'ni, dahshatli bo'lib tuyular, bu kuz kuni, nurga yo'g'ril-gan tuyg'ular, Robertinoning ovozi hamda «Ave Maria» bilan bog'lanmasdi. Unda qo'rquv paydo bo'ldi. Anora uzoqroq o'ynashini, aytishi kerak bo'lgan gapni aytishga majbur qil-masligini xohladi. Bog'dan qizining nimadandir hayratlangan, ajablangan ovozi eshitilganda esa u titrab, boshini eggancha orqasini o'girib yerga o'tirib qoldi.

- Dada, dada! Qarang, nima topdim!

U o'girilmadi. U qizining yugurib kelayotganini, hansiy-ayotganini eshitdi. Anora chopib kelib, otasining bo'ynidan quchdi va kattakon qizil olma uzatdi.

- Olma topdingmi?

- Ha, barglar orasiga berkinib olibdi, umuman ko'rin-mayotgandi! Ayyorligini-chi. Men esa topdim! U fonusga o'xshab yonayotgandi. Bu eng oxirgi va eng shirin olma. Butun bog'da boshqa bunaqasi yo'q. Qarang, qanday chiroyli, hidini aytmysizmi! Xuddi quyoshga o'xshaydi!

- Ha, judayam chiroyli, bu qishki apot, - kutilmaganda qo'shib qo'ydi: - Bilasanmi, Anora, bu baxt belgisi. Bu olma yoz bo'yi seni kutgan, hech kim ko'rmasligi uchun yashirini-b olgan. Sen bo'lsang, topib olding. Bu olmani yegan odam juda baxtli bo'ladi.

Isabekov olmani dastro'moli bilan artib qiziga uzatdi.

- Ma, ye.





– Robertino haqida qachon gapirib berasiz?
– Keyin, hozircha bog‘da o‘ynab tur.
– Bilasizmi, dada, daraxtga zo‘r chiqaman. Olmalar katta, baland, shoxlariyam semiz, chiqishga qulay. O‘rik bo‘lsa yomon daraxt, tikanlari ko‘p.

– Sen yaxshi daraxtlarga chiq,– kulib yubordi Isabekov.
– Dada, siz bir marta bo‘lsayam shunaqa olma topganmisiz? – kutilmaganda so‘rab qoldi Anora.

Isabekov dovdirab qoldi. Javob berishdan oldin bir muddat jim turdi-da, past ovozda dedi:

– Ha. Sen bor, o‘ynab kel, men shu yerda o‘tirib turaman.
Anora qo‘lida qizil olmasi bilan bog‘ga yugurib ketdi, u esa boshqa qizil olmani esladi va g‘alati o‘xshashlikdan ajablandi. U ham bir paytlar shu yerda, faqat boshqa bog‘ning narigi tomonidan, olmalar dalalarga qaragan joydan xuddi shunday qizil olma topgandi...

* * *

Urushdan so‘ng u hozir o‘zi ma‘ruza o‘qiydigan qishloq xo‘jaligi institutiga kirish uchun shaharga keldi.

Xuddi shunday kuz kunlaridan birida ularning butun guruhini ertalab jamoa xo‘jaligida lavlagi kavlash uchun yuborishdi. U paytlar yo‘l hali asfalt qilinmagan edi.

Kun bo‘yi ishlab, qora non burdasi allaqachon yeb bo‘lingan, kechga borib charchab, ochiqib shaharga qaytishardi. Qaytishda butun guruh jamoa xo‘jaligiga yo‘lni burdi. Hosil allaqachon yig‘ib olingan, ammo o‘tlar va barglar orasidan ba‘zilar olma topish baxtiga muyassar bo‘ldi. Do‘stona ravishda bo‘lishib yeyishdi. Ochlik hissi yana kuchaydi. Hamma tarqab ketdi, bog‘ni axtarishga tushishdi. Ammo arzirli hech nima topolmay yo‘lga chiqa boshlashdi.

Isabekov, hozir eslashicha, bog‘da o‘rtoqlarining ketidan yugurib ketayotganda, barglar orasida yorqin bir nima ko‘rindi. U to‘xtadi, ammo hech nimani ko‘rolmadi. Ko‘zimga ko‘rindi, deb o‘yladi. Bir necha qadam yurib, yana ortiga



qaytdi. Qari daraxtlar orasida o'tqazilgan yosh olma daraxti atrofida aylandi. Bu daraxtning barglari boshqalaridan farqli o'laroq hali quyuq edi. Quyosh so'ligan barglarga quruq, qaynoq nur sochardi. Gugurt chaqsang bas, daraxt yonib ketadi. Lekin u ko'rdi va hayratda shivirladi: «Oh!»

Ikki mushtcha keladigan katta qip-qizil olma, balki, bu daraxtning yagona mevasidir, barglar orasida ingichka, egilgan shoxda osilib turardi.

Bir necha lahza Isabekov bu mo'jizani tomosha qilib turdi, keyin sakrab, oyoq uchida turib osilib turgan qizil sharni uzib oldi. Xushbo'y hid boshini aylantirib yuborayozdi. Yupqa alvon po'chog'i orasida yumshoq, suvli meva ko'rinib turardi. Og'izga solib olging kelardi. U olmani bo'lishga chog'langandi hamki, so'nggi damda fikridan qaytdi.

Bu olmani unga beradi!

O'sha lahzada uni qanday eshladi? Biram ajoyibki! Ammo Isabekov har doim u, o'sha notanish, ismini ham bilmagan qiz haqida o'ylardi. Qanday qilib eslamasin! Boshqa hech nima to'g'risida o'ylamay Isabekov olmani cho'ntagiga suqa boshladi. Ammo bundan naf chiqmadi. Shunda u kurtkasining tikilgan joyini so'kib tashlab, teshikka olmani soldi-da, o'rtoqlarining izidan yugurib ketdi. Ular yo'lda yo'lovchi mashina kutib turishardi. Isabekov shu zahotiyoyq do'stlariga bor gapni aytishga qaror qildi.

– Bolalar, men olma topib oldim, ammo uni hech kimga bermayman. Uni bir odamga sovg'a qilaman.

– Olmaning o'zi qani?

– Mana, ushlab ko'rlaring.

– Voy, kattaligini!

– Qanaqasiga bir odamga sovg'a qilasan? Kimga? – uning yoniga keldi Sher.

– Kimgaligining nima farqi bor? – dedi Isabekov.

– Buni qarang-a, olma topib olibdi. – Ensasini qotirib kulib Isabekovning yelkasiga qoqib qo'ydi Sher. – Mug'om-birlikni yig'ishtir, olmani bu yoqqa chiqar.



Sher Isabekovning yuziga kulib, hazil qilibmi yo chindanmi, olmani olish niyatida kurtkasidan ushlab oldi.

Isabekov uning qo'liga qattiq urdi. Sher chetga surilib ketdi.

Bolalar kulib yuborishdi. Shu payt yo'lovchi yuk mashinasi kelib qoldi, bolalar kuzovga¹ otilishdi.

Isabekov bu g'aroyib olmani o'sha notanish qizga sovg'a qilishga qaror qildi. U qizni shahar kutubxonasida ko'p ko'rardi. Shuning uchun bo'lsa kerak, qishloq xo'jaligi instituti joylashgan chekka joydan shahar markaziga sudralib borardi. O'quv zalida o'tirganicha qandaydir ichki tuyg'uga asoslanib uning qachon paydo bo'lishini sezardi. U qizni shunday kuchli hayajon bilan kutardiki, nima o'qiyotganini tushunmasdi. Isabekov eshik qarshisidagi stolga o'tirib, u ostonada paydo bo'lganda, nigohini kitobdan uzar, ko'zlar bir lahzaga to'qnashardi. U tikilib turishdan qo'rqardi. Qiz ham uning xijolat bo'lganini sezganday tezda bo'sh joyga borib, stolga sumkasini qo'yardi-da, kitobga ketardi. Isabekov esa kitoblarni olib, mag'rur, erkin, hamisha chiroyli kiyingan holda yana yonidan o'tishini kutardi.

U juda aqlli va tarbiyali bo'lsa kerak. Isabekov bu haqda faxr bilan o'ylar, uning bundayligidan quvonar, g'ururlanardi.

Uning o'quv zalida o'tirishining o'zidanoq Isabekov ham quvonch, ham azob hissini tuyardi. U yon tomondan qizga mo'ralashni, o'ychan egilgan kipriklari, tinimsiz ravishda daftarga nimalarnidir yozayotgan yumshoq qo'llariga qarashni yaxshi ko'rardi. Birortasi uning oldida to'xtab qolsa yoki bolalar stoliga xatcha tashlasa-yu, qiz o'qisa, joni chiqardi. Isabekov stol tagida mushtlarini tugib, hammaga tashlanishga tayyor bo'lardi. Ammo uning surbetlarning xatlarini yirtib tashlaganda, hirlinglash va shivirlashlarga hatto o'girilib qaramaganda, qalbi taskin topar, minnatdor bo'lardi. Isabekov bu yerda unga hech kim yoqmaydi (o'zi sal-pal) deb o'ylardi. U

¹ Kuzov (ruscha: кузов < tatarcha: qo'zov – daraxt po'stlog'idan qilingan savat) – avtomashinaning odam yoki yuk joylashadigan qismi.



buni juda istar, bu haqda shunday orzu qilardiki, sal sezilarli tabassumlar va bosh irg'ashlarni o'ziga nisbatan simpatiya tarzida qabul qilardi. Ammo Isabekov u bilan tanishishga jur'at qilolmasdi. Qiz unga o'ta ziyoli bo'lib tuyular, u esa shaharda yuzlab topiladigan ovullik oddiy bir yigit edi. Qolaversa, Isabekov o'zining tashqi ko'rinishidan uyalardi. U akasidan qolgan etik va gimnastyorkada¹, dala sumkasi bilan yurardi. Qishda ham akasining shineli² bilan yurishi kerak edi.

U kutubxonada ancha kech paydo bo'lar, ba'zan o'quv zali yopilguncha qolib ketardi. U stoldan turib, kitoblarini topshirishga ketayotganda, Isabekov tezda narsalarini yig'ishtirardi-da – kutubxona kitoblarini kech qolmaslik uchun avvaldan topshirib qo'yardi, – ko'chaga chiqardi. Boshqa tomonga o'tib, qizning chiqishiini kutardi. Mana shunday masofada, odamlar orasidan qaragancha uyigacha kuzatardi. Qiz yaqinda, kutubxonadan ikki mavze narida, ulkan kulrang uyda yashardi.

Uni kuzatgach, Isabekov shahardan yayov yotoqxonasiga borardi. Yo'l-yo'lakay shahar bog'iga kirib o'tardi. U yerda raqs maydonchasi bor edi. Qizlarning belidan quchgancha, qo'lini ushlab musiqa ohangiga mos raqs tushayotgan yigitlarga qanchalik uning havas qilishini hech kim bilmasdi. Yigitlar qizlarga nima deyishar, ular esa jilmayib, bundan yanada baxtiyor bo'lishardi. Raqs tushayotganlarga qarab turarkan, Isabekov eng chiroyli va sevgisi eng kuchli juftlikni tanlab, yigitning o'rnida o'zini, qizning qiyofasida esa uni tasavvur qila boshlardi. Uning tasavvurlari shunchalik chuqur, shunchalik haqqoniy ediki, sevgilisi bilan raqs tushibgina qolmay, suhbatlashardi ham. Bu xayoliy suhbatlar taxminan shunday edi:

- Bilasizmi, men faqat sizni deb kutubxonaga kelaman.
- Ha, bilaman. Har doim meni kutishingizni bilaman.

¹ **Gimnastyorka** (ruscha) – tik yoki qaytarma yoqali, ustidan kamar bog'lanadigan ust ko'ylak (rasmiy harbiy kiyim).

² **Shinel** (ruscha < fransuzcha: chenille – erkaklarning tonggi kiyimi, kostyumi) – maxsus matodan tikiladigan, maxsus bichimdagi palto.



– Men sizni kun bo‘yi – ma‘ruzalarda ham, oshxonada ham, yotoqxonada ham o‘ylayman. Men kinoda o‘tiraman-u, ekranda nima bo‘layotganini ko‘rmayman. Siz haqingizda o‘ylaganda qanchalik zavqlanishimni bilsangiz edi.

– Qiziq, men ham ba‘zan siz haqingizda o‘ylayman. Ammo nega hecham yonimga kelmaytiz, gaplashmaytiz?

– Men shundoq ham xursandman. Agar siz tonggacha kutubxonada o‘tirsangiz, men ham sizga termulib o‘tirardim.

– Meni yigitlar kuzata boshlasa-chi, unda nima qilasiz?

– Bunga yo‘l qo‘ymayman. Siz ham yo‘l qo‘ymaysiz, to‘g‘rimi, axir, men sizni sevaman.

– Yo‘l qo‘ymasligimni qayerdan bilasiz?

– Siz unaqa emassiz.

– Men haqimda hech nima bilmaysiz-ku, qanday qilib xulosa chiqaryapsiz?

– Sizga juda ishonaman. Men sizni bilaman. Sochlaringiz isini, ovozingizni sira eshitmagan bo‘lsam-da, qanday kuli-shingizni bilaman. Sizning ko‘zlaringizga ishonaman, siz yaxshisiz, eng go‘zal va eng aqllisiz.

– Voy, juda ko‘p gapirib yubordingiz. Shularning bari chinmi?

– Chin.

O‘sha kuni kechqurun, yotoqxonagacha qaytgach, Isabekov olmani tumbochkaga soldi-da, eng avval yuvinishga, etiklarini tozalashga yugurib ketdi – kutubxonaga borish uchun o‘zini tartibga solishi kerak-ku. Ammo yo‘lakdagi soatga qarab kech bo‘lganini tushundi.

Xonada hamma allaqachon uyquga ketgan, u esa olmani ertaga qanday qilib berishini o‘ylab ag‘anab yotaverdi. U qizning hayrati va quvonchini ko‘rganday bo‘ldi, – Axir, bunday paytda shunday rang va shunday hidli olmani butun dunyoni axtarib ham topib bo‘lmaydi-ku. U, albatta, o‘zining topilmasi – eski kuzgi bog‘dagi yosh olma daraxti va bu daraxt kechki quyoshning oltin nurlarida hammasidan chiroyli bo‘lgani haqida gapirib beradi.





Yana orzusini aytadi va har gal uyga kuzatib borishini, raqs maydonchasida birga raqs tushishini, suhbatlashishini ham bildiradi. U kulib yuborib, «Devona!» desa kerak. Bu gapni aytayotganda, uning ovozi mazax emas, mehri tuya-di. Keyin kinoga borishsa kerak, u qizning yonida o'tiradi, yaqinligini his qiladi va, tabiiyki, hech qanday kinoni ko'r-maydi, unga kino kerakmas ham. Kostyum bilan tuflisi yaxshi bo'lganda edi. Etikda uning yonida noqulay-da. Ammo u aqlli-ku, demak, bunga e'tibor bermaydi.

Isabekov shu o'ylar bilan uyquga ketdi. Ammo tunda karavotdan sakrab turdi. Tushida surbet Sherning qizil olmani yeb qo'yayotganini ko'ribdi. Isabekov uyqusirab Sherga tashlandi, ammo u xurрак otib yotar, boshqalar ham uxlardi. Shunda ham Isabekov tumbochkani ochdi-da, olmani ushlab ko'rib, ko'ngli joyiga tushdi. «Mendan ko'rasan!» – pichirladi u olmaga.

Ertalab darchani ochgan bolalar olmani hidlab-hidlab qo'yishdi.

– Isabekov, olmang ham zo'r ekan-da. Hidini qara! Uni kasalxonaga birovga olib borsang, tezroq olib bor, yo'qsa, Sher yeb qo'yadi.

– Kecha yeb qo'ymoqchi edim, – to'ng'illadi Sher. – O'zlaring qo'llamadilaring.

– Urinib ko'rgin ham-chi! – tahdid qildi Isabekov past ovozda.

Keyin hammalari darsga ketishdi. Ma'ruzalar shunday azobli ediki!

Tanaffusdan so'ng Isabekov Sherning auditoriyada¹ yo'g'ligini sezib qoldi. Isitmasi chiqib ketayozdi. U o'midan sakrab turdi-da, zoologiya² domlasining ma'ruzasini bo'lib, dedi:

¹ **Auditoriya** (lotincha: auditorium -- tinglash joyi) – mashg'ulot, ma'ruza va shu kabilarni tinglovchilar, shuningdek, radiotinglovchilar va teletomoshabinlar.

² **Zoologiya** (zoo... va ...logiya) – hayvonlar to'g'risidagi fan, biologiyaning bir sohasi. Zoologiya hayvonot olamining xilma-xilligi va tarixiy taraqqiyotini, hayvonlarning tuzilishi, hayot kechirishi, tarqalishi, rivojlanishi, shuningdek, ularning yashash muhiti bilan munosabatlarini o'rganadi.





– Kechirasiz, professor. Tezda, hoziroq ketishim kerak.
– Sizga nima bo‘ldi, yigit? – ajabladi professor.
– Tushuntirib berolmayman, ammo iltimos qilaman, menga javob bering...

Isabekov o‘quv binosidan yotoqxonagacha mushtlarini tukkancha yugurib bordi. Sher xonada yo‘q ekan. Isabekov tumbochkaga otildi – olma joyida turgan ekan. U ham xijolat, ham xursand bo‘ldi. Demak, Sher shunchaki zoologiyadan qochib ketgan. Hayajon va yugurganidan hansirab qolgan Isabekov karavotda o‘tirgancha pichirlardi: «Kechir, kechir meni, Sher! Sen haqingda endi hech qachon bunday yomon xayolga bormayman!»

Kechki payt gazetaga o‘rog‘liq olmani qo‘ltig‘iga qisgancha Isabekov nihoyat kutubxonaga jo‘nadi. U odatdagidan ertaroq keldi va har doimgidek eshik yonidan joy olib, stol ustiga daftar-kitoblarini qo‘yib kuta boshladi. Va har doimgidek odamlar kitobga engashgancha o‘tirishar, shivirlashar, chekish xonasiga borib, yana qaytib kelishardi. Bularning hammasi Isabekovning tushida bo‘layotgandek edi. U kutardi. Gazetaga o‘rog‘liq qizil olma stol tagida tizzasida turar, shuning uchun qimirlashga qo‘rqib o‘tirardi. Bir yarim soat o‘tdi, ko‘chaga qorong‘ulik cho‘kdi. U kelavermadi. Ikki soat o‘tdi – yo‘q! Uch soat o‘tdi – yo‘q! Isabekov hamon kutardi. U kelmadi.

Ertasiga u yana ma‘ruzalarda o‘tirib, kech tushishini kutdi, yana shahar bo‘ylab olmasini ko‘tarib yurdi. Avvalgidan ham alamliroq sabrsizlik bilan kutdi kutubxonada. U ostonada paydo bo‘lganda esa o‘zining yurak urishlaridan quloqlari bitib qolgandek bo‘ldi. U har doimgidek sezilar-sezilmas jilmayib, yengilgina bosh irg‘adi, o‘tib ketayotib esa qo‘li bilan biroz turtib yuborgandek bo‘ldi, so‘ng bir stol naridan joy egallab, kitob olishga ketdi.

Isabekov hayajon baxsh etgan quvonchdan mast bo‘lib, stol tagida o‘zining muqaddas qizil olmasini titragancha ushlab o‘tirardi.





Keyin u kitob ko'tarib qaytdi va har doimgidek hech kimga qaramay, hech narsaga e'tibor bermay, daftariga nimalaridir ko'chira boshladi.

Isabekov esa hamon kutardi. Vaqt yana cho'zildi, ammo u bugun orzusi amalga oshishini o'ylab baxtiyor edi. U yon tomondan qizning tartib bilan taralgan sochlariga, o'ychan egilgan kipriklariga va yumshoq qo'lga termulib o'tirarkan, «Devona!» deyishni o'zicha tasavvur qilardi.

Shunday baxtdan yuragi gursullab urardi. Ha, u qizga hammasini, olmani yeyishga shaylanganda, qanday eslab qolganini, biror yaxshi, chiroyli narsani ko'rganda, har doim uning yonida bo'lishni, u bilan birga quvonishni istashini, chunki faqat u bilan go'zallikning butun jozibasini his eta olishini aytadi.

Ko'chada tungi chiroqlar yongan, kitobxonlar tarqala boshlagandi, u esa hamon joyidan jilmasdi. Isabekov ham kutib o'tirardi. Keyin, qiz narsalarini yig'ishtira boshlagach, u tezda konspektlarini sumkasiga tiqdi-da, gazetaga o'rog'liq olmani olib ko'chaga chiqdi. U yo'lning nariga tomoniga o'tmadi, hayajonini bosishga kuchi yetmay, yo'lakda to'xtadi. Og'zi qurib ketdi, tashnalik sezdi. Nihoyat, tosh zinalardan uning poshnasi ovozi eshitildi va u kalta chiroyli paltoda paydo bo'ldi. Isabekov olmani bag'riga bosgancha u tomonga yurdi. Qiz indamay yonidan o'tib ketdi.

– Yaxshi qiz! – qat'iyatsiz tovushda chaqirdi Isabekov.

– Ha, – qiz to'xtab ortiga o'girildi. – Menga nimadir demoqchimisiz?

Noqulay jimlik cho'kdi.

– Men sizga... olma olib keldim, – dedi Isabekov zo'rg'a.

– Olma? Buni qarang-a! Nima, siz meni umrida olma ko'rmagan deb o'ylayapsizmi?

– Yo'q, bilasizmi, men uni topib oldim...

– Xo'sh, nima bo'пти? Sizga mendan nima kerak o'zi, – asabiy tarzda dedi u va hech qayoqqa qaramay, tez nari ketdi.

Qiz o'zining qizil olmasidan uzoqlashib ketayotgandi.

Isabekov esa uning ortidan o'zining bebaho qizil olmasini



ushlagancha, nima bo'lganini tushunmay qotib qarab turardi. Qizil olma sabab yaralgan ajoyib olam to'satdan parcha-parcha bo'lib, qulab ketdi.

Isabekov uyga sudraldi. U birdan qo'lini siltab, olmani uloqtirib yubordi. U qayerdadir devorga borib urildi.

U xuddi mast odam kabi bo'm-bo'sh ko'chalarda to'g'ri ko'prik ustidan ketib borardi. Ahyon-ahyondagi mashinalar ehtiyotkorlik bilan uni chetlab o'tishardi.

Keyin u ko'p qizlar bilan tanishdi, ammo hech biriga qizil olma sovg'a qilgisi kelmadi. Ular ham buni istashmasdi...

Ammo bir umr undan qizil olma talab qilgan, yolvorgan, kutgan yagona ayol bor ekan, bor ekan. Bu uning xotini Sobira edi. Hozir kuzgi bog' to'siqlari oldida o'tirgancha Isabekov shu haqda o'ylardi.

Kechki payt Isabekov va Anora uyga qaytishardi. Tez qorong'u tushdi. Oldinda shahar chiroqlari porlab turardi. Mashina barglar sochilgan yo'ldan ohista suzib borardi.

Isabekov sigaret olib, o't yoqqichi bilan o't oldirdi-yu, Anoraning qo'lidagi qizil olmani ko'rdi.

– Iye? Haliyam yemadingmi?

– Yo'q, men oyimga olib qo'ydim, – deya asta javob qildi qiz.

– Oyingga? – ming'illadi Isabekov. Issiq bir nima tomo'g'iga tiqildi. – To'g'ri, uni oyingga olib boramiz.

Ortiq hech nima haqida gaplashishmadi. Isabekov qizi to'g'risida o'ylardi. Anora hammasini tushunarkan-ku. Ishqilib, har doim shunday bo'lsin-da. Ishqilib, hech qachon qizil olmasidan voz kechmasin-da.

Isabekov xat yozolmadi.

Ertalab, u uxlab yotganida, Anora otasining stolida Moskvaga jo'natilmagan xatni ko'rdi: «Sobira, biz sening yoningga ketyapmiz». Qizcha ruchka olib, katta harflar bilan qo'shib qo'ydi: «Bizni kutib oling, oyi. Sizga qizil olma olib ketyapmiz».

Ruschadan KOMILA tarjimasini.



HAYOT-MAMOT

(hikoya)

*Qon sachramagan faqat qu-
yosh qoladi va tulpor chavandoz-
siz chopib boradi.*

Lo'li ayolning folidan.

I

Samolyotni pastdan to'plar shiddatli olov purkayotgan zonadan olib chiqar ekan, uchuvchi otishma joyidan keragicha uzoqlasha olganiga ishonch hosil qilish uchun pastga nazar soldi, – pastdagi hurpayib yastangan oqimtir-yashil o'rmon aylanayotgan samolyot bilan birga go'yo qiyshayib, og'ib borar, hozir to'ng'irilib qandaydir tubsizlik qa'riga tushib ketadiganday edi. Keyingi daqiqada qiruvchi samolyot parvozda rostlanib oldi va o'rmon ham go'yo birdaniga o'zining muqim o'rniga qaytdi, olisdagi g'uborli ufq bilan qo'shishildi. Olam o'zining azaliy ko'rinishiga ega bo'ldi. Uchuvchi o'ziga kelib ulgurib-ulgurmay, samolyot qarshisida nimadir kutilmaganda va shu qadar daf'atan paydo bo'ldiki, uchuvchi havoda nimaga yuzma-yuz kelganini anglashga ham ulgurilmadi, – qandaydir shakl-shamoyilsiz yuk tirik tanasining butun zalvari bilan samolyotga og'ir urildi. Zarbadan samolyot keskin silkindi va uchuvchining ko'z oldi bir lahzaga qora tortdi...

Bu dovdirab uchib borayotgan, go'yo uchayotib ko'zlari qamashgan, ko'r bo'lgan qushlarning katta to'dasi edi...

Uchuvchini qaynoq ter bosdi. Boshqaruvni yo'qotib qo'ymaslik uchun uchoqni zo'rg'a o'z izmida ushlab qolgan uchuvchi qushlar bilan urilganda kabina oynalariga mijig'la-





nib ketgan qonli go'sht parchalarini ko'rib, ko'ngli ayniganidan behol u yon-bu yon o'girildi.

Qushlar kuz kelishini ham kutmasdan bu o'lkalarni birinchi bo'lib tark eta boshladilar. Ular jazirama yozning avj pallasida gala-gala bo'lib yoki alohida-alohida, kechasi ham, kunduzi ham uchib ketayotgandilar, hali bola ochib chiqmagan tuxumlarini ham tashlab borardilar, qotib ulgurmagan bo'yinlarini zo'rg'a cho'zib yolvorayotgan, chumchuqdan ovqatlanadigan palaponlariniga ham qaramay uchib ketayotgan edilar. Hammadan keyin hatto botqoqlik ukkulari ham gumdon bo'lishdi, tunlari ularning quv-quvlashi eshitilmay qoldi...

Jonivorlar tum-taraqay bo'ldi...

To'rt tomonda achchiq-achimsiq tutunini uzoq-uzoqlarga taratib o'rmonlar ayovsiz yonardi, asriy o'rmon qaro yerga qulardi – ulkan qayinlar bo'ronda qolgandek qasirlab yiqilardi. Zambaraklar va minalarning¹ betinim zarbasidan, samodan tashlanayotgan bombalardan, tanklar hujumidan, tanklarga otilayotgan o'qlardan qaynab ketgan zamin portlashlardan to'lg'ona-to'lg'ona titrab qaqshardi... Portlashlardan tilkapor bo'lgan soylar qirg'oqlaridan tisarilib, o'zanidan o'nguso'lga qayrilib oqar, jarlik va chuqurlarni suvga botirardi. Tanklardan biri, o'z-o'ziga qasd qilganday, dala o'rtasida o'qotar tumshug'ini keskin osmonga ko'targancha suv to'la jarga manguga botdi...

Va bularning bari muqarrar ravishda har kuni yuz berardi va uni to'xtatishning iloji yo'q edi, sababi bu joyda, zobitlar tili bilan aytganda, frontlar jangi borardi. Front frontga tashlanib yotardi. Har bir tomondan tegishlicha g'anim mudofaasini yorib o'tish, keskin hujum uyushtirish, dushmani yon-beridan va ortidan turib zabt etish, tirik kuchlarini bartaraf qilish talab etilardi. Va har bir tomon birinchi bo'lib yorib o'tishni, birinchi bo'lib hujum uyushtirishni o'zining muqarrar vazifasi deb bilardi...

¹ *Mina* (fransuzcha: mine) – yer, suv ostiga qo'yiladigan portlovchi snaryad.



Ammo bu maqsadni amalga oshirish hozirgacha hech kimning qo'lidan kelmayotgandi. Va hanuz pozitsiyaviy urush borardi, kun o'tardi – tun o'tardi, kun o'tardi – tun o'tardi...

Vaqt esa o'z azaliy ravishi bilan o'tib borardi. Harbiy teatr deb ataladigan bu makonda kuzgacha ham na kunduzi, na kechasi, na yomg'ir ostida, na do'l ostida o'qotar zambaklar va multiqlar ovozi tinmadi... O'sha yili qushlar ham qaytib o'z inlariga kelib qo'nmadilar, oyoqosti bo'lgan maysalar gullamadilar, urug'lanolmadilar.

Ayni paytda bir-birini o'zaro parchalab tashlash uchun qarama-qarshi turgan fronlar qoshidagi shtablar shoshilinch tarzda yangi-yangi tezkor rejalarini ishlab chiqardilar, yo'qotishlar, o'lganlar va jarohatlanganlarning soni haqidagi maxfiy rejalarini jo'natardilar, bu shtab ham u shtab ham bir ovozdan aynan bir narsani – zarba salohiyatini oshirish kerakligini – isbotlash harakatida edilar va shuning uchun bir xil tarzda o'zlarining Oliy qo'mondonlaridan yana va yana qo'shimcha tirik kuchlarni, yangi texnikalarni, qurol-aslahalarni jo'natishni so'rardilar: bir tomon buni hayot uchun zarur bo'ladigan yangi kengliklarni zabt etish uchun so'rardi, ikkinchi tomon ana shu kengliklarni mudofaa qilish uchun kuch so'rardi. Nima bo'lmasin, u tomonga ham va bu tomonga ham zaxira kuchlar yetkazilar, kuchlar jangda yana ado bo'lar va yana yangi kuchlar kelardi...

Ayni vaqtda urush qontalash qilgan yoz ham tugab borar, jang qilayotgan har ikkala tomon uchun ham tayyorgarlikning so'nggi muddatlari, so'ngi chegaralari kechayotgandi, endi yorib o'tish lozim edi, zamin o'zra tizginsiz kuch yoyilishi – hujum taloto'pi bosishi kerak edi...

Bu qonga qorishgan sahnaga, qon sachramagan faqat ko'kda quyoshgina qolgan taloto'pga, qushlar ham tark etgan bu o'lkalarga taqdir o'sha zamonlar ko'plab odamlarni izillatib haydab kelar ediki, go'yo bu odamlar, ehtimol, aynan ana shu qisimatlarni hal qilayotgan hodisa uchun, shu yilning shu



kunida shu joyda bo'lish uchun qachonlardir dunyoga kelganday edilar.

Shunday odamlarning biri o'zi bilmagan holda shu yoqqa kelardi. Volgabo'yidagi jazirama Old Osiyodan, ya'ni Saratov shahridan yo'lga chiqqan harbiy eshelonda¹ kelardi u. Eshe-londagilarning hammasi urushga ketayotganliklarini tushuni-shardi, albatta, ammo aynan qayoqqa – qaysi frontga, jabha-ning qaysi qismiga – ketayotganliklarini bilmasdilar, buni faqat yuqori qo'mondonlik bilishi mumkin, askarning ishi – qayga haydasalar, o'sha yoqqa... Shivir-shivirlarga qaragan-da, yo'nalish Moskov tomonga olingan va undan nari yog'i ayon – front. Aslida ham shunday bo'lib chiqdi. Shunday harakatlanish bo'lishini oldindan aytib berish unchalik qiyin emasdi.

Saratovdan kunbotarda jo'nab chiqishdi, nafasni siqadi-gan tunni o'tkazganlaridan so'ng, jaziramasini kuydirgan, yoz bo'yi jonga tekkan volgabo'yi sahrolari ortda qolib, goh yaqindan, goh temir yo'llarning tutashgan yerlaridan yaylov-lar va yam-yashil o'rmonlar ko'zga tashlana boshladi, qarab to'ymay-san – xuddi qadimgi suratlarning o'zginasi. Askarlar va o'qotar qurollar bilan tirband bo'lgan issiq xonalarning ochiq eshiklaridan salqin shabada ham sezilarli esa boshladi. Endi o'rmonlar yaqinlashib kelardi.

– Qara – naqadar go'zal o'rmonlar! Rossiya ko'rinmoq-da, onajonimiz-Rossiya! – askarlar go'yo o'zlari rossiyalik emasday, qaysidir uzoq yerlardan kirib kelayotganday bir-birlariga so'z qotishardi.

Askarlar orasida bittasi juda ham yosh edi, ko'rinishidan bo'sh-bayov tuyular, askarlik kiyimi xuddi otasinikini kiyib olgan o'smirdagiday osilib turardi, – Sergey Voronsov yoki, uni vzvoda atashganiday, – Sergey, ruhoniy, ya'ni Sergey ota.

¹ **Eshelon** (fransuzcha: *echelon* yoki *echelle* – zina, zinapoya; shkala) – 1) maxsus yuk, texnika, artilleriya, tank va qo'shinlar ortilgan poyezd yoki avtokolonna (**bu yerda shu ma'noda**); 2) ketma-ket saf torgan, birin-ketin jangga solinadigan qo'shinlarning navbatdagi guruhi; 3) bir xil yuk ortilgan, bir maqsad bilan jo'natilgan poyezd yoki avtomobillar qatori.





Aytish kerakki, yigitcha bir marta Xudoni tilga olgandi, Xudo – bu sig'iniladigan sanam emas, u – hodisa, deganday bo'luvdi, hodisa nima-yu, uning sharhi holi qandayligi haqidagi yigitning gapini hech kim tushunmadi, ammo yigitchani cherkovchasiga – Sergey hamda ruhoniylar deb atay boshlashlariga shuning o'zi yetarli bo'ldi. Askarlar o'z qochirimlaridan o'zlari zavqlanardilar – yigitchaning yoshi bor-yo'g'i o'n to'qqizda edi. Bu mahmadananing ustidan kulib olishsa, nima bo'пти?! Uning o'zi ham bunga xafa bo'lmasdi. Bu Sergey soatlab vagon eshiklari oldida, ko'ndalang dastakka suyangancha turar, yo'lakda hammadan ham ko'p o'ralashib yurardi. Boshqalar qarta o'ynashar, kimdadir vokzaldagi kechagi kuzatuvlardan qolgan ichkilik ham saqlanib qolgan ekan, odatdagiday, yo'ldagi majburiy bekorchilikdan zerikkan yo'lchilar harakatning shovqini va taqa-tuqi ohangida har xil olatasir suhbatlar qurishardi, boshqalar qo'shiq aytishar – yo'lning maromida o'z ovozlari quloq tutishardi, uni, Sergeyni, tinimsiz eshik o'ziga chorlar, yo'lda yuz ko'rsatib o'tayotgan yangi manzillarni ko'rgisi kelardi. U hammadan ko'proq tashqariga boqar, bolalarcha qiziqsinardi – bu azaliy rus yerlariga Sergey ilk bor kelayotgandi, to'g'ri, uning maktabni bitirgach, Moskovga o'qishga borish orzusi bor edi, ammo endi bu orzular barham topdi, poyezd uni urushga tomon olib borardi. Hozircha hayot eshelonda, taqa-tuq harakatda, temir choynikni ko'targancha bekatlarda issiq suv izlab chopishlarda, askarlik nasibasini chaynash-yutishlarda, alqissa, Volga bo'yidagi harbiy lagerdagi uch oylik mashqlardan so'ng yo'l taassurotlarini yangilashlarda kechardi. Har gal, g'ayriodatiy, avval ko'rilmagan, ko'pincha boshqa unchamunchani ko'rganlar uchun e'tiborga arzimasa bo'lsa-da, Sergeyga ajabtovur tuyuladigan nimadir ko'ringanda, u yonida turganlardan birining yengidan tortib, turtkilar: ana, uni qara-ya! Qarashsa, qandaydir temir yo'lga egilgan, kesib tashlash kerak bo'lgan daraxt, qamishlar orasidagi sokin ko'l bo'lardi, yoki, ana, qandaydir devona nima uchundir sigirmi



minib borardi – ajabo, chavondoz bo‘lib ket-a, bu tomonda zavod yaqinidagi dalada osmonga bo‘y cho‘zgan quvurdan olov mash‘ala bo‘lib osmonga o‘rlab turibdi. Sergey bularning barini tushuntirardi, hikoya qilardi, osmonga o‘rlyotgan mash‘ala o‘z-o‘zicha yonib turibdi, bu ortiqcha gazni chiqarib yuborish uchun zarur; otasi ishlagan yerda, neft qazib chiqaradigan quduqda ham xuddi shunday mash‘alali quvur bo‘lardi. Zim-ziyo qish tunlarida, qor yog‘ayotganda u juda chiroyli ko‘rinardi – yuqorida mash‘ala yonar, qor uchqunlari olov bilan o‘ynashib aylanishar, tirik olov go‘yo osmonga intilardi. Yangi yilda, ba‘zi-ba‘zida, onasi va singillari bilan mash‘alani ko‘rgani borishardi, bir-birlarining qo‘llarini ushlagancha, g‘irchillatib qorni bosib yurishardi. Uyg a qaytganlarida, xonadonning issig‘i, tafti jonga boshqacha orom baxsh etardi, bolalar she‘rlar o‘qishardi, onasi shirinliklar pishirib berardi, otasi – korxonaning talabchan hisobchisi – u ham quvnardi. Bu ruhoniy bola g‘alati-ya, tushunmaydi, boshqalar uning ustidan kulishardi – she‘rlar, shirinliklarni gapiradi-ya... Axir bu hardamxayol frontga ketyapti!

Tutash bekatlarning biridan o‘tarkan, poyezd bir qadar sekin harkatlanayotgandi; g‘ira-shira qorong‘ulik tusha boshlagandi, Sergey hammaning diqqatini bomba tushib kuygan, va, ehtimol, shuning uchun zaxira yo‘lga o‘tkazib qo‘yilgan eshelonga qaratdi, uning parovozi majaqlanib ketgan va vagonlari vayrona, shikastlangan edi. Hech kim biror so‘z demadi, ammo, albatta, har kim bu poyezdga qay tarzda bomba yog‘ilgani, poyezd o‘t ichida qolgani, fashistlarning uchoqlari quzg‘unday yog‘ilgani, oqibatda vagonlarda nimalar bo‘lganini o‘zicha tasavvur qildi. Qancha odam o‘lgan, qanchasi pastga sakragan, yana qanchasi jizg‘anak bo‘lib yongan ekan? Bu urushning ular duch kelgan dastlabki belgisi edi. Qabristondagiday jimgina uchrashdilar va qorong‘ulikda sokingina tarqaldilar. Ko‘pchilik askarlar tamakili sigareta-larini tutgancha, og‘ir sukutga botdilar.

Biroq yo‘lda bir qiziqarli voqea ham yuz berdi, Sergey



yana kimningdir yengidan tortib, gap qotganda, hamma qahqaha urib kuldi:

– Qara! Ko'ryapsinmi, bu yerda quduqlar qanaqa chiroyli, anavi usti yopiq quduqqa qara, o'ymakor naqshlar bilan bezalgan, bo'yoq berilgan! Naqadar go'zal-a!

Uning bu gapini qitmirona kinoyalar bilan qarshilashdi:

– Sen quduqqa qarama, naqshli-bezakli emish! Urushga ketyapsan, axir. Sen anavi quduqdan suv olayotgan jononga qara. Qara, oftobda qoraygan, maykasini, o'zini aytmaysanmi, orqasidan bir qara! Sen quduqni gapirasana-a! Eh, rohibbachcha, sening o'rmingda bo'lganimda, hozir eshelonda sakrab tushardim, qochoqlikda ayblashlaridan qo'rqaman-da!

Gurros kulga ko'tarildi.

Aytish kerakki, aslida ham uning shundoqligini – landoyurligi, mo'min-qobilligi, bolafe'lligini odamlar tezda tanib olishdi, – xudo bo'ydan siqmagan bo'lsa-da, qarash kerak bo'lmagan tomonga qaraydi, qomati ham kelishgan, yelkalari ham kengishgina, fikrlashi ham joyida, to'g'ri, Sergey ko'p tomondan hali o'smirligi, uyatchan-u hijolatpazligi ham rost. Sergeyning o'zi ham gohi-gohida bu haqda qisinib o'ylaydi, tortinchoqlikni tezda unutib, birdaniga dadillashgan, boshqa ishlarini aytmaganda ham, ayollar bilan tezda til topishib ketadigan o'rtoqlariga qarab havas qiladi. U-chi! Sal-pal sevgi ishorasi bilan bir voqea bo'luvdi, mana, u ham noqulay bir tarzda tugadi.

Mana, kecha vokzalda, poyezdga o'tirishda ham g'alati voqea yuz berdi, balkim, bu qiziqdir, balkim, qiziqmasdir... Butun yo'l davomida miyaga o'mashib olgan, ketay demaydi. Hammasiga shu narsa sababki, odamlar uning shunaqaligini, soddaligini, landovurligini darrov bilib olishadi, vassalom...

Gap shundaki, ularning qismi jo'nashi kerakligini kutilmaganda, shoshilinch, tong-saharda e'lon qilishdi. Nega bu qadar shoshilinch jo'nash kerakligini aytish qiyin, ammo buyruq shunaqa bo'ldi. Urush davom etayotgandi va bu izoh bilan hamma narsani tushuntirish mumkin edi. Buyruq,



baribir, buyruq-da. Shoshilinch tarzda jo'nash taraddudi ko'rildi. Askarlar tezda shahar tevaragidagi lagerdan rota-rota¹ bo'lib, piyoda yo'lga chiqishdi va Saratovning cheka ko'chalari orqali stansiyaga qarab yo'l olishdi. Jo'nayotganlarning ko'pchiligi asli armiyaga chaqirilgan saratovliklar edi. Ko'chalardan o'tarkanlar, ularning ba'zilar o'zlari yashagan yotoqxona va uylarning derazalari yonidan, kechagina o'zlari ishlagan fa'rikalarning darvozalari oldidan o'tib borardilar. Bu yerdan qanday qilib jimgina o'tishlari mumkin? Hamma voqea shu tufayli yuz berdi. Albatta, hech Kim safdan ajralib chiqishni istamasdi, komandirlar² ham bunga yo'l qo'ymasdilar, ammo qarindoshlari Bilan xayrlashib qolish maqsadida yoz bo'lgani uchun lang ochib qo'yilgan derazalarga qarab baqirganlar ham bo'ldi. Yoki yo'lovchilarni chaqirib, salom aytib qo'yishlarini tayinlashardi. Hovli changitib yurgan bolalar ham har tomondan to'planib, bir-biriga navbat bermay, chug'urlashib kelishardi: «Askarlar ketishyapti! Qizil askarlar urushga ketishyapti!» Bu yoqda ayllar – xotin-xalajlar, opa-singillar, qo'ni-qo'shnilar! Ularning hammasi, go'yo shu kuni kutib turganday, qay alpozda bo'lsalar, shundayligicha ko'chaga yugurganlar – kimdir yupqa kalishda, boshqasi butkul yalangoyoq yugurardi, sakrardi, kimdir, soch yuvib turgan, shekilli, boshiga ho'l sochiqni yopganча yo'lga chiqqan, birov g'ijim kuylakda askarlarga ergashib borardi. Ular safga tizilib borayotgan, etiklari bilan qasirlatib yer tepib borayotgan Askar bilan hamqadamlikda chopar, urushga ketayotgan yigitlarga yo'l oldidan safarlari bexatar bo'lishini tilashardi, ularni Xudoning o'ziga topshirishardi; go'yo bu askarlarning barchasi shu soatda bu ayollar uchun qondosh, aziz bo'lib qolgandi; ular yugurishar va birin-ketin, tinmay askarlarga tezroq g'alaba bilan uyga, Saratovga, Volga bo'yiga, jonajon yurtlariga qaytishlari zarurligini eslatishardi, bitta

¹ **Rota** (*nemischa*: Rotte – olomon; jangchilar guruhi) – odatda bir necha vzwoddan tashkil topgan, batalon tarkibiga kiradigan harbiy bo'linma, qism.

² **Komandir** (*lotincha*: commendare – ishonib topshirmoq, yuklamoq) – harbiy qism, bo'linma, kema va shu kabilarning boshlig'i.



sho'ring qurg'ur beva yig'lar va: «Stalinga¹ shon-sharaflar! Stalinga shon-sharaflar!», – deya qichqirib borardi. Keyin, stansiyaga yaqinlashgan sari ayollar izillay boshlashdi, ayriliq oldidan o'zlari haqida, o'z fojialari va taqdirleri haqida, sho'r-lari quriyotgani haqida eslab qolishdi, zero, ular frontga, ehtimol, abadiy ayriliq sari ketayotgan erlari, farzandlari uchun dod solasalar arzirdi, chunki ularning bundan keyingi hayotlari endi batamom urushga qurbonlikka keltirilayotgan edi, ular endi muqarrar ravishda umrlari oxirigacha beva bo'lib qolayotgan edilar...

– Qani, yetar, ayollar, baqirishni bas qilinglar! Harakatga xalaqit bermanglar! Tarqalinglar!

Ammo hech bir iltimoslar va qo'mondonlarning jiddiy buyruqlari ham ularga ta'sir etmasdi. Ular shu taxlit yurib borishardi – askarlar safda va ularning yon-atrofida shoshilib yugurayotgan Xotin-xalajlar va bolalar, ular Saratovning egri-qiyshiq qirg'oqbo'yi ko'chalaridan goh yuqori ko'tarilib, goh quyi enib borishardi. Qadam-baqadam Volgadan uzoqlashib borardilar...

Sergey ayrilish bu qadar og'ir bo'ladi, deb hech o'ylamagandi, u umirida birinchi marta odamlar ko'z o'ngida xayrlashayotgandi. Garchand yonida borayotgan askarlar singari o'zini dadil tutishga urinsa-da, ich-eti ezilardi, shunga qaramay, ko'zi tushgan har bir odamga jilmayib qarashga harakat qilar, hech qisi yo'q, uddalaymiz, deganday qo'l silkitardi. Boshqacha bo'lishi ham mumkin emas! O'zi esa ich-ichidan kuyunardi, axir yaqinlari bilan xayrlasha olmadi – ota-onasi keksayib qolgan edilar, Sergey ularning kenja farzandlari edi. Katta opasi Qozog'istonda, Xitoy chegarasidagi qandadir chegarachilar qo'nalg'asida yashardi, kichik singlisi – Veronika shu yerda, Saratovda yashar, Eri frontga ketgan, tirikmi-yo'qmi – noma'lum. Veronikaning yoshgina bolasi bor, o'zi ishga ketadi, go'dakka oxirgi paytlarda birdan munkillab qolgan onasi qaraydi, otasi – butun umri davomida volga-

¹ Stalin (Jugashvili) Iosif Vissarionovich (1878-1953) – SSSRning mustabid hukmdori. 1922-1953 yillar Kompartiya MK bosh kotibi.



bo'yidagi neft qazib chiqaruvchi korxonalarda idora xodimi bo'lib ishlagan Nikolay Ivanovich Voronsov – o'sha kunlari anchadan beri betob bo'lib, kasalxonada yotgan edi. Bularning barchasi haqida Veronika shahar tashqarisidagi askarlarga harbiy burchni ado qilishga doir saboq berilayotgan lagerga, Sergey xizmat qilayotgan harbiy qismning dala pochtasiga yozgan edi. Hatto yaqin qarindoshlarga ham lagerga tashrif buyurishga ruxsat etilmas edi, shuning uchun Veronika o'z maktublarida boshlariga tushgan hamma tashvishlarni yozar, hamma yerga – ishga, uyga va kasalxonaga ulgurish tobora qiyinlashayotganini yozardi. Veronika hamisha ko'ngilchan qiz bo'lgan, u hamma narsadan xabardor, hamma uchun kuyunardi. U singlisini ochiq chehraligi, haqg'o'yligi, hamma narsani boricha yozishi uchun ham yaxshi ko'rardi. Biroq Sergey singlisining so'ngi xatiga javob bermadi, qachondir javob berish-bermasligini ham bilmaydi, xat unga juda yomon ta'sir qildi. Singlisining bu so'ngi maktubi unda g'alati, qandaydir noqulay his-tuyg'ularni paydo qildi. Veronikaning yozishicha, bularni u qaydan bila qolgan ekan, uning sobiq sinfdoshi, yettinchi sinfdan o'qishganda Komintern¹ haqida, Ispaniyada kominternchi jangarilar ishchi-dehqonlar baxt-saodati uchun kurashgani haqida she'rlar yozgani va ularni Moskovga jo'natgani, Moskovdan minnatdorchilik xati olgani, xatni hammaga o'qib ko'z-ko'z qilgani hammaga ma'lum bo'lgach, bu shov-shuvli voqeadan so'ng maktabda hamma «kominterka» deb ataydigan Natashka, ha-ha, ana shu kurashchan va cho'rtkesar Natashka-kominterka hozir jamoatchilik faoliga aylangan, hamma yig'ilishlarda nutq so'zlaydi, hamma uni biladi va u ham hammani biladi. Aynan o'sha paytda, urush boshlanishi oldidan, bahorda bir voqea yuz berdi. Bir kuni u Natashka bilan maktabda uyushtirilgan kechada raqsga tushdi. Qizning o'zi Sergeyni raqsga tortdi, u deraza oldida raqsga tushayotganlarni kuzatib turgan edi, Natashka

¹ **Komintern** – kommunistik xalqlararo birlashtiruvchi xalqlararo kommunistik partiyalarini birlashtirgan. faoliyatida razvedka ishlarini ham olib borgan xalqaro tashkilot.





birdan o'z juftini qoldirib, unga tomon keldi va yigitni dadil qo'lidan tortqiladi: «Ketdik, Seryoja, hammadan ham ko'ra sen bilan raqs tushgim kelyapti!» Garchand qiz bor-yo'g'i uning yelkasidan kelsa-da, yigit yetakchisiga ergashgan pioner singari unga itoat qildi. Bu qizda bunchalik o'ktamlik qay yerdan zohir ekan? Yigitga xuddi shu taklifni kutib turganini bilganday tashlandi, Sergeyning issig'i oshib ketdi. Ular raqs tushayotgan olomonga qo'shilishdi. Hammasi shu yerdan boshlandi

Sergey hali shu paytgacha bir shirin azobda qoldi – musiqa ohangida raqs tushayotganlar orasida boshi aylandi, go'yo raqqos va raqqosalardan vujud va nafasni yondirib, ko'zga ko'rinmas bir otash ufurayotganday edi, bosib kelayotgan ehtirosga berilish istagi qalbdagi chirpirab, jo'sh urardi, ayni paytda raqsga tushuvchilarning gavjumligidan tortinar, bu olomondan qochib ketishni, Natashka bilan odamlarning nazari tushmaydigan darajada yuqoriga, osmonga uchib chiqishni, uni bag'riga bosganча, yuqoriroq va yuqoriroq uchgisi kelardi. Natashka-kominterka shunday go'zal aylanardiki, go'yo u charmdan yasalganday qayishqoq, yengil edi, yigitni hayratga solgan narsa yana shu bo'ldiki, uni boshida ushlab turgan tortinchoqlik qayoqqadir yo'qoldi, uning o'mini o'zaro yaqinlik egallab borardi – yurak tinmay dukullar, bu dupurlashni jilovlashning imkoni yo'q edi. Bu tortishuv kuchi uni tobora o'z zabtiga olar, qizning qaynoq nafas ufurib turgan yuzini, garchand yaqin turgan bo'lsa-da, payqay olmasdi va hayajon bosib, nimalar bo'layotganini tushunmay borayotgandi. Faqat qiz to'satdan: «Bilaman, Seryojka, sen meni sevasan, sen men bilan bo'lishni orzu qilasan!» – deganidan so'ng, Sergey uning qattiq qarab turgan ko'zlarini va atayin yaqinlashgan chehrasini ko'rdi.

Sergey juda hijolat bo'ldi, u buni kutmagan, ishning bu yoqqa ketishiga tayyorlanmagan edi, yaxshiyamki, o'zini yo'qotib qo'ymadi, sur'atni pasaytirmay, aylanishda davom etdi. Biror nima deb javob berishni, boshqa yigitlarga o'xshab



sharttiki, oshkora biror gapni aytib yuborgisi keldi – ular aytganda, nafas ichga tushib ketadi, Sergey aytsa, hammasi jiddiy bo‘lib eshitaladi. Avval bu haqda, seni qanchalik sevishim haqida o‘ylamaganman, ammo sen menga yoqasan, juda yoqasan, demoqchi bo‘ldi. Biroq Natashka, buni bilgan-day, tashabbusni Yana qo‘liga oldi, uning gapini boshqacha qilib aytib qo‘ya qoldi: «Javob berma, Seryoja, aytishga urinma! Hazillashdim, – qiz musiqa ohangida aylana turib, boshini chayqagan holda so‘z qotdi, – men seni yaqqol ko‘rib turibman, nima demoqchiligini bilaman». Natashka raqsga tushayotganlarning bir chetida to‘xtadi, hammaga eshittirib gapirdi. «Men hammani yaqqol ko‘rib turaman, kimning nimalar haqida o‘ylayotganini bilaman, – davom etdi u. – Tuman hokimiyatida menga hushyor tashviqotchi-komsomol¹ qizsan, deyishadi. Seni ham ko‘rib turibman. Sen meni sevasan va yaqinda bu haqda menga o‘zing aytasan! Sen, axir, hamisha shunaqasan. Boshqalarga o‘xshamaysan. Uzoq o‘ylaysan. Oy, juda uzoq o‘ylaysan! Sen to harakat qilguncha!.. Men hammasini bilaman. Sen hali qizlar Bilan hali hech narsa qilmagansan! Shunqami? Ha, bu aniq! Yashirib o‘tirma! Men ko‘zlaringdan ko‘rib turibman! Men seni bilaman. Men hammasini bilaman. Yaqinda hamma senga osila boshlaydi! Bu qanday ajoyib! Ammo, sen menga qara ! Men birinchiman! Sen meniki bo‘lasan!» Ular Yana raqsga tusha boshlashdi. Natashka jim bo‘lay demasdi. «Hamma yerga birga boramiz, – derdi u, – Men yig‘ilishlarda nutq so‘zlayman, sen bu haqda gazetalarga yozasan, jurnalist bo‘lasan. Sen yaxshi yozasan, buni ham bilaman. Tushunasanmi o‘zi – men jangovor qizman, zo‘r nutqlar so‘zlayman, sen esa juda aqllisan, menga aynan shunaqasi kerak. Tushudingmi?»

Ana shunaqa gaplar, bu hazilmidi yoki jiddiy gapmidi, bu haqda o‘ylab ko‘rish kerakmi yoki butkul unutish zarurmidi, Sergey buni bilmadi, ammo u o‘sha kecha uxlay olmadi, er-

¹ **Komsomol** (ruscha: «Коммунистический союз молодежи») birikmasining qisqartmasi) – Sobiq Ittifoq davrida kommunistik Yoshlar uyushmasi a‘zosi.



talabgacha go'yo uni

Elektr toki urib ketganday to'lg'onib chiqdi. Keyin u qizga darhol xat yozishga qaror qildi-yu, so'ng xatni ham yirtib tashladi. Jiddiy yozishning o'rni emasdi, shunchaki, ko'ngilxushlik uchun, qizga erkalanish ilinjida yozishning Sergeyga qizig'i yo'q.

Ancha kunlar o'tdi, u biroz tinchlandi. Keyinchalik, maktabni tugatganlaridan so'ng, Sergey pedinstitutga kirish harakatida bo'lgan, urush allaqachon boshlangan paytlarda, ular ikki marta yo'l-yo'lakay ko'rishib qoldilar, ammo endi unaqa gaplardan darak yo'q edi, esda qolarli biror gap bo'lma-di, muhabbat haqida-ku, umuman gaplashishmadi. Har gal Sergey o'shanda, raqs paytida boshlangan gapga qaytishlarini intiqlanib kutdi. Ammo na o'zi gap boshladi, na qiz biror og'iz so'z qotdi. O'sha voqeani butkul unutish to'g'raroq bo'lardi. ammo bu yoqda harbiyga chaqiruv qog'ozi kelib qoldi-yu, hammasi teskari bo'ldi. Sergey o'zini xotirjamlikka, unutishga ko'ndirolmadi, qiz yashaydigan ko'p qavatli uy tomonga yurdi, ezilib, hayajonlanib, ketaymi-qolaymi degan istaklar o'rtasida chilparchin bo'lib, qiz kelgunicha kutdi – qiz uyga qaytardi. Hamma narsa qandaydir oddiroq kechdi. Gulxan o'chganida shunday bo'ladi. Uchquni bor, ammo olov alanganlanishi uchun quruq shoxchalarni topib qalash kerak. Sergey harbiyga ketayotganligini va u bilan xayrlashgani kelganinip aytdi. Qiz buni butkul xotirjamlikda eshitdi, endi hamma frontga ketayotganligini, safarbarlik boshlanganini, hozir esa shoshib turganligini, ishlari ko'pligini, ammo unga, albatta, xat yozishini aytdi. Tezroq dala pochtasining manzilini xabar qilsa bo'ldi. Sergeyni shu gap ham quvontirib yubordi, go'yo-ki u xuddi shu uchun – yozishma haqida kelishib olish uchun kelganday edi, albatta, xatda ko'p narsani yozsa bo'ladi, ko'z-ko'zga tushib turganda aytib bo'lmaydigan gaplarni ham maktubda yozish mumkin. Xatda ko'pincha tik qarab aytishga yurak botinolmaydigan gaplarni ham bitish mumkin. Biroq Sergey o'z xatlariga, u ketma-ket uchta xat yozgandi, va'da



qilingan javoblarni olmadi, birorta xam javob xati kelmadi, holbuki u intiqlanib qizdan xat kutdi, xayolida turli iboralarni, qizning kelishi kerak bo'lgan xatlariga javob bo'lishi mumkin bo'lgan fikrlarni pishitib yurdi. Askarlikning tinkaquritar tashvishlari ichida qizdan javob olish borasidagi umidlari tamoman so'nib bo'lganda, singilchasi Veronika, qay yerdan bila qoldi ekan, Natasha-kominterka erga tegayotganligini, aniq biladigan odamlarning aytishicha, kuyov undan ancha katta yoshdagi, bir yil avval xotini o'lgan, frontdan qolish uchun bronil¹ bor kishi ekan. Natasha beva qolishni istamasdi. Xat davomida Veronika shunday yozgandi: «Sereja, jonajon akajonim, bu xabardan ezilib yurma. Men seni yaxshi bila-man, har xil romanlarni o'qiyverib, hamma narsaga kitob varag'idan qaraydigan bo'lib qolgansan, o'ylab ichingni qizitasan. Bunaqa qilmagin, aka. Tushunasanmi, sen boshqachasan, u esa butkul boshqacha. Sizlarning boshdan oyoq boshqa-boshqa odamsiz. Qizni ham ich-ichingda qoralama, erga tegishni istagan bo'lsa, bu uning ishi. Sizlar bir-biringizga mos emas edinglar. Menga ishon. Uyga tirik va salomat kela qolsang edi, bu urush tezroq tugay qolsaydi, sening baxtli bo'lishinga va ajoyib qizlarning bittasi sen bilan baxtiyor bo'lishiga juda ishonaman... Sereja, bunga shunchalar ishonamanki, bilmadim, yana boshqa nimaga shunchalar ishonar-kinman! Faqat ezilma, jonim akam. Tezroq bizga, uyga qayt... Bu urush tezroq tugasin, tezroq... » Ana shunaqa xat. Ha, rostini aytganda, u va Natashka-kominterkaning o'rtasida ke-yinchalik kuyunib qoladigan aydarlik hech narsa bo'lmagan. Ammo singlisi uni har holda tinchlantirib qo'yishga qaror qilgandi.

Endi bu Natashka bilan yuz bergan o'ng'aysiz voqea uning uchun xira tortgan tushday, o'tgan o'n to'qqiz yillik hayotining o'tgan qismidagi unutilgan saboq singari ortda qolgandi. U urushga ketayotib shu hislar bilan yo'lga otlangandi, jo'nab ketar ekan, u o'zini-o'zi tushunmas, qalbida ham

¹ Bron (ruscha) -- harbiy xizmat yoki urushga qolish uchun beriladigan imtiyoz.



ayriliqdan achinish, ham murg'ak qalbi ishonishga tayyor bo'lgan tushunarsiz hislardan xolos bo'lish, tozalanishga o'xshash murakkab tuyg'ular jo'sh urardi. U endi o'z bolaligi o'tgan shahardan askarlar bilan saflanib, yo'l-yo'lakay ergashib chopayotgan ayollar va bolalar qurshovida to'ppa-to'g'ri urushga ketayotgandi. Bu odamlar orasida singlisi veronikaning yo'qligidan afsuslandi, agar ularning shoshilinch frontga ketishlarini eshitganda, u, albatta, nima qilib bo'lsa ham, ko'rishib, xayrlashib qolish uchun chiqardi.

Ammo, hamma vaqt ham aytishadi-ku: dunyo mo'jizaga to'la. Ehtimol, bu aynan o'shanday bir voqea edi – taqdir yigitning kuzatuvchilar orasida singlisining yo'qligi tufayli huvullagan qalbini butkul boshqacha kutilmagan bir tarzda to'ldirdi. Ammo bu haqda keyinroq, yo'lga tushganlaridan so'ng, vagonlarga joylashib olib, nafasini rostlagach, o'yladi.

Ular hali vokzal tomonga piyoda ketayotganlarida askarlar tomon talpinib kelayotgan ayollar orasida bir lo'li qiz ko'rinib qoldi. Uning qayoqdan kelib qolgani yolg'iz xudoga ayon, to'g'ri, yozda Saratovda lo'lilar har doim ham serob bo'lardi. Bu lo'li o'zining qoramag'iz aft-angori, yugurganida shaqirlaydigan, silkina-silkina osilib turgan mis sirg'alari, ochiq yelkasida sirg'algan yorqin ro'moli va deyarli yerga tegib-tegmay borayotgan yubkasi bilan ko'zga tashlanar edi. Nima qilibdi, lo'li, baribir, lo'li-da! Ko'chadagi odamlarning taloto'pi va harakatiga hamohang holda, u ham safning yonida borar, nimanidir imo-ishora qilib ko'rsatar, baqirar edi, go'yo safdagilar orasida kimnidir izlayotganday edi. Unga javoban askarlar yelka qisib, bir-birilariga ko'z solar, yonlaridagilarni turtkilardilar, qara, lo'li qiz seni so'roqlayotgandir. Safda borayotganlardan biri o'zini tiqishtirdi:

– Ey, lo'li qiz, ey, bechora, men bu yerdaman! Eshit-yapsanmi? Axir, bu menman! Sen fol ochish uchun meni qidiriyapsanmi? – Askar lo'li qizning javobidan hayron bo'ldi, ha, bir kun kelsa, senga ham fol ocharman, hozir esa menga



kim kerak bo'lsa, uni o'zim topib olaman. Ajab – u nima degan bo'lsa, shunday bo'ldi.

Harakatga qo'shilgan lo'li qiz, ko'p o'tmay, ehtimol, xudo bergan ichki sezgisi bilan, balkim, o'z qalbining amri bilan izlagan odamini topdi. Safda qadam tashlab borayotganlarning hayron qoldirgan va qiyqiriqqa sabab bo'lgan narsa shu ediki, lo'li qizning tanlagani Sergey bo'lib chiqdi. Nimaga aynan u? Nima uchun lo'li qiz, qatorda yugurayugura, aynan unga, Sergeyg murojaat qildi:

– Eshit, yigit! Eshit, juvonmard, ey sen, qoraqoshligim, chetroqqa chiq, qo'lingni uzat, safaring oldidan bir fol ochib qo'yaman, baxtingdan ochaman!

Sergey qatorda chetdan uchinchi bo'lib turgandi. Ammo gap uning qay yerda turganida ham emasdi, gap shunda ediki, u sira kutilmagan bunaqa vaziyatda nima qilish kerakligini bilmadi. Avval hech bunaqasiga duch kelmagan, shu paytgacha hali hech kim unga fol ochmagan, oilada ham hamma-lari bunaqa sehr-u jodulardan yiroq edilar – otasi ham hech qanaqangi qartalarga ishonmas, onasi bo'lsa har xil irim-sirimlarga bee'tibor edi, endi esa qaydandir bu lo'li qiz chiqib qoldi.

– Kerakmas! Men fol ochtirishni istamayman! – u qizga baland ovozda baqirdi, kulimsirab, yelka qisdi, o'zining rad qilganidan hijolat bo'ldi, kechirim so'rash kerakligini tushunsa-da, nega va nima uchun hijolat bo'lish lozimligini bilolmadi, bu yoqda esa safdoshlari qitiq patiga tega boshladilar – mana, qaranglar, lo'li qiz kimga fol ko'rishni biladi, ruhoniymizni tanladi. Bo'lmasa, kimni tanlasin! Bu yigitsa, axir, Xudoga ishonadi, aynan unga fol ochish kerak!

Ammo lo'li qiz bilganidan qolmadi:

– Menga qara, yigitcha, bosh tortma – bu taqdir!

Saf chetida borayotganlardan kimdir qizga aytib qo'ydi:

– Uning ismi Sergey.

– Sergey? Ay, Sergey, azizim, ey qoraqoshligim! Men senga gapiryapman – bu qismat, bosh tortma, Sergey, sen hali





juda yoshsan, sening taqdiringni aytib beraman! Chin ko'ngildan aytaman. Nima bo'lsa, hammasini aytaman!

Biroq shu yerga kelganda qaysidir bir dalli askar shovqin ko'tardi:

– Hoy, lo'li qiz, xalaqit berma! Ko'rmayapsanmi – urushga ketyapmiz.

– Xalaqit bermayman, yigitlar, men faqat kaftlariga bir qarayman, yurib ketayotib bir qarasam, bo'ldi!

– Bas qil, hoy, jonga tegding, xalaqit berma, senga aytayapmiz!

Lo'li qiz yosh emasdi, ammo unchalik qari ham emasdi. Sergeyga shunday tuyuldiki, uning chehrasida lo'lilarcha odatiy makkoronalikdan asar ham yo'q edi, aksincha – xuddi singlisi Veronikaning chehrasidagiday ochiqyuzlilik, mehribonlik barq urib turardi. Veronika doim kimgadir yaxshilik qilish payida bo'ladi, shuning uchun bir nafas tinim bilmaydi. Ha, bu lo'li qiz Veronikaga juda o'xshab ketardi – ko'zlaridan, to'g'rirog'i, ko'z qarashlaridan u Veronikani eslatar, Sergeyning nazarida, ayniqsa lo'li qizning: «Senga singil sifatida aytaman! Akasiga aytayotgan singilday aytaman!» – degani uning yuragiga jiz etib tegdi.

Lo'li qiz haydadir olomon orasida aralashib, ko'zdan pana bo'lganda, Sergey o'zidan o'ksindi, qizga ichi achidi, javob qaytarsa bo'lardi, nega u bu qadar uyatchan yaraldi ekan-a. Chakki bo'ldi-da.

Ayni paytda ular stansiyaga yetib qolgan edilar, safmasaf kirib keldilar, rota ketidan rota, vzvod¹ ortidan vzvod stansiyaga² kirdi, atrofda askarlar ortidan kelgan saratovliklar to'da-to'da bo'lib, baqir-chaqir, shovqin-suron qilishardi.

¹ **Vzvod** (*ruscha*: «взводить») so'zidan – yuqori ko'tarish) – 1) rota, batareya tarkibiga kiradigan kichikroq bo'linma; 2) qurolning tepkini ko'tarishga imkon beruvchi kichikroq moslamasi.

² **Stansiya** (*lotincha*: statiō to'xtash joyi; bekat) – 1) temir yo'l poyezdlari yoki quruqlikdagi boshqa transport vositalari to'xtaydigan joy; shu joyga tegishli inshoot va xizmatlar majmui; 2) maxsus vazifa bajaruvchi ayrim muassasalar, korxonalar yoki ilmiy-tekshirish ishi olib boruvchi muassasalar nomi; 3) bortida ilmiy asbob-uskunalari bo'lgan kosmik apparat.



Eshelon allaqachon yo'lda turar, tovar vagonlarning eshiklari askarlarni o'tqazish uchun lang ochilib turardi. Uzun-uzoq poyezdning vagonlari ko'p, oxiri ko'rinmasdi. Ana shu vagonlarda frontga ketish kerak edi.

Safaroldi taloto'pi boshlandi, qaysi vzvod qaysi vagonga kirishini taqsimlashar, askarlar poyezd yoqalab shovqin-suron bilan u yoq bu yoqqa yurishar, ayollar va bolalar oyoq ostida o'ralashardi, ularni hech bir kuch quvib yuborolmasdi.

Yuklash ancha uzoq davom etdi. Perronda ham issiq, ham tiqilinch edi. Poyezdga chiqish uchun navbatini kuta-kuta Sergey lo'li qizni unutayozgan edi, qiz yana odamlar orasida paydo bo'ldi. Qiz balo ekan, baribir, Sergeyni topdi:

– Ey, Sergey! Men seni izingdan kelganman, Sergey! Yo'q, dema, yigitcha, meni, lo'li qizingni eshit. Taqdir yo'l oldidan senga fol ochishimni buyuryapti. Rad qilma, urushga jo'nayapsan, qismatingni bilib ket.

Sergey hatto sevinib ketdi:

– Yaxshi. Fol ocha qol, agar, aytganingday, bu shunchalik zarur bo'lsa, – Sergey yukxaltasini oyog'i oldiga qo'yib, avtomatini yelkasiga osib olgan holda, qizga qo'lini, o'ng kaftini uzatdi.

Mana shunday, jo'nash oldidan, vzvoddoshlari qurshovida o'sha alamshumul fol ochish yuz berdi. Lo'li qiz kaftdagi chiziq'larni diqqat bilan kuzatar, nimalarnidir shivirlar, lablari qimtingan holda, bosh chayqardi:

– Oy – to'xta! Buyuk jang bo'ladi, hali hech kim ko'rman, hech kim eshitmagan jang. Oy, qismat, qismat! Qon sachramagan faqat osmondagi quyosh qoladi, tulpor chavondozsiz yo'rtib ketadi, – u hech kimga ham qaramasdan so'zlaridi, keyin Sergeyning ko'zlariga tik qaragancha, qo'shib qo'ydi, – tushunarsiz bir ishqni boshdan kechirgansan. U senga behuda g'am keltirgan. Sen juda bokirasan, yozilmagan oq qog'ozday tozasan.

Shu yerga kelganda tevarakdagi qiziqsinib turgan askarlar darhol kinoya qilishga tushishdi:



– Aniq, bu bokiramiz oshiq bo'lgan, ammo hech narsa chiqmagan!

– Hech balo bo'lmagan! – boshqa bir askar yasama tarafkashlik bilan gap tashladi. – Sizlarga faqat tish qayrash bo'lsa. Bu ruhoniy yigitchamiz azob chekkan, ko'rinib turibdiki, aybsiz azoblangan, uni shu kuyga solgan qiz tushmagur juftakni rostlagan! Bu esa, mana, bokiraligicha qolib ketavergan!

– Ularga quloq solma, yigitcha, meni eshit, – lo'li qiz uni o'ziga qaratdi. – Endi chap qo'lingni uzat va faqat menga quloq ber.

Sergeyning chap kaftini o'rganar ekan, lo'li qiz jiddiy-lashdi, bir lahza sukut saqlab turdi-da, so'ng tantanali ravishda e'lon qildi:

– Sen o'lmassan! O'zim ham shunday deb o'ylovdim! Yuragim aytib turgan edi. Mana, ko'r – sen o'lmas insonsan! Sening yulduzing shunaqa! Bilgan ekanman! Shuning uchun ortingdan kelayotgan edim!

Tevarakdagi odamlar g'imirlab qolishdi. Ayni paytda Sergey hech bir ma'nosiz jilmaydi, u nima qilishini bilmasdi – xursand bo'lsinmi yoki iltifot bilan ta'zim qilisinmi, kulsinmi, – endi qo'lini tortib olaman deb turuvdi, bitta Kuzmin degan kimsa gapga aralashdi. Shunaqa bir bachkana, maydagap erkak bor edi, birov kutilmagan nimadir gapni aytsa, albatta, aralashardi, xiralik qilardi. Pand-nasihat qilishni xush ko'rardi.

– To'xta, lo'li qiz, to'xta, nimalar deyapsan, azizam, – u boshini keskin chayqadi. – Sen boshqa yoqqa o'tlab ketding. O'lmas deganing nimasi? Biror narsani tushunasanmi o'zing? Birorta odam o'lmas bo'lishi mumkinmi? Bu gap qayoqdan chiqdi? Dunyoda hamma odam o'larkan-da, u bita o'lmas ekan. Qara-ya! Darvoqe, biz tomoshaga ketayotganimiz yo'q, urushga ketyapmiz, Kim bilsin – qay birimiz o'qqa uchrarmiz, qay birimiz tirik qolarmiz. Frontda hozir o'lim odam tanlayotgani yo'q, sening folingga qarab o'tirgani ham yo'q.



Hammani birvarakayiga qiryapti. Bizni masxara qilishing nega kerak?

– Men mazax qilmayapman, taqdirларingni fol ochyapman. Uning yulduzi o'lmas-o'chmas yulduz! Peshonasiga bitilgan, – lo'li qiz ortga chekinay demasdi. Keyin lo'li qiz u qadar tushunarli bo'lmasa-da, deyarli hammani qoniqtiradigan bir gapni aytdi:

– Taqdir o'limdan yuksakroqdir. Taqdir taqdirni yetaklab keladi, o'limdan esa hech narsa kelmaydi. Bu yigitning yulduzi o'lmas, taqdiri shunaqa... Uning yulduzi abadiy!..

Kuzmin yana ancha vaqt ming'irlab turdi, qo'llarini paxsa qilib, mitingda nutq so'zlayotganday, lo'li qizning foli bema'ni ekanini dalillash payida bo'ldi, biroq u haq bo'lsa-da, askarlar nima uchundir Kuzminga emas, folbinga ishonidilar. Jo'nab ketayotganlarida, vagonlarga o'tirish kerak bo'lgan paytda, ko'pchilik lo'lining qo'lidan ushlab xayrlashishdi, lo'li qiz jo'nashning oxirigacha, poyezd yo'lga tushgunicha ham turdi, keyin boshqa ayollar va bolalar qatori yurib ketayotgan poyezdning ortidan ergashib yugurdi, to poyezd bekatdan tamom uzilib jo'nab ketgunicha, Sergeyga qo'llarini silkitib turdi...

Juda issiq edi. O'sha kecha yo'lda uyqu kelmadi. g'il-diraklar tun bag'rida taqillab borardi, parovoz uzundan uzoq chinqirab ovoz berardi, uning chinqirig'i yurakka adadsiz, dilni uvushtiradigan sog'inch va xavotir solardi. Tarix to'lqini jahon urushiga tomon oqizib ketayotgan Sergey ko'p narsalarni o'ylab borardi. Xayoliga kelgan boshqa ko'plab narsalar qatorida, u dam-badam lo'li qizni ham eslab qo'yardi. Bu g'aroyib follar ochadigan g'aroyib lo'li qiz qayoqdan paydo bo'ldiekan. Uning bir gapi xayolda muhrlanib qoldi: «Qon sachramagan faqat quyosh qoladi va tulpor chavandozsiz ketib boradi...» Bu nima degani ekan, nimani anglatarkin? Tushunarsiz va sirli gap. Qon sachramagan faqat osmonda quyosh qolishi uchun nima yuz berishi kerak? Chavandozsiz tulporchi? Bu nima degani? O'lmas-o'chmas yulduz-chi? Bu qanaqa





yulduz? Uning nima daxli bor? Bu nima? Bu yulduz o'zi qayerda? Qay yerda makon topgan? Balkim, bularning bari afsonadir. Shunday bo'lsa kerak. Yulduzning insonga nima aloqasi bor? Agar gap samodagi yulduzlar haqida bo'lsa, yulduz qayda-yu, inson qayda? Yo'q, hech bir aloqasi yo'q. Yulduzlar o'z osmonida, odamlar o'z yerida. Ammo taqdir bor-ku? Taqdir taqdirga bog'liq. Taqdirning o'zi nima? Taqdir taqdirni qanday yetaklab keladi? Qanday qilib bunday bo'lishi mumkin?..

G'ildiraklar temir izlarga urilib taqillardi. Askarlar o'rindiqlarda cho'zilgancha, xurрак otib yotardilar. Oy goh eshik tirqishlaridan mo'ralar, goh bulutlar orasida g'oyib bo'lardi, yulduzlar poyezdning ketidan miltirab qolardi...

Buni qara – bu lo'li qiz Natashka-kominterka haqida qanday bildi ekan, yigitning xatlar yozgani, oqibatda hech narsa chiqmagan haqida qanday fol ochdi ekan. Hammasini aniq aytdi. Ha, lo'li qiz aytganday – behuda qayg'u. Demak, qayg'u ham behuda bo'lar ekan. Oldinda nimalar kutyapti? Frontda holi ne kechadi? Albatta, qo'rqinchli bo'lsa kerak. Saratovga kelgan yarodor janchilar urush haqida gapirib berishgan edi. Endi, mana, uning o'zi urushning nimaligini o'z ko'zlari bilan ko'radi...

G'ildiraklar taqillar, uyqudan esa darak yo'q edi. U yana xayolga botdi, ha, hammaning va har bir odamning tepasida turgan qandaydir kuch bor – taqdiri azal deyishadi. Axir kimdir taqdirni shunday – taqdir deb atagan. Hech Kim uni to'xtatib ham qololmaydi, tushuntirib ham berolmaydi. Ammo taqdir qayerda o'zi? Ehtimol, urush ham – taqdiridan, yashash yoki yashamaslik, tirki qolish yoki halok bo'lish, g'alaba yoki mag'lubiyat – hammasi taqdirandir? Shunday emasmi? Mana, bu odamlarning barchasi frontga ketishyapti, taqdir ularni urushga yetaklayapti. Shuning uchun ular hozir eshelonda, taxtada cho'zilgan kuyi yotishibdi, poyezd ularni bor-yo'q tezligi bilan fashistlarga qarshi urush avjiga chiqqan tomonga olib bormoqda. U yoqda nima bo'larkin? Yana



taqdirmi? O'ldirisharmikin yoki yo'qmi? Kim kimni yengishi shunga bog'liq. Kim-kimni o'ldirishiga bog'liq. Hamma urush tezroq tugashini, ochlik chekinishini istaydi. Ular ko'chada ketib borishayotganda, ayollar shu haqda gapirib chuvullashgandi, hatto bolalar ham shuni tilagan edilar. Buning uchun urushish kerak, urushni tugatish uchun kimnidir o'ldirish kerak, g'alaba qilish kerak. Demak, shunday. Uyda otasi va onasi ham shu to'g'rida gap talashishdi. Uni harbiy xizmatga chaqirish to'g'risida chaqiruv qog'ozi kelganda, ular tayyorgarlikni, yig'ishtirishni boshlashdi, ertalab harbiy komissarlikda bo'lish lozimligini muhokama qilishdi. O'tirg'ichning bir chekkasiga qo'ngan onasi qo'lini ko'ksiga qo'yib: «Seryojkaginam, faqat hech kimni o'ldirma, qon to'kma!» – dedi.

Nima uchun bu gapni aytdi? Bexosdan aytib yubordimi yoki oldin uzoq o'ylab olganmikin? Onasining bu so'zlarni uning ko'ziga tik qarab, go'yo hozirgina olis bir yerdan kelganday, hozirgina ostona hatlab uyga kirgan-u, butun yo'l davomida o'ylab kelgan fikrini aytgani endi hech qachon yodidan chiqmaydi, bir umrga esida qoladi. O'zi ham go'yo onasini umrida birinchi marta ko'rayotganday edi, uning avvalgi tillarang chaqnog'ini yo'qotayotzgan ko'zlarini, ajin bosgan yuzlarini, puturdan ketgan satin ko'ylakdagi mung'ayib turishlarini, shoyi ro'mol sirg'algan yelkalarini endigina to'satdan yaqqol ko'rayotgandi. Allaqachon tanish bo'lgan narsalar uning uchun g'alati tarzda boshqatdan ochilayotgandi – Volgabo'yi neft quduqlari bo'ylab sang'igancha o'tgan butun hayotlari, oyoqyalang bolakay bo'lib yugurganlari, basavlat, sarvqomat bo'lgan onasining mallarang sochlarini boshida jamlagancha doimo uy-ro'zg'or, bola-chaqa, maktab va erining doimiy qand kasalligi tashvishida yugurishlari, bularning bari, ayon bo'lishicha, bir kun kelib, uni harbiyga kuzatayotib o'g'liga manna shu gapni aytishi uchun zarur bo'lgan ekan. Onasining urushda hech kimni o'ldirmaslik, qon





to'kmaslikka chaqirgani o'shanda uni juda ajablantirgan edi va u mujmalgina javob qilib qo'ya qolgandi:

– Nimalar deyapsan, ona! Bu gaplar nimaga kerak. Men harbiyga ketyapman, – gapdan qochish uchun taxmondagi kitoblari va darsliklarini titkilashga tushdi. – Oyi, bu yerda kutubxonadan olingan kitoblar turibdi. Men ularni ajratib qo'yaman, Veronika ularni olib borib topshirsin.

Ammo bu suhbat davom etishi lozim bo'ldi, chunki gapga otasi ham qo'shildi. Ha, Nikolay Ivanovich hamisha keskin va cho'rtesarlik bilan gapirardi, qiziqqon edi, salgina- ga olovlanib ketar – darg'azab bo'lguncha bahslashar, ehtimol, shuning uchundir, boshliqlar bilan chiqisholmas, jigarbag'ri ezilib og'rirdi.

– O'ldirma, deganing nimasi! – dedi u g'azab otiga minib. – Qanday o'ldirmaslik, qon to'kmaslik mumkin! Buni qaray! O'zi u qayoqqa ketyapti? Urushga-ku, axir. Eh, onasi, o'zing ham boplab gapirasan-da, – xona bo'ylab chekishlik tamaki izlay boshladi. Onasi tamakini bekitib qo'yar, otasi doimo hayajonlanganda chekardi, tamaki bargini ezg'ilab berish kerak bo'lardi. Onasi otasiga doim chekkani tufayli shunaqa ozg'in va jizzaki ekanini ta'na qilardi.

– Faqat shu zormandani chekmagin, Kolya, – u eriga o'tindi, – o'zingni ayagin. Qachongacha chekish mumkin.

– Ha-ha, Sergeyga aytgan bu gapingdan keyin chekmay bo'ladimi? U ertaga frontga ketadi. U yoqda nima qiladi?

– Shuning uchun aytyapman-da. Mayli, aytganlarimni xudo bilsin. Hammaning tilida shu bo'lib qoldi – o'ldir, o'ldir! Dushmanlar bizga o'lim keltirishmoqda, biz ularga – dushmanlarga o'lim! Keyin bu dunyoda qandoq bosh ko'tarib yashaymiz – hammaning qo'li qonga botsa, dunyoda faqat qotillar qolsa? Nima men ham nimalarni o'ylayotganingni tushunmaymanmi, o'ldirmasang, seni o'ldirishadi, o'ldirsang – barbir qotilsan. Mana, kuyovimiz Anatoliy nima bo'ldi, tirikmi, o'likmi – bilmaymiz, yo uni o'ldirishgan, yo u o'ldirgan? Veronikaga ham aytishga qo'rqaman. Hech bo'lmasa,



o'z o'g'limga dilimdagini aytay, – onasi sassiz, unsiz yig'lardi, o'z savollariga javob topolmasdan, o'z fikrlariga o'zini ishontirolmasdan yig'lardi.

– Mana, qara, – kinoyali ohangda otasi gapida davom etdi, – shunaqa gaplarni gapirasanki, odam lol qoladi. Sening bu gaplaring uchun xalq dushmaniga chisharib, Sibirga surgun qilishadi. Hozir jahon urushi ketayotgan payt, Kim zo'r chiqsa, o'sha yutadi: yo biz, yo ular, sen bo'lsang – o'ldirma, deysan! Nima, men uchun o'z o'g'limga achinmaymanmi? Yoki Anatóliyni deb kuyumaymanmi? Xotin, men ham ado bo'ldim. Ammo boshqacha bo'lishi mumkinmi? Askar o'z yerini himoya qiladi, unga shunday buyruq berilgan. Agar askar dushmanni gumdon qilsa, ya'ni o'ldirsa, u buyruq bilan o'ldirgan bo'ladi, burchini ado etgan bo'ladi, bu hatto qahramonlik, bilsang!

Onasi sukut saqlardi, o'g'li uchun safar xaltasini tikib o'tirardi, otasi bo'lsa, yoshlik paytlarini eslashga tushib ketdi, o'n to'qqiz yoshida, yoshi Sergeyning hozirgi yoshiga teng bo'lganda, Birinchi jahon urushida suvoasti kemasida dengizchilik qilganini gapirdi. Uning fikrlari shunga qarab yo'naldiki, dushmanning tirik kuchlarini yo'q qilish – bu bosh masala va to'g'ri ish. Mana, masalan, ular o'z suvosti kemalari bilan dushmanning Boltiq dengizidagi harbiy-transport kemasini suvga g'arq qildilar. Avval dushman kemasining ortidan uzoq yurdilar. Keyin o'qqa tutdilar. Hammasi aniq bajarildi, ikkala snaryad ham nishonga tegdi, suv yo'nalishi bo'yicha bortga zarba berildi. Kema o't ichida qoldi, suvga cho'ka boshladi. Ular suvosti kemasida chuqurlikka tushib, bir soatgacha kutdilar va so'ng yuqoriga ko'tarilib, dengiz yuzasida kechayotgan voqealarni periskop¹ orqali kuzatdilar. Burun qismi osmonga ko'tarilgan dushman kemasining yarmi allaqachon suv ostiga botgan, kema atrofida ko'plab odamlar jon talvasasida suzib yurardilar.

¹ **Periskop** (peri.. + yunoncha: skopeo – qarayman, kuzataman) – bevosita kuzatish mumkin bo'lmagan berk, pana joylardan (masalan, bronetransportyor, suvosti kemasi va shu kabilardan) kuzatish imkonini beruvchi optik asbob.



Albatta, shu zahoti qo'mondonlar va yuqori tarkib ofitserlari periskopga tikildilar, ularning so'zlarini aloqachilar o'sha zahoti Kronshtatdagi Bosh shtabga xabar qildilar, Morze alifbosi¹ orqali harbiy topshiriq muvafaqqiyatli bajarilgani haqida hisobot berdilar, topshiriq – bu buyruq. Dushmani yo'q qilishga buyruq berildi – vassalom!

Avval odamlar dengizda qanday cho'kayotganligini faqat periskop orqali kuzatdilar. Keyin dushman kemasi batamom cho'kib, suv qa'riga botib ketgach, yon-atrofdagi suvosti kemasi uchun hech qanaqa xavf yo'qligiga ishonch hosil qilishdi, suv yuzasiga suzib chiqishdi. Buyruq berildi – hamma yuqoriga chiqadi, butun ekipaj a'zolari palubaga ko'tarilishdi va komandirning minnatdorchilik e'lon qilishini eshitish uchun safga tizilishdi. Atrofdagi dushmanlar cho'kayotgan edi, ulardan ozginasi hali tipirchilardi. Ayrimlari suvosti kemasigacha suzib kelishga harakat qilishardi, ammo kuchlari qolmagandi, qurbi yetib, iltijo bilan suzib kelganlarni esa naganni niqtangancha, otib tashlashardi... Dengizda to'lqinlar g'ujgon urar, kech tusha boshlagandi, yana suv ostiga tushishdi va yana dengiz ostidagi qorong'ulik bag'rida gumdon qilinishi kerak bo'lgan dushmanni izlab, izg'iy boshlashdi...

Mana, ana shu urush, har gal urush shunaqa bo'ladi. Kim o'ldirishni bilsa, urushda shu g'alaba qiladi, Kim g'alaba qilsa – shu haq bo'ladi, shuniki to'g'ri hisoblanadi. Hamisha shunday bo'lgan va bundan keyin ham shunday bo'ladi.

Onasi na bahslashdi, na-da inkor qildi. Faqat boshini chayqab qo'ydi. Keyin qo'shnilari xayrlashish uchun kirishdi, xolasi va xolabachchalari ham kelishdi. Veronika ishdan keldi va onasiga uy ishlarida qarasha boshladi, yarim kechagacha uyda gap-so'zlar tinmadi.

Endi otasi va onasiga ichi achiy boshladi – onasi u hech kimni o'ldirmasligini istardi, otasi esa uni o'ldirmasliklarini xohlar va buning uchun dushmanni o'ldirish kerakligini talab

¹ **Morze alifbosi** (Morse (S. Morzs) – amerikalik ixtirochi nomidan) – harf va raqamlar nuqta va tirelar bilan ko'rsatiladigan shartli telegraf belgilari tizimi.



qilardi. Avvallari shunchaki oddiy, uy-ro'zg'orga taalluqli bo'lgan hamma narsalar yo'lda qandaydir yangicha qimmatga, o'ziga xos ma'noga ega bo'la boshladi va yurakni achitib og'rita boshladi. O'tmish har lahza sayin uzoqlashar, ortda qolib borardi. Saratovning tog' yonbag'irlaridan oqqan Volgani esladi. Yozda kezgan sevimli yerlarni, yashil orolchalarni va dengizning sirli, yorug' kengliklarini, yelkanlarni xotirladi. Ammo bolalik paytlarida Sergeyni hammadan ham ko'proq daryo tepasidagi temir yo'l ko'prigi o'ziga jalb etar edi. Ko'prik juda balanda qurilgan bo'lib, u boshini yuqoriga ko'targancha, pastdan, suv yoqasidagi qirg'oqdan turib, soatlab o'tayotgan poyezdlarni kuzatardi, poyezdlarning ko'prikka urilib taqillayotgan g'ildiraklari ovozigacha quloq solardi; ko'prikning temir ustunlari jaranglar va osmondagi bulutlar ostida tiroqqa tushardi, Sergey shunday lahzalarda Volga ustidagi shu ko'prik orqali poyezdga minib qayoqqadir ketayotgan, kitoblarda tasvirlangan qaysidir go'zal yurtlarga yo'l olgan odamlarga havas qilardi...

Yana bolaliklaridagi manzara xayoliga keldi, manna, ular Yangi yil kechasi butun oila bo'lib, yung etiklari bilan qor bosgan dalani g'arch-g'urch bosgancha, yuqoridagi quvurda neft yonib turgan yuksak mash'ala tomon bormoqdalar. Tirik olov, olov yallig'iga tinimsiz quyilayotgan tirik qor. Olov qor uchqunlarini sassiz yamlaydi, qor esa yog'averadi, yog'averadi, olovni yoqtiradiganday, orqaga tortilishga quvvati yetmayotganday quyulaveradi... Olov ham o'chmaydi, qorning ham adog'i ko'rinmaydi...

Yillar o'tgan sayin hamma narsa moziyga ketaverdi. Mana, endi urush – o'ldirish kerak yoki o'lish zarur. Boshqa chora yo'q, faqat shunday, urushning yo'rig'i shu. Endi u urushga jo'nayapti, u yerda yo'ldirish kerak, yo' o'lish... Sergey qorong'ulikda unsiz yig'ladi, otasini, onasini, singlisi Veronikani eslab, uxlayotgan askarlar orasida unsiz yig'ladi. Yana qo'l ushlagancha, qor bosgan dala bo'ylab osmonda lovullab yonayotgan tungi mash'alaga tomon yurib borishni u



qanchalar istaydi...

G'ildiraklar temir izlarga urilib taqillaydi, vagon yo'l maromida chayqaladi. Tun bag'rida yalt-yult etgan chiroqlari bilan g'ira-shira lipillab qandaydir qo'nalg'alar ortda qolib boradi. Askarlar va qurol-aslahalar bilan tirband bo'lgan eshelon o'ldirish va o'lish kerak bo'ladigan tomonga qarab yelib boradi. O'ldirilish sening irodangga bog'liq emas, hech kim o'lishni istamaydi va hech kim aynan u o'lishini bilmaydi. Ammo, o'ldirish – irodaga bog'liq, urushda esa o'ldirish – majburiy, muqarrar ish. Ammo o'zingga qanday buyurasan: o'ldir – o'ldirma.

... Temir izlarning bandlariga urilayotgan g'ildiraklar taqillaydi: o'ldir-o'ldirma, o'ldir-o'ldirma, o'ldir-o'ldirma...

Kipriklarida yosh qalqiganicha mudrar ekan, Sergey o'zicha urush, jang qanaqa bo'lishini, kimni o'ldirish kerag-u, qanday qilib o'ldirish kerakligini – otish kerakmi yoki bo'g'ish kerakligini tasavvur qilishga urindi, axir unga Volga bo'yida butun yoz davomida qanday o'ldirish kerakligini o'rgatishdi. Kimdir uni o'ldirish uchun xuddi shu ishni qanday bajarishini ham tasavvur qilishga urindi. O'sha dushmani – nemisni, fashistni o'zicha tasavvur etdi... Hech narsani bilolmadi – xuddi otasining hikoyasi orqali suvosti kemasi tevaragida cho'kib o'layotganlarni tasavvur qilish qiyin bo'lgani kabi, dushman kimligini orqavorotdan tasavvur qilish qiyin edi. To'lqinlar yuz-ko'zlarga urilardi. Chehralarni ko'rish qiyin edi. Kim yaqinlashsa, uni suvda otib tashlashar edi... Va u girdob qa'rida sassiz va izsiz g'arq bo'lardi.

Temir izlarning bandlariga urilgan g'ildiraklar taqillaydi: o'ldir – o'ldirma. Sergey maktabda o'rgangan nemischa so'zlarni eslashga urindi, ammo nemis tilida so'zlarning xuddi shunday qatori shu tarzda jaranglashiga ishonchi komil emasdi: o'ldir-o'ldirma, o'ldir-o'ldirma, o'ldir-o'ldirma...

Poyezd zim-ziyo zulmat qa'rida ketib borardi...



«Hayot-mamot»ga hikoyasi tarjimon talqinida

Muayyan inson hayotining qadr-qimmati kundan kunga pasayib ketmayotganmikin? Yoki hamisha shundoq bo'lganu, bizga – bugun yashayotganlarga ham shunday tuyulayotganmikan? Insoniyat bu haqda har kuni, har lahza o'ylashi zarurmi? Yoki «boshiga ish tushganda» bosh qotiradimi? Balkim, muayyan insonning qo'lidan hech narsa kelmas, uning uchun hammasini «tepada» hal qilib qo'yishgandir? U kimningdir qo'lida «buyuk rejalar» amalga oshishi uchun bir o'yinchoqdir?

Chingiz Aytmatovning hikoyasi – ana shular haqida. Yozuvchi mazkur hikoyani yozishni 20 yil avval boshlagan, ammo tashlab qo'yavergan. Bugungi globallashuv asriga kelib, xalqaro terrorizm, mintaqaviy qirg'in-barotlar begunoh odamlarni siyosiy maqsadlar yo'lida qurbon qilayotgan, giyohvandlik, OITS¹ singari dardlar, tabiiy ofatlar odamzodni izchil qirayotgan bir dorulzamonda inson hayotining qimmati masalasi yanada ko'ndalang turibdi. Bularga guvoh bo'layotgan adib, mana, nihoyat bu hikoyani 2005-yil ostonasida yozib tugatdi.

Hikoya boshlanishidayoq o'quvchini xayol ummoniga g'arq qiladi: hozirgina odamlar ustiga ajal urug'ini sochib, o'zi o'qqa duch kelmaslik uchun qochib chiqayotgan uchuvchi uchoq oynasiga urilgan qushning qonini ko'rib, talvasaga tushadi. Odamlarni o'ldirishni burch deb bilgan odam, bir qushning o'limidan seskanadi...

Hikoyada hayot va o'lim, inson va olam, taqdir va iroda borasida falsafiy mushohadalar, mushohadlarga undovchi timsollar juda ko'p. Eng yuksak g'oyalar uchun ham inson boshqa insonni o'ldirishi mumkinmi yoki yo'qmi? Bu savol haddan ziyoda ko'ndalang qo'yilgan.

¹ OITS (orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi) – odamlarda limfatik sistemaning zararlanishi oqibatida organizmning himoyaviy kuch-quvvati zaiflashuvidan iborat virusli kasallik (asosan jinsiy aloqa va qon orqali yuqadi).



Insonlarni taqdir jang maydoniga yetaklab kelar ekan, adibning so'zlari dilni o'rtaydi: nahotki bu odamlarning bari aynan shu bugun, aynan shu yerda o'lish uchun qachondir dunyoga kelgan bo'lsalar?

Urush haqidagi mazkur hikoya urushning adolatli yoki adolatsizligi haqida ko'tarinki tashviqotlardan xoli, umuminsoniy nuqtai nazardan fikr yuritadi.

Askarni urushga jo'natayotgan ona odam o'ldirmaslikni tayinlaydi: «Dushmanlar bizga o'lim keltirishmoqda, biz ularga – dushmanlarga o'lim! Keyin bu dunyoda qandoq bosh ko'tarib yashaymiz – hammaning qo'li qonga botsa, dunyoda faqat qotillar qolsa?». Otasi esa dushmani, albatta, o'ldirish kerakligini, aks holda uni o'ldirishlarini aytadi, urushda odam o'ldirish burch, hatto jasorat ekanini urg'ulaydi.

Hikoya qahramonining o'lmasligi, ehtimol, ana shu shafqatsiz dilemmani¹ anglaganidadir.

Men hikoyani elektron pochtdan olganimda va qayta-qayta mutolaa qilganimda, uzoq kunlar uning ta'sirida yurdim va bu ta'sir kundan kunga kuchayib boraveradi. Endi kunlar uni o'qiganimdan avvalgidagiday emas, boshqacha kechayotganday. Haqiqiy san'atning ta'siri shunda bo'lsa kerak.

Ruschadan **Karim BAHRIYEV** tarjimasi

¹ **Dilemma** (di. + yunoncha: lemma – asos, dalil bo'la oladigan hukm) – bir-biriga zid bo'lgan ikki nomaqbul imkoniyatdan birini tanlashga majbur bo'lish.



O'TAR QUSH NOLASI (rivoyat)

Tozi deganingiz allambalo it-da – ovuldan bir to'p otliq chiqdi deguncha hozir-u nozir. To's-to'polonda ergashib olganini sezmay qolasiz, endi uni haydab, orqasiga qaytarib bo'p-siz, do'q-po'psalaringiz bir pul – bari-bir ketmaydi, go'yo hayiqqanday chetga chiqib, lo'killab ketaveradi. Rostdan ham tozilar g'alati maxluq – ularga dala-dasht bo'lsa, shovqin-suron bo'lsa, odam gavjum bo'lsa bas, shunday paytlarni kutgani-kutgan; ehtimol shuning uchun ham ovchi it deyilsa kerak...

Elomon itning ketidan quvib Ko'lgacha chopib bordi. U dafn marosimida so'yish uchun mo'ljallangan ikki yashar novvosni boylab berishda xotin-xalaj, qari-qartang bilan birga ketayotgan akasi Turmanga qarashib yurganida tozi iti Uchar olomonga ilashib, azza-bazza safarga otlanib qolibdi: quvonchi ichiga sig'may u yoqdan-bu yoqqa chopadi, hali buni, hali uni hidlab-hidlab qo'yadi, butalar atrofida sakrab-sakrab, goho bir zum to'xtab, hurib ham qo'yadi, odamlarni safarga tezlaydi. Elomon itining otini aytib ham, avrab-aldab ham qancha chaqirmasin, bari befoyda ketdi. Odamlarning ovga emas, balki ta'ziyaga – kennoyisi Olmoshning qo'shni qishloqda to'satdan vafot etib qolgan o'n yetti yoshli singlisining janozasiga borayotganlarini aqlsiz it qayoqdan bilsin, deysiz; buni biyalarga, ho'kizlarga minib olganlar orasida chopqir oti birona ham yosh yigit yo'qligidan bilib olsa ham bo'lardi. Issiqko'l atroflarini makon tutgan barcha erkaklar, jamiki eng yaxshi otlar, qurol ko'tarishga qurbi yetadigan qirg'izman degan yigit borki, barisi, o'sha kuni uzoqda, tog'larning narigi tomonida, bu yerdan uch kunlik yo'l bo'lgan Tolchuy vodiysida bosqinchi jung'or lashkarlari bilan jon olib jon berib jang





qilayotganiga tozi itning aqli yetarmidi! Mana, besh kundirki, Tolchuy vodiysidan hech bir xabar yo'q. Ahmoq it, sarang it – butun bir xalqning taqdiri ne kechgani noma'lum bo'lib turgan bir paytda qanday odam ov haqida o'ylay olardi?

Aslini olganda, odamlarning g'am-tashvishlari it uchun bir pul, urush, ayriliq, o'lim, umuman inson bolasining g'uratlari bilan itning nima ishi bor; qani edi, uning oldidan lip etib quyonmi, tulkimi chiqa qolsa-yu, to'zg'itib quva ketsa, bunday onlarda otiqlar ham tozidan qolishmaydi – jonini jabborga topshirib, o'lganiga qaramay o'lja ketidan ot solishadi...

Tozi toqati toq bo'lganidan o'qtin-o'qtin g'ingshib-g'ingshib qo'yar, goho hammaning oldiga o'tib, qisqa-qisqa hurar, sakrab-sakrab odamlarni gir aylanib «Bunchalik imillamasanglar» degandek, shoshilishga undar, «Tezroq yuringlar», degan da'vati shunday ko'zidan, butun borlig'idan ko'rinib turardi. Lekin sira Elomonga tutqich bermasdi. Itga qo'yib bersa, qani edi, suvoriylar Uchar ketidan otlarini choptirsalar, uzangilarida tik turib qiy-chuv solsalar, yov ketidan quvganlaridek shovqin-suron ko'tarsalar-u, butun borliq ov zavqshavqi bilan yashasa. Tozi hammani ana shunday ov nash'asini surishga chorlardi...

E-voh! Odamlar ovga emas, janozaga ketishayotgandi. Chol-u kampirlar g'am-alamdan boshlarini xam qilib, jigarlari Sengirboyning kelini Olmoshning boshiga tushgan kulfatga sherik bo'lib, qondoshlik burchlarini o'tash uchun ketishayotgan edi. Shu bois qora tozi it Ucharga hech kim e'tibor bermasdi. Shum xabar urug'doshlar uchun eng og'ir va xatarli bir paytda yetib keldi. Ular bundan, bor-yo'g'i olti oy burun Sengirboyning hurmati deb emas, – axir, u kim bo'libdi, – balki, Olmoshning eri, hozir Tolchuy vodiysida ulkan qirg'inbarot jangda qatnashayotgan Qo'ychimanning hurmati. eng muhimi, ushoq qashshoq bo'ziylar urug'ining faxri, buyuk o'tovsoz usta Sengirboylar oilasiga kelin bo'lib tushgan Olmoshning hurmati uchun tishlarini-tishlariga qo'yib chidayot-





gan edilar bu ovoragarchiliklarga. Sengirboy bobo esa, mana, uch kun bo'libdiki, turolmasdan yotibdi – cholni ko'pdan beri yuragi bezovta qilardi, qudalar tarafdin kelgan sovuq xabar ustani yiqitdi – Sengirboylar kelinining bir qorindan talashib tushgan singlisi – o'n yetti yashar Ulqan dunyodan ko'z yumibdi. O'tovsoz usta qudalarining hurmati va urug'doshlarning udumi, deb bo'yiga yetgan qiz bolaning dafn marosimida ishtirok etish uchun shosha-pisha po'stinini kiydi, o'smir o'g'illaridan Turman bilan Elomon cholning ikki qo'ltig'idan ushlab hovlida egarlog'liq turgan otga tomon yurishayotgan edi, Sengirboy bobo o'tov bo'sag'asidan o'tishi bilanoq yuragini changallab qoldi, oyog'ini uzangiga solishga ham ulgura olmadi. Og'riqdan ingrab, otning yoliga yopishganicha, oyoqda bazo'r turib yiqilgudek chayqaldi.

Shunda urf-odatga ko'ra, butun ishlarni xotini Kerto'lg'azaifa o'z qo'liga oldi. Kampir lozim bo'lsa, hamma ishni joyiga qo'yadi. Kerto'lg'azaifa cholini o'g'illari yordamida uyga olib kirdi, yechintirdi, tezgina o'rniga yotqizdi va o'tovsozga dedi:

– Usta, qudalarnikiga janozaga bora olmasangiz, Xudo ko'rib turibdi, o'zi kechiradi. Bu ishni menga topshiring. Sizdan keyin bu uyning kayvonisi¹ men endi, vaqti kelar, bo'zuy urug'imizning urug'onasi ham men bo'laman. Motamda yig'lash uchun bo'zuyliklarga men bosh bo'lib borsam, qudalar xafa bo'lishmas. Hozir xafa bo'lishning mavridi emas – Tolchuy vodiysida nimalar yuz berayotganini hech kim bilmaydi: o'g'illarimiz g'alaba bilan qaytishadimi, xudo biladi. Hozircha hech xabar yo'q – hamma yuragini hovuchlab turibdi. Siz xudodan tani sog'liq so'rang, jang qilayotganlarga omad tilang! O'zingizni ehtiyotlang, siz bo'zuyliklarning boshchisiz, mening uchun esa uch bolamning otasi, eng ulug' odamsiz. Mana shu musibatli xizmatni ado etishni menga ishonang. O'ringizdan turmang, yoting. Elomon sizga

¹ **Kayvon(i)** (*forscha*) – Zuhul (Saturn) sayyorasining forsha nomi; 2) baland ayvon; 3) yoshi ulug', ko'pni ko'rgan, ko'p narsani biladigan; uddaburon.



qarab turadi, biz hammamiz yo'lga otlanamiz.

Shunday gap so'z bo'lib o'tdi. Bu gaplardan keyin rangida rang qolmagan, yuzini ter bosgan o'tovsoz usta Sengirboy boshini yostiقدan ko'tarmasdan eshitilar-eshitilmas dedi:


– Sen haqsan, kampir. Men borolmagach, sen borishing kerak. Sen bo'zuyliklarning barini ergashtirib bor. Kelinimiz Olmosh qarindosh-urug'lari orasida yolg'izlanib qolmasin. Uzoقدan yig'i beringlar, hamma eshitsin, barcha bo'zuyliklarning yig'iganini xalq bilsin, ovozlarini baland ko'tarib girya¹ qilinglarki, qudalarimiz kuyovlari Qo'ychiman bilan o'lim to'shagida yotgan katta quda – mening yo'qligimni sezishmasin. Bilib qo'yinglar: hammamiz inson ekanmiz, urush qancha dahshatli bo'lmasin, o'lganlarni hurmat-izzat bilan dafn etishni unutmasligimiz kerak...

Shu ravishda, ushoq bo'zuy urug'idan bo'lgan bolali ayollar, chol-kampirlar yo'lga chiqishdi, ularning butun qalbi jungor o'yrotlari bilan bo'layotgan jang nima bilan tugarkan, deb bezovta edi. Hamma o'sha tomonda, Tolchuy vodiysida nimalar sodir bo'layotgani haqida o'ylardi: nega, hech xabar yo'q? Nega, hech kim hech narsani bilmaydi? Urug'ning, xalqning or-nomusini saqlab qolish uchun yigitlar qirg'in-barotga yuz tutib ketishgan. Ular ko'ngillari g'ash, zo'r xavotirda jo'nab ketishgan.

Ucharni tutib, bo'yniga kamarini solish Elomon uchun oson bo'lmadi – tozining odamlarga qo'shilib ketib qolishi hech gap emas edi-da! Shunda ham Uchar bo'ynidagi bog'ichi bilan olg'a intilar, bo'shab ketishga urinardi. Lekin itni qo'yib yuborish mumkin emas – yot joylarda tozini ovul itlari galasi g'ajib tashlagan bo'lardi. Albatta, shunday bo'lardi.

Elomon Ucharni bo'ynidan ushlab turar ekan, nima deyishini bilmay turib qoldi. Janozaga ketayotganlarga «Yaxshi borib kelinglar», – deyishmaydi-ku! Onasi oti ustida jilovni tortib turar ekan, o'g'liga: nega serrayib turib qolding? Tezroq

¹ **Girya** (forscha; yig'i) – xalq kuylaridan birining nomi; o'zbek mumtoz musiqasiga mansub ikki qismli ashula turkumi.





uyga borsang-chi! – dedi qovog'ini solib. – Otangga qara, eshityapsanmi? Oldidan bir qadam ham ketma, uqdingmi?

Elomon «tushundim» degandek bosh irg'adi. Onasi aytdanlarining hammasini qiladi. Elomon onasiga, uning bug'doyrang, ajinlar bilan qoplangan g'amgin qarimsiq yuziga boqar ekan, kampirning hozirgiday tashvish tortganini hech eslay olmaydi. Elomon onasiga qarab dedi: «Ko'rgiliklarimiz bor ekan, endi siz ketavering. Biz uchun g'am yemang. Men endi yosh bola emasman-ku! hamma tayinlaganlaringizni qilaman. Otamdan bir qadam nari jilmayman. Faqat Qo'ychiman akam ot ustida uzangisiga oyoq tirab omon kelsa bas. Jasadini egarga o'ngarib kelishmasa bo'lgani. Ilohim, barcha yigitlar ot ustida o'zlari tik turib kelishsin, egarga bo'ktargi qilib ko'ndalang yotqizib kelgilik etmasin! Otam bilan men haqimda tashvish tortmang, sizning buyurganlaringizning hammasini qilaman».

Kerto'lg'a-zaifa tizginni tortib turar ekan, qora tozi iti bilan yolg'izoyoq yo'lda qolgan kenjatoyiga ko'z qirini solar ekan, to'satdan yuragida og'riq paydo bo'ldi, xayolidan shunday o'ylar kechdi: bu hali bola-ku, otasi nima bo'larkan, akasi Qo'ychiman salomatmikan yoki o'yrotlarning nayzasidan yer tishlab qoldimikan? Cholimning, o'g'illarimning holi ne kecharkan, barcha-barchasining, el-yurtning boshiga qanday kunlar tusharkan? Ana shu dahshatli o'y-xayollarini bildirib qo'ymaslik uchun g'o'ldiradi:

– O'g'lim, ovulga chop, seni va otangni Tangriga topshirdim. Sal yurgach, yana to'xtadi – borishing bilan otangga haligi o'tdan damlama qilib ichir...

– Xo'p bo'ladi, darrov damlama qilib beraman, – deb onasiga va'da berdi.

Kampirning bu gaplarga ko'ngli to'lmadi shekilli, dorini tayyorlash yo'llarini tushuntira ketdi:

– O'tning ustiga vaqirlab turgan qaynoq suv quyib damlab qo'yan, sal sovigandan keyin otangga berasan, terlaguncha ichsin, shundan keyin ko'kragi bo'shab yengil tortib



qoladi.

– Mening gaplarimni uqdingmi, tushundingmi? – deb qayta-qayta so'radi o'g'lidan Kerto'lg'a-zaifa.

Aytganlarining hammasiga o'g'lining tushunib olganiga ishonch hosil qilgach, boyvuchcha boshqalar ketidan otiga qam-chi bosib ko'l bo'ylab ketdi. Lekin sal o'tmasdan u yoq-bu yoqqa alang-jalang qarar ekan, yana to'xtadi-da otdan tushdi:

– Elomon, bu yoqqa kel, bolam, – deb o'g'lini chaqirdi. – Otni ushlab tur, men Ko'lga sig'inib olay. Ketdik.

Kampir shunday dedi-da ko'lga yuzini burdi va shoshilmasdan ko'lga qarab salobat bilan tantanovor qadam tashladi. Qattiq shamollar turganda to'lqin-to'lqin bo'lib uyulib qolgan top-toza qizg'ish mayda qum ustidan yurdi. Boshiga surpdan sallaga o'xshatib tomog'igacha qattiq o'rab olgan oppoq qorday katta elachakdan boyvuchchaning faqat yuzi ko'rinar-di; elachakda kampir biroz yashargandek tuyulsa-da, chakka-sidan oq sochlari ko'rinib turardi. Boyvuchcha qarisa ham jismonan hali baquvvat, hatto xushbichim edi. Olmoshni kelin qilib tushirgungacha butun tirikchilikni o'zi qilar edi-da – to'rtta erkak: uch o'g'il bilan eriga qarashning o'zi bo'lmaydi, uy ishlarida esa erkaklarning foydasidan zarari ko'proq.

Ko'l yoqasidagi qum ustida ohista oyoq bosar ekan, Kerto'lg'a-zaifa dunyo va oila tashvishlarini bir zum unutgan-dek, fikrini jamlab, ko'lga qarab yurdi-da, qandaydir hayajon va ruhiy ko'tarinkilik bilan o'ynoqi moviy suv yuziga, uzoq-uzoqlarda bo'zarib turgan qorli cho'qqilarga, tog' tepalaridagi xira bulutlarga nazar tashladi. Bularning hammasi odam uchun makon qilib yaratilgan zohiriy bir keng dunyo, iloh kabi qudratli, uning yerdagi timsoli kabi hayotbaxsh dunyo ediki, bani bashar ana shu dunyo izmida bo'lib kelgan.

Kerto'lg'a-zaifa ko'pirib kelib-ko'pirib qaytib turadigan qirg'oq to'lqini yetar-etmas joyda mayda shag'allar ustida to'xtadi. Elomon ham bir qo'li bilan otni yetaklab, ikkin-chisida tozisini ushlab shu yerga keldi. Ona cho'kka tushib



o'tirdi, o'g'li ham cho'kkaladi; shundan keyin kampir sekin va ohista pichirlab Ko'lga yolvora boshladi:

– Ey, Issiqko'l, sen Yerning ko'zisan, sen har doim osmonga boqib turasan. Men senga iltijo qilaman, sen – mangu, muzlamaydigan Issiqko'lsan, men Ko'kka, hokimi taqdir bo'lmish Tangriga munojot qilaman, Tangri sening qa'ringga nazar tashlaganda mening o'tinchlarimni bilib olajak.

Ey Tangri, xatarli va dahshatli damlarda o'yrotlarga qarshi kurashda bizga kuch-qudrat ber. Tog'laringda sening ne'matlaringdan tatib, yaylov-o'tloqlaringda chorva mollarini boqib kun ko'radigan olti aymoqli qirg'iz xalqimizni o'zing asra. Bizning o'choqlarimizning o'yrot otlari tuyoqlari ostida toptalishiga yo'l qo'yma. Odil bo'l – ayovsiz ochiq jangda bizga g'alabangni darig' tutma. Huv, anavi tog'lar ortida, Tolchuy vodiysida nimalar bo'layotganini bilmaymiz. Na bir xabar bor, na bir chopar bor jang maydonidan – kutaverib ko'zlarimiz teshildi, yuraklarimiz adoyi tamom bo'ldi. Nimalar bo'lyapti? Bizlarni ertaga nimalar kutyapti? Tangrim, dushman bilan ayovsiz jang qilish uchun ketgan yigitlarning jonlarini omon saqla. Bizlarga ularni egar ustida ko'rishni nasib et, jasadlari otlariga ortib kelgulik qila ko'rma, iloyim.

Mening ibodatimni eshit, men uch o'g'ilning onasiman...

Elomon ham cho'kka tushib, bir qo'li bilan tozisi Ucharning bo'ynidagi kamardan, ikkinchi qo'li bilan esa yoldor jiyron biyaning tizginidan tutib turardi. U ko'l yuzasining nafas olgandek bir pasayib, bir ko'tarilib turgan qoramtir sag'risiga ahamiyat berdi. Ko'l hozir sokin edi, suv yuzasi mayda to'lqinlar yolqinida jonlanib yotardi. Uzoq cho'zilgan qishning adog'ida, bahor boshlarida Issiqko'l sohili ovloq qolgandek, o't-o'lansiz edi – to'qaylar ship-shiydam, quruq xas-cho'plar fayzsiz; na bir o'tov bor, na bir otliq, na ko'chko'ron, na dalada mol podalari...

Biroq Issiqko'l bo'yida qishlab qolgan o'tar qushlar bahor hididan yangi o'lkalarga yo'l olish payti yaqinlashib qolganini sezib, ko'l ustida to'p-to'p bo'lib ucha boshlaydilar,



ulkan galalarga uyushgan qushlar esa tog' etaklari bo'ylab parvoz qilib, tez uchish mashqini oladilar. Qayoqqa qaramang, qushlarning shodon qichqiriqlari va ovozlari yog'duli bahor havosida uzoq-uzoqlarga taraladi.

Mana, yaqinginada bir qiziloyoqli, kulrang g'ozlar galasi shiddat bilan uchib o'tgani ko'zga chalindi. G'ozlar bebosh shovqin ko'tarib, ovozlarning boricha g'aqillab shunday past uchib o'tdilarki, qanot patlarining shovullagani ham eshitilib turdi. Elomon ko'l ustida uchib yurgan bir necha gala o'tar qushlarni ko'rdi. Bular g'ozlarmi, o'rdaklarmi, oqqushlarmi yoki uzunoyoq ochpushti qizilg'ozlarmi – bola farqlay olmasdi. Chunki bu qushlar juda uzoqda va balandda to'p-to'p bo'lib uchib o'tardi. Faqat ularning chug'ur-chug'uri ba'zan aniq eshitilsa, ba'zida elas-elas quloqqa chalinardi. «Demak, bu qushlar ertami-indin uchib ketadi», – deb o'ylab qoldi bola.

Onasi esa dildagi butun dardini aytib, jon-jahdi va ehtiros bilan Ko'k Tangriga tavallo qilardi. U eri – buyuk o'tovsoz Sengirboyga rahm-shafqat etishini so'radi, axir ustaning dardi tobora kuchayib borayotir, hatto bugun otga ham mina olmadi.

– Tangrim, otamiz, qo'li gul ustaning jonini omon saqla, – dedi u. – Bizning diyorimizda o'tovsoz Sengirboyning qo'li bilan yasalmagan bironta o'tovni topish amrimahol. Uning o'z umrida qancha o'tov yasaganini hech kim bilmaydi! Axir, hech kim boshpanasiz yashay olmaydi – yosh ham, qari ham, boy ham, kambag'al ham, qo'ychivon ham, biya sog'uvchi ham!

U yana Tangridan nevaralar so'radi, yana qanchadan qancha iltijolar qildi... Axir, odamning orzu-havasi, dard-u alami kam deysizmi bu dunyoda...

Qordan choyshab yopingan qoyali tog'lar orasida osmonga ko'z qadagan buyuk ko'k ko'l suvi tinim bilmas, jonli maxluqday to'lg'anar, o'z-o'zidan paydo bo'lib, yana yo'qoladigan ulkan erinchoq to'lqinlarni bag'rida erkalar edi. Obi ombor kechasi bo'ron ko'tarish uchun ummon yanglig' kerishib kuch yig'ayotgandek edi. Hozircha esa shaffof ko'l



ustida, uning bahor quyoshini emgan zilol suvlari tepasida dunyo bo'ylab yangi uzoq va xatarli safarga o'tlanadigan payt yaqinlashayotganini sezgan o'tar qushlar hamon yuksaklikda chappar urar, hamon jo'rovoz bo'lib, jar solib osmonni boshiga ko'tarardi.

Ona bo'lsa hamon astoydil, butun borlig'i bilan munojot qilardi:

– Tangrim, eshit, o'zimning oq ona sutim hurmati-la, yolvorib o'tinaman! Senga, buyuk hokimi taqdirga – Ko'k Tangriga iltijo qilish uchun biz bu yerga, sening Yerdagi ko'zingga – muqaddas Issiqko'lingga keldik. Mana men, mening yonimda o'g'lim Elomon – mening kenjatoyim, endi men na yaxshi, na yomon farzand tug'a olaman, faqat sendan so'raganim shuki, mening erkatoyimga otasi Sengirboyning ustaligini ber, o'zining ustalikka ebi ham bor... Kenjatoyim akasi Qo'ychimanga o'xshab – «Manas»¹ aytmoqchi. Bu iltijomni ham ijobat qil, eng avvalo, va eng muhimi, unga azaliy So'zning qudratini ato et – o'sha So'z ildiz otgandek jon va tan bilan chirmashib ketsin, u So'zni – ajdodlardan avlodlarga o'tadigan, o'z bolalari va nevaralari uchun qoladigan So'zni asrab-avaylasin, ajdodlar qirg'iz nomini olgan davrdan yetib kelgan So'zni o'zida jo qila oladigan kuch-qudrat ber unga...

Men uch o'g'ilning onasiman, Tangrim, mening iltijolarimni qabul qilgaysan. Odam bilan doimo yonma-yon yashaydigan tilsiz maxluqlar – o'g'limning o'ng tarafida turgan va manaman degan yirtqichni quvib yetadigan bizning tozi itimiz Uchar ham, o'g'limning chap tarafida turgan, biron marta qisir qolmagan jiyron biya ham bizlar bilan birga o'tinib so'raydi Sendan...

Elomonga shunday tuyuldiki, onasi garchi pichirlab, eshitilar-eshtilmas ohangda munojot qilgan bo'lsa ham, uning so'zlari hammani sehrlab qo'ygan jo'shqin xitob singari butun ko'l bo'ylab yangrab, hamma yoqqa yoyilib taralib ketdi; go'yo uning so'zlari ko'l atrofidagi tog'larda «Tangrim,

¹ Manas - «Manas» qirg'iz xalq qahramonlik eposi.



menga quloq sol, mening so'zlarimni eshit...» degan tashvishli va aniq aks-sado berdi.

Onasi otga minib, ko'ning jiyagida kichkina to'p bo'lib uzoqlashib ketgan sheriklari ortidan shosha-pisha jo'nab ketgandan keyin ham Elomon sevikli tozisi Ucharni ushlaganicha ancha vaqtgacha joyida turib qoldi. Bola hali o'sha kunni, Ko'lda onasi Tangriga iltijo qilgan o'sha daqiqalarni umrida bir-ikki martagina emas, balki ko'p martalab esga olajagini, xursandchilik onlarida ham, boshiga ish tushgan paytlarda ham yig'lab eslayajagini, onasi Elomonning buyuk manaschi bo'lishini Tangridan so'ragani uchun, shuning sharofati bo'lsa kerak, xalq uni «Momaqaldirroqdek guldiragan manaschi Elomon» deb atagani uchun taqdiridan rozi bo'lajagini hali bilmasdi. U o'zining yoshlik davri o'yrotlarning bosqinchilik yillariga to'g'ri kelishini, qirg'izlarning «Manas»ni Elomon ijrosida ovloq daralarga yashirib olib, yig'lab eshitajaklarini xayoliga ham keltirmasdi. Elomon «Manas» aytishga kirishishdan avval onasining Ko'l bo'yidagi duosini, albatta, eslayajagini, manaschi o'g'li Elomoni yashirgani uchun onasini o'yrotlar o'ldirajaklarini, dostonning yurakdan chiqqan boshlamasi Elomon uchun ham taskin, ham xalq ruhi buyukligi, ham xalqning umrboqiyiligi kuylangan So'zning go'zalligi va teranligi ifodasi bo'lajagi haqida o'ylab ham ko'rmagandi. U «Manas»ning Elomon og'zidan chiqqan quyidagi so'zlarini odamlarning butun vujudi quloqqa aylanib, nafas olishdan ham o'zlarini tiyib eshitajaklarini bilmasdi:

«Qirg'izlar, qirg'izimiz, hammamizdan buyugimiz Manas haqida so'z ochay.

O'sha kunlardan to shu kunlargacha qancha kunlar qumday oqib ketdi, bir-birlarini quvib son-sanoqsiz tunlar o'tdi qaytib kelmasdan, yillar va asrlar karvoni izsiz poyonsizlikda yo'qoldi... Bu dunyoda o'sha kunlardan buyon qancha jonlar kelib-ketdi, dunyoda qancha toshlar bo'lsa shuncha odamlar, balki, undan ham ko'p odam kelib, ketgandir. Ular orasida





buyuk kishilar, ko'plar tanimaydigan kishilar ham bor edi. Yaxshi odamlar ham, yomon odamlar ham o'tdi. Tog'qomat polvonlar ham, yo'lbarskelbat bahodirlar ham bor edi, alloma donishmandlar ham, qo'li gul ustalar ham o'tdi, qancha xalqlar kelib-ketdi, ularning faqat nomlari qoldi.

Kechagi bor narsa – bugun yo'q. Bu dunyoga hamma keladi va hamma ketadi. Bu dunyoda faqat yulduzlar mangu turadi, mangu oyga qarab olam kezadi, faqat mangu quyosh abadiy Sharqdan chiqadi, faqat Yergina o'zining abadiy o'rmda turadi. Yerda faqat odamlarning xotirasi hammadan uzoq yashaydi, odamning umr yo'li esa qisqa – qosh bilan qovoq orasicha. Odamdan odamga o'tadigan fikrgina boqiydir; avlodlardan avlodlarga qoladigan so'zgina abadiydir...

O'sha kunlardan buyon o'tgan vaqtda Yer o'z qiyofasini ko'p marta o'zgartirdi. Tog'lar yo'q tekisliklarda o'rkach-o'rkach tog'lar yuksaldi. Oldingi tog'lar o'rmda quruq dashtlar paydo bo'ldi. Jarlar yemirilib sayxonliklarga aylandi; daryo-soylar oqib yotgan o'zanlar tekislanib ketdi. Ayni vaqtda, yer ustida yomg'ir-qor suvlari chuqurliklar – jarliklar-u daralar hosil qildi. Dunyo yaratilgandan beri chayqalib turgan moviy dengizlar o'z o'rmini qumli cho'llarga bo'shatib berdi... Shaharlar qad ko'tardi, shaharlar vayron bo'ldi va choldevorlar o'rmda yangi devorlar tiklandi...

O'sha kunlardan bu kunlargacha so'z so'z tug'di, fikr fikrga qo'shildi, qo'shiq qo'shiqqa ulanib ketdi, ertak cho'pchakka aylandi. Sanoqsiz dushmanlarga qarshi kurashgan qirg'iz qabilalarining xaloskorlari bo'lib qolgan Manas bilan uning o'g'li Semetey haqidagi doston bizga ana shunday yetib keldi...

Bu dostonda biz ota-bobolarimizning ovozi eshitamiz, ayni vaqtda, necha asrlar oldin uchib o'tgan qushning yuksak parvozi, tulpor tuyoqlarining allaqachon so'ngan dukurdurlari, dushmanlar bilan yakkama-yakka olishgan botirlarning hayqiriqlari qulog'imizga keladi. Yig'i ovozlari-yu g'alaba suronlari quloqqa chalinadi. Ana shu so'zimizda o'tmish





hayot tiriklarning ko'z oldida, tiriklarga hamd-u sano aytish, tiriklarni sharaflash uchun yana namoyon bo'ldi...

Alqissa, biz buyuklardan buyuk Manas¹ haqidagi va uning jasur o'g'li Semetey to'g'risidagi dostonimizni boshlaymiz – tiriklarga hamd-u sano aytish uchun, tiriklarni sharaflash uchun...»

Bu bolakay o'zining Xudoning marhamati ila qirg'izlarning jung'orlarga qarshi hayot-mamot kurashining jarchisi bo'lib qolajagini hali bilmasdi, u o'z boshi uchun dushman mingta tulpor va'da qilajagini, xoinlar ushlab bergach, qozoqlarning jazirama cho'lida butun tanasi chavaqlanib, ko'zlari o'yilib, qiynoqlarda o'lajagini hali xayoliga ham keltirolmasdi. Axiri, qoniga belanib, tashnalikdan jon berayotgan so'nggi onlarda yana mana shu kunni, shu soatni, shu Ko'lni – onasini: iltijo qilgan Ko'lni; uzoq o'lkalarga uchib ketish uchun to'plangan ana shu qushlarni yana esga olajagini va bularning hammasini o'ngidagidek ko'z oldiga keltirgach, «Onajon» degan xitob bilan jon berajagini hali bilmasdi.

Bularning hamma-hammasi – shon-shuhrat ham, kurash ham, halokat ham oldinda edi...

Hozir esa u Issiqko'l yoqasida, onasi sajda qilgan joyda tozisi Ucharni o'z qo'lidan chiqib, odamlar ortidan chopib ketmasligi uchun bo'ynidan qattiq ushlab turar edi. U birdan kasal otasi esiga tushib, shoshilib qoldi.

– Ketskik, Uchar, ketskik, – dedi u itiga buyruq bergandek va tog' yonbag'ridagi ovulga qarab shosha-pisha yura ketdi. Ko'ldan uzoqlashganda ham qush galalarining betinim chag'ir-chug'ur, g'oq-g'oq ovozlari quloqqa chalinib turdi...

* * *

O'sha kechasi tong saharda kenjatoy Elomonning ko'zi oldida buyuk o'tovsoz Sengirboy foniylar dunyodan ko'z yumdi. Otasining oxirgi daqiqalarida xirillab, nafasi tiqilib g'aliz

¹ **Manas** – «Manas» qirg'iz xalq qahramonlik eposining bosh qahramonining ismi.



aytgan so'zlarini deyarli tushunib bo'lmadi. Lekin bola titrab-qaqshab va yig'lab otasining yuziga egilib turar ekan, o'choqdagi olovning nim yorug'ida chol lablarining harakatidan otasining nima demoqchi bo'lganini payqadi. bola ikki so'zni tushundi:

– Tolchuyda... nima..

Tushundi-yu, labini tishlab yig'lab yubordi, so'ngra qattiq ho'ngradi va o'zini yig'idan tiya olmasdan dedi:

– Yo'q, ota, hech qanday xabar yo'q! Men sizga qanday yolg'on gapiray! hech darak yo'q. Men bir o'zimman. Eshityapsizmi? Men qo'rqyapman. O'lmang, otajon, siz o'lmang. Tezda onam keladi, tezda onam keladi...

O'g'lining so'zlariga ota tushundimi-yo'qmi, Xudo biladi. Shu zahoti uning joni chiqib ketdi, ko'zlari ochiq qoldi. Otasi jon taslim qilish bilan, yashin tezligida kelgan o'lim cholning yuzini qo'rqinchli tusga kiritib, butunlay o'zgartirib yuborgani zahoti bola qo'rqanidan o'tovdan otilib chiqdi va nima qilarini bilmay, vahimaga tushib, dod solib ho'ngrab boshi oqqan tomonga chopa ketdi. Uchar ham nima bo'lganini tushunmasa-da, dumini qisib, qo'rqa-pisa Elomon ortidan chopaverdi. Elomon Issiqko'lning to'lqinlari mavjlanib yotgan qirg'og'iga yetganidagina o'ziga keldi. Shu yerda u serrayib, turib qoldi.

Issiqko'l o'sha kecha junbisha kelib, shiddatli chayqalib, to'lqinlarni o'ynatmoqda edi. Biroq Elomonning qulog'iga boshqa tovushlar – to'xtovsiz qiy-chuv eshitildi. U Osmonga qaradi va nim qorong'i osmonda son-sanoqsiz qushlar bulutini ko'rdi. Beadad, tumonat qushlar. Qushlar Ko'l ustida katta doira hosil qilib, aylanib uchmoqda, yo'lda uchraydigan tog'lar tepasidan oshib o'tish uchun yuksaklikka ko'tarilayotgan edi. Nihoyat, qushlar Ko'l ustidan oxirgi marta aylanib uchib o'tdi va turnaqator tizilishib, yanada balandga ko'tarila borib Bo'o'm darasi tomon yo'l oldi va dovondan oshib Tolchuy vodiysi yo'nalishida ko'zdan g'oyib bo'ldi. Bola qushlar yiroq o'lkalarga uzoq muddatga uchib ketganini,





ularning Tolchuy vodiysidan o'tishini, undan naridagi noma'lum va notanish yurtlarga borajagini tushundi va o'zini qo'lga olib, joni boricha qichqirdi:

– Bizning otamiz o'ldi! Qo'ychiman akamga aytinglar – otamiz vafot etdi! Otamiz o'ldi, o'ldi!..

* * *

Biz tog'lar ustidan uchdik. Dovonga yetganimizda qattiq shamol turib, qop-qora bulutlarni qarshimizga haydab keldi. Oldin yomg'ir tomchiladi, keyin ho'l qor yog'di, shalabbo bo'lgan qanotlarimiz yaxladi, uchish qiyinlashdi. Bizning galamiz orqaga qaytdi. Biz hammamiz baqirib-chaqirib yana ko'l ustida aylanib ucha boshladik, qanotlarimiz sergidi, aylanib uchganimiz sari yuksaklikka ko'tarila bordik, so'ng yana yo'lga tushdik. Lekin bu gal shu qadar baland ko'tarilib uchdikki, tog'lar-u bulutlar juda pastda qolib ketdi, quyosh nurlari bizni quvib yetganda dovondan oshib o'tgan edik, ostimizda uzoqda Tolcho'y vodiysi keng yoyilib yotardi. Eh, rohatbaxsh Tolchuy, buyuk cho'llarga tutashib ketgan go'zal vodiya! Butun vodiya boshdan oyoq quyosh nurlariga cho'milib yotardi, yerni yashil maysalar gilami qoplagan, daraxtlarning novdalari esa bo'rtib, kurtak bog'lagandi.

Vodiyning o'rtasida ilang-bilan bo'lib kumushrang Chuy daryosi oqib yotibdi, yo'limiz xuddi shu daryo o'zanidan o'tishi kerak. Biz sog'inganimizdan osmondan turib vodiya bilan o'z tilimizda qiyqirib salomlashdik, so'ng daryo bo'ylab asta-sekin pasaya boshladik va yerga yaqinlashib bordik. Chunki sal narida daryo bo'yida suvli qamishzor bor, qush karvonlarining ko'ldan boshlangan doimiy buyuk yo'lida biz birinchi marta ana shu yerga qo'nib o'tishimiz kerak. Bu yerda biz dam olishimiz, oziqlanib bo'lgach, yana safarga o'tlanishimiz lozim. Biroq bu gal odatdagi joyga qo'nib o'tish nasib etmadi.

Galalarimiz qanotlari va dumlari yordamida parvozi



sekinlashib, birin-ketin jonajon qo'nim joyimizga yaqinlashganimizda qirg'in-barot jang ustidan chiqib qoldik. Bu dahshatli bir manzara edi. Son-sanoqsiz odamlar, ming-minglab otliq va piyodalar shu yerda, bizning qo'nim joyimizda jon berib-jon olishmoqda edi. Dahshatli hayqiriqlar, vahshiyona ovozlari, bo'kirish-o'kirishlar, na'ralar, chinqirishlar, ingrashlar, otlarning kishnashlari, pishqirishlari osmon-u falakni qoplagandi. Keng maydonda odamlar bir-birlarini jahannamga jo'natishmoqdaydi. Kishilar bir qarasang, na'ra tortib bir-birlarining ustiga nayza o'qtalib yopirilishar, to'qnashib qolganda bir-birlarini yerga yiqitishar, tiriklayin ustiga ot qo'yar; bir qarasang, bir-birlaridan qochib uzoqlashar; bir qarasang, birovlar qochib ketayotgan bo'lsa, boshqalari quvib ketardi. Kimlardir qamish orasida pichoq va qilich bilan jang qilib, bir-birini bo'g'izlar, qorinlarini yorardi. Qayoqqa qaramang, odamlarning jasadlari-yu otlarning o'liklari tog'-tog' bo'lib uyulib yotar, suv keng yoyilib oqqan joyda son-sanoqsiz murdalar daryo suvini to'sib qo'ygandi, qip-qizil qon aralash suv hamma yoqqa yoyilib, otlarning tuyoqlari ostida qon xalqoblarini hosil etgandi.

Bizning galalarimiz yuraklari orqaga tortib, sarosimaga tushib, gangib qoldi, osmonda qiy-chuv boshlandi, saflarimiz buzilib ketdi va hammamiz vahimaga tushib betartib bulutlar kabi bir joyda aylanib ucha boshladik. Ancha vaqtgacha o'zimizga kelolmadik, bir-birlarini o'ldirgan baxtsiz odamlar ustida birpas uchib yurdik, talay vaqtgacha galalarimizni to'plash bilan ovora bo'ldik, allavaqtgacha tinchiy olmadik. Oxir-oqibat, biz o'sha yerga qo'nib o'ta olmadik, o'sha mash'um joydan ketishga va safarni davom ettirishga majbur bo'ldik...

* * *

Kechiringlar, o'tar qushlar! Bo'lib o'tgan vahshiylik uchun kechiringlar, bo'lajak vahshiyliklar uchun kechiringlar. Bani odam hayoti nima uchun shunday ekanini, nega ona





zaminda shuncha o'ldirilganlar va o'ldirilayotganlar borligini men tushintirib bera olmayman, sizlar tushuna olmasizlar... Kechiringlar, Xudo haqi, kechiringlar, musaffo kengliklarga safar qiladigan samoviy qushlar... Jang tugagandan keyin u yerda quzg'unlar bazmi boshlandi, o'limtikxo'r qushlar jig'il-doni yorilguncha odam go'shtiga to'yishdi, uchish u yoqda tursin, qanotini ham qimirlata olmay qolishdi. Jangdan keyin shoqollar bazmi boshlandi – chiyabo'rilarning odam go'shtiga qorni shu qadar to'ygan ediki, gavdalarini zo'rg'a sudrab ketishdi. Qushlar, keting bu yerdan, bu mudhish joydan uzoq-uzoqlarga uchib keting.

* * *

Ibtidoiy tabiat mavjudligidan buyon shunday: har safar vaqti yetganda – erta ham emas, kech ham emas – har yili bir xil vaqtda qushlar uzoq safarga otlanadi. Ular, albatta, uchib ketadi, uchganda ham faqat ana shu uchar qushlargagina ma'lum o'zgarmas havo yo'llari bo'ylab uchib, dunyoning u chekkasidan bu chekkasiga boradi. Momaqaldiroqlar-u bo'ronlardan o'tib, kecha-yu kunduz qanot qoqib uchadi, hatto uchayotib uxlab ketadi. Ularning tiriklik mohiyati shunda: tabiat dunyosida narsalarning o'zgarmas tartibi mavjud. Qush karvonlari shimolga, azim daryolar bo'ylariga, azaldan uya yasab bola ochadigan joylarga uchib boradi. Kuzda esa voyaga yetgan bolalari bilan janubga uchib keladi, shu zaylda bu jarayon uzluksiz takrorlanaveradi...

Mana, biz qancha kunlardan beri uchib ketyapmiz. Ana shu osmon-u falakda, ana shu sovuq hukmron yuksaklikda shamol mangu daryo kabi shovqin solib oqib yotadi. Bu daryo cheksiz Koinotda nozohiriy Vaqtning noma'lum tomonga tinim bilmay qilayotgan harakatidir.

Bizning bo'yinlarimiz kamon o'qi, tanamiz yurak bo'lib charchoq nima ekanini bilmasdan shiddat bilan harakatda. Hali safar uzoq, tolmasdan qanot qoqaveramiz, qanot



qoqaveramiz...

Biz borgan sari baland ko'tarilib parvoz qilmoqdamiz... Endi tog'lar tekislikdek bo'lib qoldi, keyin esa umuman ko'rinmay ketdi, kurrai zamin bo'lsa uzoqlashgandan uzoqlashib, yer yuzasi chaplashib ketganday bo'ldi – qayerda Osiyo, qayerda Ovrupa, qayerda okeanlar-u qayerda quruqlik ekanini farqlab bo'lmay qoldi. Gir-atrofimizda bo'shliq hukmron, cheksiz Koinotda faqat bizning Yer sayyoramizgina cho'lda adashgan bo'taloq kabi olam kezmoqda, sekin suzib onasini qidirib yuribdi. Xo'sh, o'sha ona tuya qani? Yerning onasi, onaizori qani? Savol – javobsiz! Faqat shamol, xilvat yuksakliklarning shamoli g'uvullaydi, faqat Yer kurrasi yosh bolaning boshidek yakka-yolg'iz suzib, chayqalib qo'ymoqda – yerimiz beqaror, yerimiz beqaror. Nahotki, ana shu yer shunchalik Yaxshiliklar maskani, shunchalik Yovuzliklar mako ni bo'lsa?! Yo'q, yovuzlikka erk bermaslik kerak, o'tinaman, kadxudolar¹, so'zamollar, ijodkorlar!

Men ana shu parvoz qilayotgan galada bor-yo'g'i bir qushman. Men turnalarga qo'shilib uchib ketyapman va o'zim ham turnaman. Men turnalar bilan birga qorong'u kechada yulduzlarga qarab, kunduzi ekinzorlar va shaharlar ustidan uchaman. O'ylarga tolaman...

Qushlar galasi uzoqda ko'zda g'oyib bo'ladi. Qanotlari ko'rinmay ketadi. Mana, gala osmonda bir kichkina nuqtaga o'xshab qoldi va u ham g'oyib bo'ldi...

Hademay, yana bahor keldi va yana osmoni azimda turnalar «qur-qur»i yangray boshladi...

Ruschadan Suyun QORAYEV tarjiması

¹ **Kadxudo** (*forscha*: qishloq oqsoqoli) – 1) kent boshlig'i, qishloq oqsoqoli. 2) el-xalq o'rtasida gap-so'zi o'tadigan keksa kishi; mahalla oqsoqoli.

MUNDARIJA

Askar bola	3
Baydamtol sohillarida	13
Raqiblar	51
Oq yomg'ir	83
Qizil olma	97
Hayot-mamot	113
O'tar qush nolasi	142

JAHON ADABIYOTI DURDONALARI

Chingiz AYTMATOV

ASKAR BOLA

(hikoyalar to'plami)

Tarjimonlar:

Asil RASHIDOV

KOMILA

Karim, BAHRIYEV

Suyun QORAYEV

Nashrga tayyorlovchi:

Ergashbay MATYAKUBOV

Mas'ul muharrir:

Alisher RAVSHANOV

Qo'shimcha izoh va iqtiboslarni kirituvchi:

Ergashbay MATYAKUBOV

Musahhih:

Lolaxon QO'ZIBOYEVA

Kompyuterda sahifalovchi:

Feruzbek VOXIDOV

Litsenziya raqami AI № 239, 2013. 04. 07. da berilgan.

Bosishga 2018 yil 25.09 da ruxsat etildi.

Bichimi 84/108 1/16.

Bosma tobog'i 10 Shartli bosma tobog'i 13

Garnitura "Times New Roman" offset qog'ozi.

Adadi 1 000 nusxa. Buyurtma № 90

Bahosi kelishilgan narxda.

"ADAD-PLYUS" MChJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent, "Bunyodkor" shoh ko'chasi 28-uy. 100097

"BOOK MEDIA PLUS" xususiy korxonasida tayyorlandi.

Manzil: Toshkent, Chilonzor tumani, Cho'pon ota ko'chasi, 6-uy.

